

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

K.A. Shermuxamedov, J.A. Karimov

**EKSTREMIZM  
VA TERRORIZMGA  
QARSHI KURASHNING  
MA‘NAVIY-MA‘RIFIY  
ASOSLARI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus  
ta‘lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlarining  
5120600 – Dinshunoslik ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv  
qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

«O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti  
Toshkent – 2018

**UO‘K:323.28:2(075.8)**

**KBK: 86.2**

**Sh 48**

**Shermuxeamedov, K.**

**Sh 48 Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari** [Matn] : o‘quv qo‘llanma / K.A. Shermuxeamedov, J.A. Karimov. – Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 176 b.

**UO‘K: 323.28:2(075.8)**

**KBK: 86.2**

O‘quv qo‘llanmada islom dinining tinchlikparvar, bag‘rikenglik mohiyati, diniy mutaassiblik, ekstremizm hamda terrorizmning salbiy jihatlari keng qamrovli ma’lumotlar va dalillar asosida bayon qilingan. Davlat va din orasidagi munosabatlar, uning O‘zbekistonda namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari atroflicha yoritilgan. Ekstremizm va terrorizmning mohiyati, unga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari kabi masalalar tizimli ochib berilgan.

Shuningdek, O‘zbekistonning ekstremizm va terrorizmga qarshi global kurashda tutgan o‘rni, mamlakatimizning tadrijiy taraqqiyotini ta’minlash yo‘lida olib borilayotgan ishlarning ustuvor yo‘nalishlari, xususan din sohasidagi ilmiy asoslangan siyosat va fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning mazmunini ochib berishga ham alohida e’tibor berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaninig 6865-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

#### **Tuzuvchilar:**

**K.A.Shermuxeamedov** – «Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o‘rganish YUNESKO» kafedrasida o‘qituvchisi;

**J.A.Karimov** – «Islom fanlari» kafedrasida katta o‘qituvchisi.

#### **Mas’ul muharrir:**

**A.Hasanov** – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi «Islom tarixi va manbashunosligi» kafedrasida professori, t.f.d.

#### **Taqrizchilar:**

**D.Rahimjonov** – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi «Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o‘rganish YUNESKO» kafedrasida mudiri, t.f.n., dotsent;

**M.Ishoqov** – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti «Markaziy Osiyo xalqlari tarixi» kafedrasida dotsenti, t.f.d.

ISBN 978-9943-5489-6-1

© «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018.

## KIRISH

«Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari» fani bo'yicha ushbu o'quv qo'llanma O'zXIA «Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish YUNESKO» kafedrasidan ishlab chiqilgan bo'lib, u bakalavriyat talabalarining zaruriy tayyorgarlik darajasi va bilimlari mazmuniga qo'yiladigan talablar asosida tayyorlangan.

Mazkur mavzu bo'yicha talabalarga jahondagi din va qonun masalalarining umumiy tavsifi, klassifikatsiyalari, vujudga kelish tarixi, tuzilishi, maqsad va vazifalari, o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, xalqaro diniy tashkilotlarning umumiy tavsifi, klassifikatsiyalari, vujudga kelish tarixi, tuzilishi, maqsad va vazifalari, o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Yurtimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda milliy-diniy qadriyatlarning ahamiyati katta. Xalqimiz diniy, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy va madaniy bilimlarini oshirish, ayniqsa, yoshlarimizni buyuk ajdodlarimiz merosidan bahramand bo'lishi, islom dinining insonparvarlik falsafasi va ezgu g'oyalari yoshlar qalbidan joy olishi uchun mamlakat ta'lim tizimi sohasida ko'plab ishlar olib borilmoqda. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, uni jadallashtirish omili bo'lmish fanning turli sohalarini jumladan, davrni, zamonni falsafiy mushohada qilishning ham tubdan yangilanishini taqozo qilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda «Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari» fani ham shu maqsadlarga qaratilgan faoliyatlardan biri bo'lib, unda fanning mavzusi, muammolari, obyekti, vazifalari, uning jamiyatdagi o'rni ilmiy-nazariy va uslubiy jihatdan tadqiq qilinadi hamda yoshlar ongida diniy mutaassiblik, ekstremizmning salbiy oqibatlarini haqida atroflicha bilim va ko'nikmalar hosil qilinadi.

Ta'kidlash lozimki, yoshlar ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni ona Vatanga muhabbat, milliy va diniy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash asosida har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu maqsadda, davlatimiz kelajagi hisoblangan yosh avlod tarbiyasiga yurtimizda doimo alohida e'tibor qaratilgan. Darhaqiqat, bugungi kunda

dunyo hamjamiyatida mafkuraviy poligonlarning yoshlar tarbiyasiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri har bir mamlakat, davlat, xalq oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday jamiyat kelajak poydevori sifatida o'z siyosatida yosh avlod tarbiyasini yetakchi o'ringa qo'yishi tabiiy hol. Globallashuv deganda, eng avvalo ko'z oldimizda rivojlanish, taraqqiyot gavdalanishiga qaramay, bunday sharoitda o'sib kelayotgan barkamol avlod ongni turli xil yot g'oya va mafkuraviy xurujlardan saqlash muammosi ham muhim vazifalardan sanaladi. Ushbu masalalarga to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov «Bunday g'arazli kuchlarning asosiy niyati — hali hayotiy tajribasi, siyosiy-ijtimoiy saviyasi yetarli bo'lmagan, sodda va g'o'r yoshlarni yo'ldan urish, o'zining qabih niyatlari yo'lida foydalanish ekanini hech qachon unutmashimiz kerak. Faqatgina mustaqil fikrlaydigan, imon-e'tiqodi mustahkam, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan ezgu qadriyatlarga sadoqatli bo'lgan insongina bunday qutqularga uchmasligi, to'g'ri yo'ldan adashmasligi mumkin. Buning uchun, albatta, birinchi navbatda farzandlarimizni yuksak bilim va ma'naviy fazilatlar bilan qurollantirishimiz lozim. Ularga biz uchun muqaddas bo'lgan islom dinining chinakam insoniy mohiyatini, uning tinchlik, yaxshilik, mehr-shafqat, hamjihatlik dini ekanini to'g'ri tushuntirib berishimiz kerak. Bizga yot va begona bo'lgan turli zararli oqimlardan himoyalani uchun odamlarga bu boradagi bor haqiqatni yetkazish zarur. Ta'bir joiz bo'lsa, bunday xavf-xatarlardan odamlarni, avvalambor, yosh avlodni haqiqat bilan himoya qilish kerak»<sup>1</sup>, deya alohida ta'kidlaganlar.

G'oyalar kurashi avj olayotgan XXI asrda dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida hal etilishi zarur bo'lgan ko'plab muammolar yuzaga kelayotgani, kishilarning osuda hayotini izdan chiqarishga qaratilgan yangi shakldagi tahdidlarning paydo bo'layotgani va buning natijasida buzg'unchi g'oyalar mafkura maydonini qurshab olayotgani barchamizdan ogohlik va hushyorlikni talab et-

---

<sup>1</sup> *Аждодлар хотираси муқаддас. — «Тошкент оқшоми» газетаси. 2013-йил 1-сентябрь, 177-сон.*

moqda. Ayniqsa, farzandlarimiz ma'naviyatiga tajovuz solayotgan tahdidlar qatorida, dinni niqob qilib, diniy qadriyatlarimizni oyoqosti qilishga urinayotgan ekstremistik va missionerlik harakatlarining faoliyati jiddiy tashvish uyg'otmoqda. Bunday kuchlar yoshlar ongi va qalbini zabt etish maqsadida har qanday qabih yo'llardan foydalanishga urinmoqda. Din bayrog'i ostida talonchilik va bosqinchilik, terrorchilik va qo'poruvchilik harakatlarini sodir etayotgan, jamiyatga har tomonlama zarar yetkazayotgan bunday harakatlar yosh avlod orasida millatlararo va dinlararo adovat, millatchilik va diniy ayirmachilik kayfiyatlarining shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Bunda yoshlarni ma'naviy tahdidlar ta'siridan asrash, ularning ongida, tarbiyasida yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «... farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi»<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning shiddat bilan rivojlanishi, kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining tez sur'atlardagi taraqqiyoti, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi uslub va vositalarning takomillashuviga turtki bo'lib, ma'naviy tahdidlar global muammoga aylandi. Bu dolzarblik Yer yuzining turli mintaqalari xalqlarining ongi va qalbi turli g'oyalarni sinash maydoniga, boshqacha aytganda mafkuraviy poligonga aylantirilayotgani bilan ham belgilanadi. Zamonaviy voqelik inson qalbi va ongi uchun bo'lgan kurashlarning yangidan-yangi usul va vositalarining ko'payib borayotgani, ayniqsa, bu borada yuqorida qayd etilganidek, din omilidan foydalanishga urinishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shunday ekan, XXI asrda qabohat o'chog'iga aylangan ekstremizm va har xil shaklu shamoyildagi mutaassiblikka yo'g'rilgan

---

<sup>1</sup> *Каримов И.А. Южаск маънавият — энгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008. — 4-б.*

buzg'unchi urinishlarga qarshi hayotimizda sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar haqidagi chuqur tahliliy ma'lumotlarni yosh avlodga yetkazish, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, bunda «fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish» har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur o'quv qo'llanma «Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari» maxsus kursi uchun tayyorlangan bo'lib, unda yoshlar ongida ekstremizm, mutaassiblik hamda missionerlikning salbiy oqibatlarini haqida atroflicha bilim va ko'nikmalar hosil qilinadi.

Shuningdek, kelajak avlodni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg'unlashuvi, oiladagi va jamiyatdagi muhitning tarbiyaviy ta'siri beqiyos o'rin tutadi. Ota-bobolarimiz tomonidan ming yillar davomida shakllantirilgan va asrlar osha sayqallanib kelayotgan, ma'naviy merosimiz bo'lgan diniy qadriyatlar yoshlar dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Farzandlarni dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligida tarbiyalash orqali amalda sog'lom e'tiqod shakllanadi hamda har xil bid'at-xurofot amallarni farqlash, turli diniy oqim va yo'nalishlar ta'siri hamda aqidasiqa qarshi immunitet hosil qilish imkonini yaratadi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, mazkur o'quv qo'llanmani tayyorlashda ushbu fan doirasidagi xorijiy adabiyotlardan keng «istifoda» etildi. Zotan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lim vazirligining «2016–2017-o'quv yilidan oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirish va fanlarning zamonaviy o'quv adabiyoti ta'minotini yaratish maqsadida xorijiy o'quv adabiyotlarini tarjima qilish» bo'yicha topshirig'idan (№ 87-01/1-39, 05.03.2016-y.) kelib chiqib, «Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari» fani uchun xorijiy adabiyotlardan keng foydalanildi.

## 1-mavzu. EKSTREMIZM, MUTAASSIBLIK VA TERRORIZMNING MAZMUN-MOHİYATI

1. Ekstremizm, aqidaparastlik va mutaassiblikning mazmun-mohiyati.
2. Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari.
3. Islom niqobidagi ekstremizmning g‘oyaviy ildizlari.
4. Soxta salafiylik harakatining yuzaga kelishi va g‘oyaviy asoslari.

*Tayanch so‘z va iboralar: ekstremizm, diniy ekstremizm, fundamentalizm, mutaassiblik, aqidaparastlik, terrorizm, xalqaro terrorizm, xorijiylik, soxta salafiylik.*

Ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Zero, hozirda ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo‘lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. Shunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylangandi.

**Ekstremizm** (lotin: «aql bovar qilmas darajada», «haddan oshish») jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarashlar va harakatlarni anglatadi. Ularga diniy tus berish esa, ekstremizmga olib keladi.

**Diniy ekstremizm** — jamiyat uchun an’anaviy bo‘lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g‘oyalarni aldov va zo‘rluk bilan targ‘ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi.

Ekstremistik qarashlarni barcha dinlarda, buddizm, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar — papa hokimiyati dushmanlarini ta‘qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo‘lishiga olib kelgan inkvizit-

siya faoliyatini ham ekstremizmning o'ziga xos ko'rinishi sifatida baholaydilar. Ammo hozirda islom dini niqobi ostidagi diniy-siyosiy harakatlar a'zolari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilayotgani jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda.

**Fundamentalizm** – (lotin: «asos») tushunchasining ma'nosi muayyan ijtimoiy hodisaning dastlabki ko'rinishini anglatadi.

**Diniy fundamentalizm** – «ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin», degan fikrni ilgari surish ta'limoti.

«Fundamentalizm» atamasi aslida xristian dini bilan bog'liqdir. Fundamentalizm iborasi birinchi bor I Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantizmdagi ortodoksal oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910-yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa Bibliyaning mutlaqo mukammalligiga ishonishni mustahkamlash, uni so'zma-so'z sharhlashga qat'iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib ketdi. 1919-yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

*1983-yildan buyon AQSH Davlat departamenti analitik va statistik maqsadlardan kelib chiqib, terrorizmga quyidagicha ta'rif beradi: «Uyushgan, siyosiy ruh berilgan, biror-bir millat a'zolaridan iborat guruh yohud maxfiy agentlar vositasida, odatda ko'pchilikka ta'sir etishni maqsad qilgan holda tinch aholiga nisbatan sodir etilgan jinoyat».*

*Bundan tashqari odatiy janglar, ommaviy qirg'inlar paytida askarlar tomonidan terroristik xurujlar va urushlarda kuzatiladigan jinoyatlar sodir bo'lib turadi. Qurshovlar chog'ida o'ldirish, genotsidlar yoki bir davlat hududidagi dushmanlar yuragiga g'ulg'ula solish maqsadida sahnalashtirilgan harakatlar ham ayni terrorizmdir. Shuningdek, agarda bunday harakatlar davlatga qarshi bo'lmasa, unda bunday diniy janjalkash oqimlarning turli xil suitsid holatlari bilan bog'liq bo'lgan, eng kamida bir turkumga mansub ekanini ko'rsatuvchi «diniy» terrorizmga oiddir. Bunga o'xshash holatni*



*fuqarolik urushlarida ham ko'rish mumkin. Buning misoli o'laroq Jazoiridagi islomiy siyosiy partiya va armiya o'rtasida bo'lgan jangni olish mumkin. Bu jangni terroristik konflikt deyish ham bunday deb hisoblamaslik ham mumkin, shunga qaramasdan ko'p sonli qurbonlar va katta zarar muammo yuqoridagilarga bog'liq ekanini ko'rsatadi.*

*Bundan tashqari terrorism atamasiga bir qancha xulosaviy izohlar ham mavjud. Jumladan, Jessika Sternga ko'ra: «Terrorizmni boshqa urush-janjallardan farqlab olish mumkin bo'lgan ikki xarakteri mavjud. Birinchidan, terror tinch aholiga qaratiladi. Bu uni urushlardagi kurashdan farqlab turadi. Ikkinchidan, terrorchilar oliy maqsadlari yo'lida qo'rqitishdan foydalanadilar: bu odatda mo'ljaldagi aholi orasida qo'rquv uyg'otish bilan bo'ladi. Ushbu maqsadli uyg'otilgan qo'rquv hissi terrorni oddiy qotillik yohud jinoyatlardan farqlanishini ko'rsatadi.*

*Kristafor Garmon ham bir qancha jihatdan to'g'ri bo'lgan boshqa bir aniq ta'rifni taqdim qilgan. «Terrorning birgina tabiati mavjud bo'lib, u turli xil hissiyotlar, masalan, qattiq g'azab, o'ta sovuqqonlik, hatto ma'lum qurbonlarni jannatni va'da qilgan holda o'limga olib borish bilan baholanadi. Yana terror hech qachon o'zining siyosiy kuchlar xizmatidagilarni yomonotliq qilish xarakterini o'zgartirmaydi. Ushbu — deya davom etadi u, — rejali sistemalashtirilgan jinoyat, jarohatlar va begunoh kishilarda siyosiy yakunlardan qo'rquv hissini uyg'otishdir». Brus Hofman ham terrorga quyidagicha ta'rif beradi: «Terrorizm bu — tashkil qilingan, zo'ravonlik vositasidagi qo'rquvdan foydalangan holda yoki siyosiy o'zgarishlarda o'z maqsadi yo'lida zo'ravonlik tahdididan foydalanish. Barcha terroristik aktlar zo'ravonlikdan yohud zo'ravonlik orqali tahdid qilishdan iboratdir. Terror tasodifiy qurbon(lar) da yohud terroristik hujum muayyan qaratilgan obyektida ulkan psixologik ta'sir o'tkazishga mo'ljallab tashkil qilingan bo'ladi. Buning mazmuni insonlarni qo'rquv ichida boshqarish va natijada o'zi istagan ishni bemalol qildirishdir. Yanada kengroq olinsa raqib bir etnik guruh, biror-bir diniy jamoa, butun bir davlat, qaysidir bir*

*milliy hukumat yohud siyosiy partiya yoki umumiy sotsial fikrni o'z ichiga oluvchi «mo'ljaldagi auditoriya»ni o'z yo'rig'iga yurgizishdan iborat. Shuningdek terror qayerda ma'lum bir kuch mavjud bo'lmasa uni yaratishga, agar u kuch zaif bo'lsa uni nog'orasi-ga o'ynatishga urinadi. Zo'ravonliklari natijasi bo'lmish ommaviy axborot vositalari orqali terroristlar eng muhim richag – ta'sir va kuchni qo'lga kiritishga urinadilar, aks holda ular siyosiy o'zgarishlarda ta'sir kuchini yo'qotadi, u xoh mahalliy bo'lsin, xoh u xalqaro miqyosda bo'lsin<sup>1</sup>.*

Qayd etish lozimki, XX asrning 70-yillaridan boshlab, bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshladi. Bunda «fundamentalizm» atamasi – Qur'on va hadislarni so'zma-so'z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ'ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi yo'nalishga nisbatan ishlatildi. Buning natijasida jahon matbuotlarida islom niqobidagi mutaassib jangarilarni «fundamentalistlar» deb atash ham odat tusiga kirdi.

Shunday ekan, ekstremizm yoki fundamentalizmni faqat muayyan din bilan bog'lash mutlaqo asossiz. Xususan, islom dini, u bilan bog'liq turmush tarzi va qadriyatlar majmuyi hech qachon ekstremistik tuzilmalarning go'yo din va musulmon jamoasi ravnaqi yo'lida amalga oshirayotgan terrorchilik xurujlarining asosiy sababi sifatida qaralishi mumkin emas.

Islom shiorlaridan tanlab foydalanadigan, dinning asl mohiyatini buzib talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar xuddi yuqoridagi kabi go'yoki keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko'rsatish, aslida esa jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish uchun mablag' yig'ish, asosiy tahdid manbayi sifatida odamlar ongini egallash, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishishdek ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko'zlaydi.

---

<sup>1</sup> *Cooper B. New Political Religions, or An Analysis of Modern Terrorism. University of Missouri Press. Columbia and London. 2004. –P. 30–35.*

Hozirgi davrda ko‘plab ekstremistik uyushmalar va mutaassib harakatlar turli dinlar, shu jumladan, xristianlik, islom, yahudiylik dinlari ta’limotidan foydalanmoqda.

**Aqidaparastlik** (arab. «aqida» – «ishonch», «biror narsani ikkinchisiga bog‘lash») muayyan sharoitda, biron-bir g‘oyaga qat’iy ishonib, uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda ko‘r-ko‘rona qo‘llash yoki shunga urinishni anglatadi. U muayyan qonun va qoidalar ta’sir doirasini sun’iy kengaytirishga urinishda yorqin namoyon bo‘ladi.

Diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiy sababi bu – mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo‘lishidir. Demak, mutaassiblik ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi.

**Mutaassiblik** (arab. «chuqur ketish») o‘z fikr-mulohaza va dunyoqarashi to‘g‘riligiga o‘ta qattiq ishonib, boshqa diniy e’tiqodlarga murosasiz munosabatda bo‘lishni anglatadi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo‘nalishlar orasida keskin nizo va to‘qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan.

Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy mutaassiblik g‘oyalarining tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu jarayonning eng xatarli jihati dinni siyosiyashtirish vositasida hokimiyatga intilish, dindan odamlar orasiga nifoq solish, qo‘poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g‘arazli manfaatlarni ro‘yobga chiqarishda foydalanishga urinishlarda namoyon bo‘lmoqda.

**Terrorizm tushunchasi va uning asosiy belgilari.** Terrorizm (lotin: «qo‘rqitish», «vahimaga solish») – aholining keng qatlamlarida vahima va qo‘rquv uyg‘otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir.

Musulmon mamlakatlarida terrorchi uyushmalar ommaviy bo‘la olmagan uchun aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uyg‘otish maqsadida diniy shiorlardan niqob

sifatida foydalanadilar. Hozirgi davrda u global miqyos kasb etib, xalqaro terrorizm shaklini oldi.

Xalqaro terrorizm tushunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U og'ir jinoyatlardan bo'lib, uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi.

Xalqaro terrorizm fenomeni ayniqsa, XX asr boshlarida avj ola boshladi, ya'ni xalqaro terrorizmga qarshi kurashda davlatlararo hamkorlikning yo'lga qo'yilishi o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Masalan, 1934-yilda Madridda bo'lib o'tgan jinoyatchilikka oid qonunlarni unifikatsiyalashtirish muammolariga bag'ishlangan konferensiyada terrorizmning «Aholini dahshatga solish va har qanday ijtimoiy tashkillashuvni yo'q qilish maqsadida biror-bir vositani qo'llash» degan ma'nodagi ta'rifi qabul qilinishiga erishilgan. 1937-yilda 20 dan ortiq davlat terrorizmning oldini olish va bunday harakatlar uchun jazolash haqidagi Konvensiyani imzoladi.

Bugungi kunda terrorchilik uslublari ancha kengayganini ta'kidlash zarur. 1970-yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyushtirilgan terror amaliyoti ko'proq uchragan bo'lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus va poyezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko'plab tasodifiy kishilarning qurbon bo'lishiga olib keladigan qo'poruvchilikni amalga oshirishga e'tibor berilmoqda. Ekspertlarning fikricha, bunday harakatlar birinchi navbatda jabrlanganlardan ko'ra, uning guvohlariga qaratilgan bo'ladi.

Muayyan mamlakat hududida sodir etilgan terrorchilik xurujida yuqorida qayd etilgan u yoki bu belgilarning bo'lishi, unga xalqaro maqom berilishi va shundan kelib chiqib, unga mos choralar ko'rilishiga olib keladi.

**Xalqaro terrorizm.** Xalqaro terrorizm tushunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U alohida siyosiy arboblarni o'ldirish yoki ularga qasd qilish orqa-

li xalqaro ijtimoiy-siyosiy aks-sado beradigan buzg'unchi siyosiy harakatlarni ifodalash uchun ham ishlatiladi.

Terrorchilik harakatlarining:

— xalqaro huquq himoyasidagi obyekt yoki subyektlarga qarshi qaratilgani;

— davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi;

— a'zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari, shu jumladan, yollanma shaxslar bo'lgan ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilishi;

— ekstremistik guruhlar tarkibida qo'poruvchilik harakatlari bo'yicha xorijlik yo'riqchilarning qatnashishi;

— ekstremistik guruh a'zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko'rish;

— tayyorgarlik ko'rish va qo'poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog' savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanilishi, uning xalqaro terrorchilik xuruji ekanini ko'rsatuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi.

Muayyan mamlakat hududida sodir etilgan terrorchilik xurujida qayd etilgan u yoki bu belgilarning bo'lishi, unga xalqaro maqom berilishi va shundan kelib chiqib, unga mos choralar ko'rilishiga olib keladi.

*Qayd etish lozimki, terror OAV tarqatayotgan ma'lumotlardan keng foydalanadi. Bunday ma'lumotlar terrorning hukumatni va jamiyatni o'zi istaganini qildirishida foydalanadigan eng asosiy omilidir. Bu kabi ma'lumotlar terrorizmga o'zi tanlagan odamlarini istagan o'rinlarga qo'yishga ko'plab imkoniyatlar yaratib beradi. Terrorchilar sodir etadigan har bir akt, terrorning umumiy faoliyatidagi har bir kichik to'qnashuv ham ular ko'rsatgan sabablariga e'tiborni tortish uchundir. Hech qanday demokratiya terror bilan murosaga qila olmaydi. Boisi terrorizm demokratiyaning har qanday zulmini, o'z vaqtida, muhokama qilish, tinch va murosaga tayangan holda to'g'rilash mumkin degan qarashlarini mutlaqo inkor etadi. Qotillik va vayronagarchiliklar orqali terroristlar oshkora qo'rqitadilar va*

oxir oqibat o'z maqsadlariga erishadilar, chunki bunday ma'lumotlar e'lon qilinadi.

An'anaviy terrorchilarning maqsadlaridan shuni anglash mumkinki, tig'iz paytlardagi yangiliklarni tez-tez qo'yilishi orqali ular rejalashtirgan maqsadlariga erishganlar. Masalan, 1975-yildan ilgari Niderlandiyadagi poyezdni garovga olishganidagi holatni keltirish mumkin<sup>1</sup>.

Qisman, vahimachilar va minimalistlar o'rtasidagi uzoq davom etgan tafovut fanning jismoniy va ijtimoiy sohalariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Sobiqlarga eng yomon choralar mavjud edi, chunki ular kimyoviy va biologik agentlardan hamda ularning zaharligini oshiruvchi texnik talablardan xabardor edilar; kelgusida qanday hodisa ro'y berishi ularni tashvishga solardi. Ammo, tarixchilar va siyosatshunoslar bu jarayonga skeptik yondashib, «qurolning salohiyati va uni ishlatish qobiliyati o'rtasida doim katta bo'shliq bo'lgan», deyishadi. Tarixchi va siyosatshunoslarning xavotiri «nima yuz berishi mumkin» kabi faraziy savollar emas balki «o'tmish asosida kela-jak qanday kutilishi mumkin» kabi savol tashvishga solardi.

Qayg'uli bashoratlar optimistklarga qaraganda ancha ehtiyotkoridir, chunki, agar qayg'uli bashoratlar ushalmasa, ular hali ham aqlli fikrni bildiradi, ammo tahdidni to'g'ri baholay olmay xato qilishgan paytida ular mas'uliyatsiz ko'rinadilar. Shunga qaramay, o'rta ohangda kelib chiqqan bu kabi «ehtiyotkorlik» o'z xavfiga ega, chunki resurslar cheklangan va ular deyarli cheksiz hisoblangan zaifliklarga qaratilib yanada samarali tarqatilishi mumkin.

Bundan tashqari, tarixdan, zaifliklarga qaraganda tahdidlarga ko'proq e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'lgan. Terrorchilar, azaldan ommaviy qirg'in qurollaridan (OQQ) foydalanishmagan, chunki bu kabi qurollar mantiqiy ushlab turishga legal darajada effektiv bo'lgan. Shunga ko'ra, OQQdan foydalanishga imkoni bo'lgan davlatlar NGOga OQQlarni yetkazib berganligi dargumon edi, chunki

---

<sup>1</sup> Cooper B. *New Political Religions, or An Analysis of Modern Terrorism*. University of Missouri Press. Columbia and London. 2004. — P. 33–34.

ulardan oqilona foydalanish bilan aslida ulardan foydalanishni oldini olish zarur edi.

Agarda, noan'anaviy terrorchilar guruhi shu kabi qurollar bilan ta'minlanganida ham, ularni ta'minlagan davlat ham ishonchsiz terrorchilar tomonidan yoki qasos sifatida boshqa davlatlar tomonidan katta xayf ostida bo'lar edi. Bundan tashqari, yuqorida ta'kidlanganidek, ommaviy qurbonlar, siyosiy taraf va xususan, cheklangan maqsadga ega bo'lgan an'anaviy terrorchilar tomonidan kuzatilmagan. Siyosatchilar, kerakli chegaralarni yuklaydi, xattoki bu terrorizmga aloqador bo'lsa ham, chunki an'anaviy cheklovlar ham mavjud ekanini unutmaslik lozim. Oddiy terrorchilar begunohlarni o'ldiradi, ammo OQQ bilan ta'minlangan terrorchilar haddan ziyod ko'p odamlarni hech bir sababsiz qirib yuboradi. Bundan tashqari, OQQ undan foydalanayotgan paytda ham xayfli, ham qimmatdir, shuning uchun ko'pchilik terrorchilar qurol va portlovchi qurollar kabi oddiy, arzon va ishonchli qurollarni afzal ko'rishadi. Siyosiy analitiklar OQQlarning terrorchilar tomonidan muvaffaqiyatli foydalanilayotganiga skeptik qarayotgan bir paytda, qarama-qarshi tomonda mavjud shubhalarga statistik dalillar bor edi. Davlat departamenti va St. Andrews universiteti va Rand korporatsiyasi dalillariga asosan ta'kidlash lozimki, terroristik hujumlar 1970–1990-yillar mobaynida raqamlarda pasayganini ko'rsatgan bir paytda, aslida ularning soni oshgan deb ko'rsatilgan. 2000-yili CSIS hisobotida bu mavzuga doir quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: «Xususan tashvish, — muallif qayd qiladi, — shunday guruhlar kelib chiqishi-ki, ularning maqsadi hukumat bilan savdolashish yoki o'z nuqtayi nazarini jamoatchilikka singdirish emas, balki insoniyatga, ular nafratlanadigan tizimga katta hajmdagi talafot ko'rsatishdir». 1990-yillarda o'z yurishini boshlagan bir qancha guruhlar «siyosiy muammolarni keltirib chiqarish yoki hokimiyatni qo'lga olishni asosiy maqsad qilib olishmagan». Buning o'rniga ularning ko'pchiligi «xalqiga maksimal darajada zarar yetkazishni maqsad qilishgan». 1993-yilgi Jahon Savdo Markaziga hujum qilinishdan asosiy maqsad, «Egizak» binolarning qulashiga qasos sifatida ko'p sonli in-

*sonlarning umrini olish bo'lgan degan mulohazalar bo'lib o'tgan. Lettallikning o'sish yo'nalishi o'z-o'zidan, xuddi zinapoya OQQ tomon ketayotqanidek, dahshatli edi*<sup>1</sup>.

**Qarshi kurash strategiyasi.** Zamonaviy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e'tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko'p qirrali siyosatni amalga oshirishda sabrlik va sobitlikni talab etadi. Shakllanib, keng tarmoq otgan terrorizmga qarshi kurashda kuch ishlatmagan davlatlar zaiflashib, o'z xalqi va mamlakati osoyishtaligi va barqaror rivojlanishini xavf ostida qoldiradi.

Ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog'liq bo'lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlaridir. Shunday ekan, terrorizm global miqyosga chiqqan hozirgi sharoitda, davlat unga qarshi kurashda ichki va tashqi omillarning ta'sirini hisobga olgan holda, muvozanatlashtirilgan strategiyani ishlab chiqishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, O'zbekiston Respublikasi o'z taraqqiyotining o'ziga xos jihatlarini, haligacha terrorizm, narkobiznes, noqonuniy qurol-yarog' savdosi kabi qator tahdidlar mavjud bo'lgan Markaziy Osiyodagi kuchlar nisbatini hisobga olib, ishlab chiqqan ichki va tashqi siyosati alohida ahamiyatga molikdir.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ushbu strategiyasida mamlakatimizning xalqaro hamkorlik dasturlarida, davlatlarning terrorizmga qarshi kurashdagi sa'y-harakatlarini birlashtirishda faol ishtirok etishini ta'minlash maqsadlari o'z ifodasini topgan.

Bu sohada o'zbek tashqi siyosatining negizini o'z kuchlarini hozirgi davrning asosiy tahdidi bilan qarshi kurashga yo'naltirishga tayyor barcha davlatlar bilan faol hamkorlik qilish tashkil etadi. Shu o'rinda, O'zbekiston amalda mintaqada va butun dunyo-

---

<sup>1</sup> *Cooper B. New Political Religions, or An Analysis of Modern Terrorism. University of Missouri Press. Columbia and London. 2004. – P. 30–55.*



da xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan barcha xalqaro dastur va ikki tomonlama hamkorlik aloqalarida faol ishtirok etayotganini ta'kidlash zarur.

Shuningdek, O'zbekiston davlatining barqaror taraqqiyot va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ichki siyosati ham ekstremizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi hamda ekstremizmdan terrorizmning kelib chiqishini bartaraf etishga qaratilgan faol strategiyadir. Unda ekstremizmga qarshi kurash orqali bunday tuzilmalar bag'rida voyaga yetishi mumkin bo'lgan terrorchilar faoliyatining oldini olishga intilish o'z aksini topganini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda o'zbek davlati tomonidan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar bu kurash strategiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini qurish, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, ta'lim, xususan, o'rta maxsus ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, sport va boshqa sohalardagi keng ko'lamlı ijobiy o'zgarishlar bu strategiyaning tarkibiy qismi, Markaziy Osiyo mintaqasidagi ahvolni belgilab beradigan, mamlakatdagi barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladigan chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi. Kuchli iqtisodiyotga ega O'zbekistonning barqarorligi butun mintaqaning barqarorligini bildiradi.

Bu, sog'lom muvozanatga asoslangan, serqirra va har xil darajali strategiyada ma'naviyat va mafkuraviy tarbiya alohida o'rin tutadi.

Mutaxassislar ekstremizmning paydo bo'lishi va rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar ichida mafkuraviy bo'shliqning ta'siri va qadriyatlar mo'ljallaridagi beqarorlikda namoyon bo'lgan nomutanosiblikni alohida ajratib ko'rsatadilar. Mafkuraviy bo'shliq ko'pincha kishilarda jamiyatdagi mavjud holatni, ijtimoiy muhitni noto'g'ri idrok etishga, uning irodasini boshqa kishiga bo'ysundirish va dunyoqarashida agressivlikni shakllantirishga xizmat

qiladigan nosogʻlom gʻoyalar bilan toʻldirilishiga zamin yaratadi. «Zombilashtirish» deb ataladigan bu texnologiya yaxshi shakllanmagan maʼnaviyat, boʻsh iroda va nosogʻlom intilishlar muhitidagina taʼsir kuchiga ega boʻladi.

Shuning uchun ham, Oʻzbekiston ekstremizmga qarshi kurashda, uning paydo boʻlishi va rivojlanishini bartaraf etish ishlarida gʻoyaviy tarbiya, xususan, mamlakat yoshlarida yuksak maʼnaviyatni shakllantirish masalalariga alohida eʼtibor bermoqda. Zero, bunday yondashuvda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga, milliy oʻzlikni tiklash va mustaqillikni mazmunan boyitishga asoslangan milliy gʻoya, maʼnaviyat va maʼrifat, toʻgʻri shakllantirilgan ong ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini taʼminlashning eng muhim tizimi sifatida yuzaga chiqadi.

**Islom niqobi ostidagi ekstremizmning gʻoyaviy ildizlari.** Diniy mutaassiblikning tarixiy ildizlari va hozirgi kunda dunyoda, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida ekstremistik guruhlarining paydo boʻlishi va faollashuvi sabablari, usullari qayerdan kelganini oʻrganish ularga qarshi kurashda eng muhim vosita hisoblanadi.

Islom niqobi ostida paydo boʻlgan ekstremistik harakatlar tarixiga eʼtibor beradigan boʻlsak, ularning ildizlari uzoq oʻtmishga, hatto islom tarixining birinchi asriga borib taqalishini koʻrish mumkin. Uning ilk vakillari sifatida 657-yili xalifa Ali (r.a.) askaridan ajralib chiqqan, haqiqiy musulmon saflariga qoʻshilmaganlarni «dindan qaytgan» deb eʼlon qilib, ularga qarshi murossasiz kurash olib borgan «xorijiyalar» (arab: ajralib chiqqanlar, isyonchilar) diniy-siyosiy oqimi faoliyati fikrimizning isboti boʻla oladi.

**Xorijiylik yoʻnalishi va taʼlimoti.** Xalifa Usmon ibn Affon (r.a.) (644–656) davriga kelib islom jamoasi ichida fitnalar paydo boʻldi. Usmon (r.a.)ga uyushtirilgan suiqasd (656-y.) ham ana shu siyosiy kurashlarning natijasi edi. Xalifa oʻldirilgach, uning oʻrniga Ali ibn Abu Tolib (r.a.) (656–661) saylandi.

657-yil (37-hijriy)da Shomning (Suriya) shimoli-sharqida joylashgan Siffin mavzesida xalifa Ali (r.a.) qo'shini bilan u yerning hokimi Muoviya (r.a.) qo'shini o'rtasida «Jamal voqeasi»dan bir oy o'tib, to'qnashuv sodir bo'lgan. Ushbu to'qnashuvga 656-yil uchinchi xalifa Usmonning (r.a.) o'ldirilishi munosabati bilan Ali (r.a.) va Muoviya (r.a.) tarafdorlari o'rtasidagi keskin qarama-qarshiliklar sabab bo'ldi. Marhum xalifaning yaqin qarindoshi bo'lgan Muoviya (r.a.) xalifalik taxtini egallagan Ali (r.a.) dan aybdor jinoyatchilarni jazolashni talab qilib, shundan so'ngina Ali (r.a.)ga bay'at qilishni ma'lum qildi. Jang to'qqiz kun davom etdi. Ali (r.a.)ning qo'li baland kelib turganda, Muoviya (r.a.) tarafdorlari xiyla ishlatdilar. Ular Amr ibn Oss (r.a.) ko'rsatmasi bilan katta nayzalar uchiga yangi ko'chirilgan Mushaf varaqlarini olib, Qur'on bilan hukm chiqarishni talab qildilar. Muoviya (r.a.)ning janjalni sulh orqali hal qilish haqidagi taklifini Ali (r.a.) qabul qilgach, jang to'xtatildi. Ali va Muoviya (r.a.)lar o'rtasida hijriy 37-yil safar oyining 15-kuni (mil. 657-yil 8-sentyabr)da sulh tuzildi. Mazkur «Siffin» jangi musulmonlar uchun juda katta yo'qotish bo'ldi. Unda hammasi bo'lib to'qson ming musulmon halok bo'ldi. Aynan «Jamal» va «Siffin» janglari musulmonlar o'rtasida dastlabki bo'linishlar va turli firqalar kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Ahli sunna va-l-jamoa e'tiqodiga ko'ra, sahobiylar orasida yuz bergan bu vaziyatlarda ular ayblanmay, ularning bari haqni izlagan mujtahidlar hisoblanadilar. Umumiy qoidaga asoslanib, ulardan qaysi birlari to'g'ri ijtihod qilgan bo'lsalar ikki ajr, xato ijtihod qilgan tarafga esa bir ajr beriladi.

**Xorijiylikning kelib chiqishi.** Xalifa Ali (r.a.) bilan Muoviya o'rtasidagi tuzilgan bitimdan Kufa yaqinida turgan 12 ming kishidan iborat qo'shinning bir qismi norozi bo'ldi. Ular «hukm chiqarish faqat Allohning qo'lidadir», degan shior bilan qo'shinni tark etib, Kufa yaqinidagi Harura qishlog'iga ketdilar. Bu firqaning Kufadagi «xuruj» (bo'ysunmaslik) voqeasi ularning «xavorij» (qarshi chiquvchilar) nomini olishlariga sabab bo'ldi. Bu voqea Harura

qishlog'ida yuz berganligi bois avvaliga ularni «haruriylar» deb ham ataganlar. Ular o'zlarini «shurot» (jonlarini Alloh yo'lida tikkan kishilar) deb nomlaganlar. Yana ularning «Muhakkima» («hukm Allohning qo'lida» deguvchilar) degan nomlari ham bo'lgan.

Xavorijlar o'zlariga Abdulloh ibn Vahb ar-Rosibiyni amir etib saylab, Ali (r.a.) va Muoviyaning yo'q qilish payiga tushdilar. Xalifa Ali (r.a.)ni 660-yilda xorijiy Abdurrahmon ibn Muljam o'ldirgach, xavorijlar ikki firqaga bo'linib, biri Iroqda qoldi, ikkinchisi Arabiston yarim oroliga ketdi. Umaviylar davrida xavorijlarga qarshi keskin kurash olib borildi. Chunki ular Umaviylar davlatiga katta xavf solardilar. Bu davrda xavorijlar kuchayib, Kirmon, Fors, Yamoma, Hadramavt, Toif va Yaman kabi shahar hamda o'lkalarni egalladilar.

Hokimiyat Umaviylardan Abbosiylar sulolasi (749–1258) qo'liga o'tganidan keyin ham bu toifa bir muddat o'z kuchini yo'qotmadi. Biroq Abbosiylar uzoq vaqt ularga qarshi uzluksiz olib borgan kurashlaridan so'nggina xavorijlar inqirozga yuz tutdi.

Xavorijlar ta'limotlari asosi quyidagilardan iborat:

– ular gunohkorni «kofir» deb e'lon qildilar. Shunga ko'ra xalifa Usmon (r.a.)ni Abu Bakr (r.a.) va Umar (r.a.) yo'lidan yurmagani uchun kofir deyishadi. Ali (r.a.), Muoviya, Abu Muso al-Ashhary, Amr ibn al-Oslar muxolif guruhlarda qatnashganlari uchun ular nazdida kofirlar;

– «zolim» podshohga qo'lda qilich bilan qarshi chiqishni diniy vazifa (vojib) deb biladilar. O'z e'tiqodini yashirish tamoyili (taqiya) rad etadilar. O'zlari harbiy jihatdan zaif bo'lsalar ham, qudratli «zolim» podshohga qarshi chiqish vojib bo'laveradi, deb hisobladilar;

– xalifalikka har qanday odam, Quraysh qabilasidan yoki arab bo'lishligidan qat'i nazar, musulmonlar tomonidan saylanishi mumkin. Xalifalik, shialar aytganidek, ma'lum jamoat (sulola) ichida cheklanmagan;

– namoz, ro'za, zakot va boshqa amallarni imonning bir bo'lagi, deb hisoblaydilar. Kishi to barcha amallarni bajarma-

guncha, dili bilan tasdiqlab, tili bilan aytishi musulmon deb tan olinishi uchun kifoya emas.

Demak, islomda dastlab paydo bo'lgan firqa «xorijiyalar»dir. Boshqa dinlarda bo'lgani kabi musulmonlar ichida ham firqalar bo'lgan. Muhammad payg'ambar (a.s.) aytganlaridek, islom dinida 73 ta firqaga bo'linish yuz beradi. Ularning bittasigina to'g'ri yo'lda qolganlari esa, zalolatda hisoblanadi. Qur'on oyatlari va hadislarda ham firqalarga bo'linmaslikka buyuriladi. «Xorijiyalar» o'z talqinlaridagi «sof» islom qoidalariga qat'iy rioya qilish tarafdori edi. Aynan xorijiyalar o'z qarashlari va faoliyatiga qo'shilma-ganlarni imonsizga chiqarish, ularga qarshi «jihod» olib borish haqidagi g'oyalarni ishlab chiqib, terror uslubini qo'llash orqali hukmdorlarni jismonan yo'q qilish amaliyotini boshlab bergan edi. Bunday g'oyalar kelib chiqishiga ko'ra hokimiyat uchun kurashning zo'ravonlikka asoslangan usullaridan bo'lib, minglab kishilarning halok bo'lishiga olib kelgan.

Azraqiyalar (Azoriqa) guruhining asoschisi Nofih ibn al-Azraqdir (vaf. 685-y.). Xavorij guruhlarida orasida eng murosasiz va beshafqat sanalgan bu jamoa hozirgi kungacha yetib kelmagan.

Azoriqa ta'limotiga xos bo'lgan jihatlar quyidagilar:

- xalifa Alini «*kofir*» deb hisoblaganlar;
- gunohi *kabira* qilgan musulmonlarni *kofir* deb e'lon qilganlar;
- azoriqalardan bo'lmagan musulmonlar, ularning qarivalari, ayol va bolalari qonini to'kishni (*istiroda*) halol deb hisoblaganlar;
- *hayz* ko'rgan ayollarga ham namoz o'qish va ro'za tutishni farz deb hisoblaganlar;
- mayda o'g'rilik uchun ham qo'lni butunlay yelkadan kesib tashlashni buyurganlar.

IX asr oxirida Iroqda yuzaga kelgan qarmatiylar ekstremistik harakati ham islom arkonlarini tan olmagan holda, haj amali-ni ham bid'at, butparastlik deb e'lon qilgan edi. Harakat o'z nomini uning asoschisi Hamdon ibn al-Ashhasning laqabi «qar-

mat» soʻzidan olgan boʻlib, uning maʼnosi manbalarda turlicha «kalta oyoq» yoki «qizil koʻz» kabi maʼnolarda ifodalangan. Qar-matiylar islom tarixida oʻchmas dogʻ qoldirgan jinoyatlarni so-dir etgan. Ular haj mavsumlarida karvonlarga hujum uyushtirib, bosqinchilik bilan shugʻullangan. Xususan, 930-yilda ular Mak-kaga bostirib kirib, shaharni talon-taroj qilganlar, bir necha ming hojilarni va Makka aholisini qatl etib, asirga olganlar. Kaʼbani vayron qilib, qora toshni ikkiga boʻlib, Bahraynga olib ketgan-lar, faqat 20 yildan keyin katta toʻlov evaziga u Makkaga qayta-rib berilgan.

XI asr oxirida Eronda yuzaga kelib, maxfiy ravishda ish koʻrgan «hashshoshiylar» (arab: hashish (nasha) chekuvchilar, gi-yohvandlar) terrorchilik oqimi esa hokimiyatni egallash maqsadi-da ularga xayrixoh boʻlmagan hukmdorlarga suiqasd uyushtirish amaliyotini oldinga surgan edi. Uzoq vaqt hashshoshiylar koʻplab hukmdorlarga tahdid solib turgan, hattoki, ayrim Yevropa mam-lakatlari rahbarlari oʻz xavfsizliklarini taʼminlash uchun ularga toʻlov toʻlashga majbur boʻlgan. Ingliz tilidagi suiqasd maʼnosi-ni anglatuvchi «assassinate» soʻzi ham aynan «hashshoshiy» ata-masidan kelib chiqqani oqimning oʻz davrida davlatlar xavfsizli-giga katta tahdid tugʻdirganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, «hashshoshiylar» zamonaviy terrorchilar tomonidan ham keng qoʻllanilayotgan, oddiy kishilar va yoshlarga giyohvand modda-larni isteʼmol qildirib, oʻlsa shubhasiz jannatga tushishiga ishon-tirgan.

Diniy mutaassiblikka asoslangan ixtiloflar oqibatida chek-siz nizolar, kelishmovchiliklar, hatto qonli urushlar kelib chi-qib, katta talafotlarga va jamiyatning inqiroz tomon yuz tutishiga sabab boʻlgan. Buzgʻunchilik va zoʻravonlikka asos-langani, eʼtiqodiy birlikka tahdid solgan bunday oqimlar faoliya-ti oʻz davri ulamolari tomonidan qattiq qoralanib, sultonlar to-monidan taʼqib qilinganini alohida taʼkidlash lozim. Masalan, Umaviy va Abbosiy xalifalar xorijiyarlarni butunlay qirib tashlash siyosatini olib borgan edilar. Islomning mohiyatiga butunlay zid

boʻlgan bunday oqimlarning barchasi oxir oqibatda tanazzulga duchor boʻlgan.

Shunday boʻlsa-da, yuqorida qayd etilgan oqimlarning gʻoyalari va amaliyot shakllari keyingi davrlarda ham rivoj topganini aytish joiz. Xususan, VII asrning ikkinchi yarmida paydo boʻlib, to XVIII asrning oxiriga qadar islom olamida davom etib kelgan diniy-ekstremistik harakatlar inqirozga uchragan boʻlsa ham, oradan oz muddat oʻtib, ular tomonidan talqin qilingan gʻoyalar zamonaviy koʻrinishdagi turli mutaassib guruhlar yetakchilari mafkurasiga asos boʻlib xizmat qildi va bu bilan diniy-ekstremistik harakatlar rivojining yangi davri boshlandi deyish mumkin.

Shunday boʻlsa-da, islomning asl mohiyatiga butunlay zid boʻlgan yuqoridagi gʻoyalar va amaliyot shakllari keyingi davrlarda ham rivoj topdi. Islomda «inqilobiy kurash» taʼlimotini yaratgan suriyalik Ahmad ibn Taymiya (1263–1328)ning fikrlari keyinchalik «soxta salafiylik» kabi turli radikal harakatlarning yuzaga kelishiga xizmat qildi.

Aslida islomda «salaf» (arab: «ajdodlar», «avval yashab oʻtganlar») deganda, hadislarga koʻra, Muhammad paygʻambar (a.s.) zamonlari va undan keyingi ikki davrda yashagan musulmonlar tushuniladi. Islom mujtahid ulamolari ilk musulmonlarni «salafi solih», yaʼni «solih ajdodlar» deb yakdil hisoblashadi. Ulardan keyingi davrlarda yashagan musulmonlarga nisbatan «salaf» yoki «salafiy»lar tushunchalari aslo ishlatilmaydi.

*Ibn Taymiya hozirgi Turkiya-Siriya chegaralaridan bir necha mil shimolroqdagi qadimiy shahar Harranda tavallud topgan. U Arab ekspansiyasining boshida bosib olingan edi va 600 yildan soʻng moʻgʻillar qayta bu shaharni zabt etishganida ibn Taymiyaning otasi oilasi bilan birga Damashqqa qochib ketishga majbur boʻladi.*

*Ibn Taymiya uchun moʻgʻillar istilosi shaxsiy muammolar va tazyiqlardanda koʻra ahamiyatliroq edi. Bosqinchilar ularga no-*

to'g'ri yo'lga kirib adashishganlari sabab, Alloh tomonidan yuborilgan jazo va mo'g'illarning haqiqiy musulmon emasligiga ishorat ham edi. Mo'g'illarning muvaffaqiyati shariat emas, balki Chingizxon tomonidan joriy qilingan Yasoq qonunlariga sadoqat bilan qat'iy rioya qilishlarida deb topildi. Chunki bunga mos o'laroq, qilinishi kerak bo'lgan birinchi narsa bu mo'g'illarning qabul qilgan soxta va ahamiyatsiz islomi shunchaki aldov va niqob ekanligini fahmlab yetish edi. Bunday noto'g'ri talqin bilan ular payg'ambar zamonidan oldingi Makka dinsizlaridan deyarli farqlab bo'lmaydigan murtad yoki xudosiz edilar. Bu davr johiliyat, nodonlik shu bilan birga madaniyatsizlik va zulmkorlik davri edi. Shuni qayd etish lozimki, islom solnomalariga «johiliyat» iborasi XX asrda yana bir marta kiritilgan.

Ibn Taymiyaning: «Agar musulmonlar o'z diniy amallarini bajarishga qodir bo'lmasalar, buning zamirida payg'ambar ko'rsatmalariga amal qilmaslik yotadi. Faqat salafi solihlardan o'rnak olinsagina, ular kabi muvaffaqiyatga erishish mumkin» — degan g'oyasi boshlab bergan masala hamon dolzarb bo'lib kelmoqda. Bu g'oyani amalga oshirish bir tomondan, Qur'oni Karimni yangicha sharhlash hamda o'sha davr mujtahid ulamolar kengashi bilan munozara qilishni, ikkinchi tomondan esa, qurbi va toqati yetganicha shar'iy amallarni bajarishni, shuningdek, yaxshilikka da'vat etib yomonlikdan qaytarish bilan jihad qilishni taqozo etadi.

XX asr o'rtalariga kelib salafiylar tashabbusi bilan quyidagi aqidaviy masalalar to'plami e'lon qilindi:

Birinchiidan, salafi solihlar kabi kamtarona hayot kechirmaslik hamda G'arb mamlakatlariga tobelik musulmon dunyosining tanazzuliga sabab bo'ladi. Islomning ilk davridagi urf-odat va an'analarni hayotga tatbiq etish orqali bunday noxushliklarni bartaraf qilish mumkin.

Ikkinchiidan, G'arb madaniyatiga taqlid qilmagan holda, ular yaratgan ilm-fan va texnika yutuqlaridan foydalanishni o'zlashtirish lozim.



*Va nihoyat, islomni asl holiga qaytarish, butun dunyoni Alloh uchun fath qilish va Iblisga qarshi kurashish uchun jihad qilishdir<sup>1</sup>.*

XX asrning ikkinchi yarmida o'z oldiga xalifalikka asoslangan islom davlatini barpo etish vazifasini qo'ygan «islohotchilik», «panislomizm» niqobi ostida soxta salafiylik yangidan jonlandi. Bu o'z navbatida siyosiy islohotlarni amalga oshirish zarurligini bayroq qilib ko'targan o'ta radikal diniy-siyosiy tashkilot va oqimlarning vujudga kelishiga yo'l ochib berdi. Soxta salafiyalar quyidagi g'oyalarni ilgari suradilar:

– Qur'on va sunnada yozilgan qoidalarni harfiy tushunib, ko'r-ko'rona amal qilish orqali boshqa manbalarni botilga chiqaradi;

– «jihad»ni islomning oltinchi arkoni deb hisoblaydi;

– «takfir» (kufirda ayblash) va «hijrat» (vatanni tark etish, ko'chish) masalasini ilgari suradi;

– fiqhiy mazhablarni inkor etib, mazhabsizlikni targ'ib qiladi;

– tasavvuf, urf-odat va milliy qadriyatlarni inkor etadi;

– boshqa din vakillariga o'ta toqatsiz munosabatda bo'lib, diniy bag'rikenglikni yoqlamaydi; .

– har qanday yangilikni bid'at deb hisoblaydi va uni rad etadi.

Hozirda soxta salafiylik g'oyalari ostida asosan Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq, Kavkaz va Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida faoliyat olib boradigan harakatlar jamiyatdagi e'tiqodiy birlik, barqarorlik va taraqqiyot uchun real tahdidga aylangan.

Bugungi kunga kelib, o'zini «salafiyalar» deb atayotgan diniy-siyosiy guruhlar «Islom jamiyatini qurish davlatchilikning asosi bo'lishi kerak», degan shior ostida odamlarning ongi va turmush tarzidan milliy qadriyat, urf-odatlarni siqib chiqarish, shariat ahkomlariga ko'r-ko'rona rioya qilishga majburlash, amal qilma-ganlarga nisbatan qattiq jazo qo'llash kabi xatarli maqsadlarni ko'zlab harakat qilmoqda. Ayniqsa, soxta salafiyalar tomonidan

---

<sup>1</sup> Cooper B. *New Political Religions, or An Analysis of Modern Terrorism*. University of Missouri Press. Columbia and London. 2004. – P. 90–110.

targʻib qilinayotgan mazhabsizlik gʻoyasi, asrlar davomida shakllangan diniy anʻanalarni izdan chiqarib, bir yurt musulmonlari oʻrtasida parokandalikni yuzaga keltirmoqda.

Demak, mutaassiblik koʻrinishlaridan boʻlgan soxta salafiylik milliy maʼnaviyatimiz, mustaqilligimizga real tahdid sifatida namoyon boʻlmoqda. Shunday ekan, yurtimiz tinchligi, osoyishtaligi, ravnaqi va farovonligi doimo ogohlik hamda qatʻiy harakatlarni talab etadi. Bu yoʻlda har bir inson oʻz ishini sidqidildan amalga oshirishi, loqaydlik, beparvolikning oldini olishi, yon-atrofida boʻlayotgan voqea-hodisalarga hushyorlik bilan qarab, Vatan tinchligi yoʻlida sergak va ogoh boʻlib yashashi yoshlarimizning ongu qalbini jaholatdan, yot va zararli gʻoyalar taʼsiridan himoya qilishi, ajdodlarimizga armon boʻlib qolgan, biz erishgan mustaqillik va tinchlik-osoyishtalikni koʻz qorachigʻidek asrab-avaylashi muhim omil hisoblanadi. Buni hech qachon unutmasligimiz, tinchlik uchun doimo oʻzimizning bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etib yashashimiz lozim.

### **Nazorat savollari:**

1. Ekstremizm, aqidaparastlik, mutaassiblik va terrorizm tushunchalarining mazmuni nima?

2. Ekstremistik gʻoya va qarashlar paydo boʻlishining sababi nimada?

3. Diniy mutaassiblikning ilk paydo boʻlishi qaysi davrga borib taqaladi?

4. Xorijiylikning kelib chiqishi haqida maʼlumot bering.

5. Xorijiylik yoʻnalishi va taʼlimoti haqida gapirib bering.

6. Hashshoshiylar va qaramatiylar haqida nimalarni bilasiz, maʼlumot bering.

7. Soxta salafiylikning buzgʻunchi mohiyati nimalarda namoyon boʻladi?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yoʻllari. A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuxamedov, U.Gʻafurov, J.Karimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.
2. Diniy bagʻrikenglik va mutaassiblik (yuz savolga-yuz javob). Masʼul muharrir O.Yusupov. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 156 b.
3. Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyushmalar (Maʼlumotlar toʻplami) / K.Shermuxamedov, J.Karimov. – Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2014. – 160 b.
4. Oʻzbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yoʻnalishlari. Hasanboyev Oʻ. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552 b.

## 2-mavzu. DAVLAT VA DIN. O‘ZBEKISTONDA DAVLATNING DIN VA DINIY TASHKILOTLAR BILAN MUNOSABATI

1. Davlat va din munosabatlarining huquqiy asoslari va xususiyatlari.

2. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari.

3. Vijdon erkinligining huquqiy asoslari.

*Tayanch so‘z va iboralar:* davlat va din, diniy tashkilotlar, konfessiya, vijdon, e‘tiqod erkinligi, vijdon erkinligining ta‘minlanishi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonun, missionerlik, prozelitizm, sekta, iyegovo shohidlari, yettinchi kun adventistlari, missiya, Bibliya jamiyati.

**Davlat va din munosabatlarining huquqiy asoslari va xususiyatlari.** Davlat va din munosabatlarining ildizlari juda qadim davrlarga borib taqaladi. Ayni paytda, ushbu munosabatlar turli tarixiy davrlarda turlicha mazmun kasb etgan. O‘rta asrlardagi kabi din jamiyatning barcha sohalarida, shu jumladan, davlat hayotida to‘la hukmronlik qilgan davrlar ham bo‘lgan. Muayyan davlatlarda dinni butunlay inkor etilgan, ya‘ni ateizm ustunlik kasb etgan. Har bir davlat o‘zining dinga bo‘lgan munosabatini muayyan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar va qonunlar orqali tartibga solib kelgan. Din va e‘tiqod erkinligi, boshqacha aytganda, insonning diniy huquqlari shaxsning asosiy va tabiiy huquqlaridan biridir.

Hozirgi davrda jahondagi davlatlarning yarmidan ko‘pi dinning davlatdan ajratilganini yoki davlatning cherkovga nisbatan betarafligini ifodalaydigan, Konstitutsiya yoki qonun darajasida belgilab qo‘yilgan qoidalarga ega. Yuridik tan olingani yoki olinmaganidan qat‘i nazar, barcha davlatlar din va e‘tiqod erkinligiga hurmat bilan qarashlarini e‘lon qilganliklarini ta‘kidlash zarur.

Din va jamiyat hayotidagi aloqadorlikda din va davlat munosabatini belgilab beruvchi tamoyil — din sohasida kechayotgan

o'zgarishlarni xolis va ilmiy o'rganish, bashorat qilish va undan kelib chiqib, ijtimoiy jarayonlar rivojiga yanada kengroq imkoniyat yaratish, salbiy holatlarning oldini olishda namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, dunyoviylik va diniylik o'rtasidagi nisbat masalasi insoniyat tarixining barcha davrlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Boshqacha aytganda, inson hayoti mazmunini tashkil qiluvchi ushbu ikki tarkibiy qism o'rtasida murosaga erishish har qanday jamiyatning mavjud holati va istiqbolini belgilovchi bosh mezon bo'lib kelgan. Ba'zan ushbu ikki omil o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib, mamlakatlarni to's-to'polonlar va jaholat girdobiga tortgan. O'rta asrlar Yevropasida amal qilgan, vahshiyona jazolar va qiynoqlarning timsoliga aylangan inkvizitsiya davri bunga misol bo'la oladi.

O'quvchi-talabalarda dinga nisbatan sog'lom munosabatni shakllantirish bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari oldida turgan eng murakkab va muhim vazifalardan biridir. Uning muvaffaqiyatli hal etilishi ikki muhim omilga bog'liq. Ularning har ikkalasi ham Birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «...har bir vatandoshimiz, ayniqsa, yoshlar faqat islom dini to'g'risida emas, umuman dunyodagi mavjud dinlar, ularning tarixi, mohiyati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lsin. Ijtimoiy sohaga oid darslarda yoshlarga din bilan dunyoviy hayot masalalarini, bu ikki tushunchaning bir-biriga ta'sirini, ular o'rtasidagi mo'tadil munosabat bo'lishi zarurligini ochib berish kerak». Demak, dinlar haqidagi mantiqiy asoslangan bilimlarni shakllantirish va dunyoviylik tushunchasini chuqurlashtirib borish yoshlarda dinga nisbatan sog'lom munosabatni shakllantirishning ikki qutbi hisoblanadi.

Din bilan siyosatni o'zaro nisbatini tavsiflash uchun ilmiy adabiyotlarda «sekulyarizm» atamasi qo'llaniladi. Bu atamaga Vebster izohli lug'atida quyidagicha ta'rif beriladi: «sekulyarizm – din yoki diniy aqidalarga nisbatan mo'tadil pozitsiyada bo'lish». Oksford qisqa lug'atida sekulyarizmni «Xudoga ishonch, e'tiqoddan xoli bo'lgan hayotda inson farovonligi haqida qayg'uradigan ma'naviyatga asoslangan doktrina» deb ta'riflaydi.

Shunday qilib, bugungi kunda keng tarqalgan talqinga ko‘ra, sekulyarizm – barcha dinlar hamda turli qarashlarni teng hurmat qilish, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligidir. Ayni vaqtda, «sekulyarizm» atamasi bir ma’noli tushuncha bo‘lmay, vaqt, mintaqa va mamlakatga qarab tinimsiz rivojlanib boradi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy tamoyillaridan biri dunyoviylik ekan, uni qanday tushunish lozim, degan savol tug‘iladi. Ingliz tilidagi «secularity» hamda rus tilidagi «секуляризация» va «цветкость» tushunchalari bilan tutash ushbu istilohning qanday talqin etilishining o‘ziyiq har qanday mamlakatdagi davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarning mazmun-mohiyatini belgilab beradi. Demak, tom ma’nodagi sog‘lom dunyoviylik dinning ijtimoiy mavqeyini inkor etmaydi, balki jamiyat hayotini tashkil etishning dunyoviy ma’rifatga asoslangan tarzini anglatadi. Boshqacha aytganda, dunyoviylik ijtimoiy hayot sohalari diniy aqidaning yakkahokimligidan va uning hal qiluvchi ta’siridan xoli bo‘lishni taqozo etadi.

*«...dunyoviylik – bu dahriylik degani emas. Din va diniy e’tiqod butunlay rad etiladigan hayot qanday g‘ayriinsoniy ko‘rinishga ega ekanini biz kechagi tariximiz misolida yaxshi bilamiz. Bunday mafkuraning xatarli tomoni shundaki, u necha asrlar davomida din negizida shakllangan, xalq hayotining ajralmas qismiga aylanib ketgan qadriyatlar – bu yozma yoki og‘zaki, moddiy yoki ma’naviy meros bo‘ladimi, axloq yoki an’analar bo‘ladimi, milliy dunyoqarash yoki turmush tarzi bo‘ladimi – bularning barchasini rad etadi. Oxir oqibatda bunday odam ota-onasini ham, o‘z millati, xalqi va Vatanini ham tanimaydigan ayanchli holatga tushib qoladi».*

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, dunyoviy davlatda din davlatdan ajratilsa-da, jamiyatdan ajratilmaydi. U muhim sotsial institut sifatida ijtimoiy hayotda o‘zining alohida o‘rniga ega. Davlatdan ajratilgan bo‘lsa-da, din ijtimoiy muammolarni bartaraf qilishda dunyoviylik bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

Dunyoviylik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ehtiyojlari hamisha hamohanglik kasb etib kelgan. Ya'ni dunyoviylik qotib qolgan dogma emas, aksincha, u muntazam ravishda takomillashib boruvchi hodisadir. Zamonaviy ilmiy tilda aytganda, dunyoviylik modernizatsiya deb nomlanuvchi jarayonning harakatlantiruvchi kuchi. U jamiyat ilmiy salohiyatining uzluksiz oshib borishi, texnologik taraqqiyotning davomiyligi, iqtisodiy hayotning ratsionallashuvi, madaniyatning yuksalib borishi kabi muhim jarayonlar bilan uyg'un ravishda takomillashib boradi.

Shu o'rinda qayd etish joizki, har bir davlat o'zining dinga bo'lgan munosabatini muayyan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va qonunlar orqali tartibga solib kelgan.

*«Mamlakatimizni demokratik tamoyillar, ilm-fan yutuqlari, yuksak texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish bilan birga, muqaddas dinimizni, milliy o'zligimizni asrab-avaylab yashashni maqsad qilib qo'yganmiz».*

*Islom Karimov*

Bugungi kunda diniy-huquqiy ta'limotlarning davlat va huquq rivojlanishiga, vijdon va e'tiqod erkinligi amalga oshirilishiga ta'siri quyidagi xalqaro-huquqiy shakllarda namoyon bo'ladi:

– fikrlash, vijdon, din va e'tiqod erkinligining hamda din va e'tiqod asosida toqatsizlik va kamsitilishlarga yo'l qo'ymaslikning konstitutsiyaviy va huquqiy kafolatlari. Davlatlar tomonidan qabul qilingan konstitutsiyalar va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan asosiy qoidalar inson huquqlarini ta'minlashda favqulodda muhim ahamiyatga ega. Zero, aynan ular davlat organlari aralashuvidan xoli bo'lgan shaxs va jamoa erkinligi, jumladan, fikrlash, vijdon, din va e'tiqod erkinligi kabi asosiy tamoyillarga taalluqli sohani yaratadi;

– milliy konstitutsiyalar va qonunchilik doirasida fikrlash, vijdon, din va e'tiqod erkinligining huquqiy kafolatlari;

– din va e'tiqod asosida toqatsizlik va kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan va bunday harakatlar sodir etilganda tegishli javobgarlikni nazarda tutadigan jinoyat qonunchiligi;

– shaxsning o‘z xohishiga ko‘ra dinga yoki e‘tiqodga ega bo‘lish erkinligini kamsituvchi, majburlashni taqiqlovchi konstitutsiyaviy va huquqiy qoidalar;

– din yoki e‘tiqod bilan bog‘liq marosimlarni bajarish yoki shu sabab bilan to‘planish, shu maqsad uchun joylar tashkil etish, ularni saqlash;

– tegishli xayriya va insonparvarlik tashkilotlarini tuzish hamda ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

– diniy marosimlar yoki urf-odatlar yoxud e‘tiqod bilan bog‘liq axborot materiallarini yaratish, chop etish va tarqatish;

– din yoki e‘tiqod bilan bog‘liq ta‘limni bunday maqsad uchun mos bo‘lgan joylarda olib borish;

– alohida shaxslar va tashkilotlardan ko‘ngilli moliyaviy yordam hamda boshqa ehsonlarni so‘rash va qabul qilish;

– u yoki bu din yoki e‘tiqod ehtiyojlari va me‘yorlariga mos ravishda tegishli diniy xodimlarni tayyorlash, tayinlash, saylash yoki vorislik asosida tayinlash;

– din yoki e‘tiqod qoidalariga muvofiq ravishda dam olish kunlariga rioya etish, bayramlarni nishonlash, marosimlarni bajarish;

– milliy va xalqaro darajada din va e‘tiqod sohasida alohida shaxslar va jamoalar bilan aloqalar o‘rnatish;

– din va e‘tiqod subyektlariga taalluqli huquq va erkinliklar bilan bog‘liq konstitutsiyaviy va huquqiy qoidalar. Hozirgi davrda davlat va din o‘rtasidagi munosabatlar bir qator xususiyatlari bilan ajralib turishini ta‘kidlash zarur. Eng avvalo, «sovuq urush» davri tugagandan keyin siyosiy mafkuraga muvofiq o‘tkazib kelingan dinga qarshi siyosat hamda diniy faoliyat ustidan nazorat qilish siyosati asta-sekin susayayotganini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, avtoritar tuzumlar tomonidan ijtimoiy munosabatlarga zid, deb hisoblangan holda o‘z diniy e‘tiqodiga ega jamoalarga nisbatan toqatsizlik va kamsitish siyosatining saqlab qolinayotganini ham yoddan chiqarib bo‘lmaydi.

Ayni paytda, bunday siyosat mohiyatan siyosiy xususiyatga ega nizolar doirasida ba‘zi etnik diniy jamoalarga nisbatan ham



amalga oshirilmoqda. Kam sonli diniy jamoalarga nisbatan yoki aholining ko'pchiligini tashkil qiluvchi muayyan dinga e'tiqod qo'yanlarga nisbatan davlat doirasidagi siyosat, qonunchilik va amaliyotni saqlab turishni ham hozirgi davrda davlat va din munosabatlariga xos xususiyatlar qatorida sanash mumkin.

Hozirgi davr diniy sektalarning ko'pligi, yangilarining paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Mazkur jarayon sektalar yoki yangi diniy oqimlarga nisbatan toqatsizlik va kamsitish sohasidagi siyosatning hamda qonunchilik amaliyotining kuchaytirilishi kabi holatlarning kuzatilishida o'z ifodasini topmoqda.

E'tiqodi nuqtayi nazaridan harbiy xizmatni o'tashdan bo'yin tovlayotganlarga qarshi yo'naltirilgan siyosat, qonunchilik va amaliyotni saqlab turishni ham yuqorida qayd etilgan xususiyatlar qatorida sanash mumkin.

Umuman olganda, kam bo'lsa-da, uchraydigan yuqoridagi kabi holatlar shaxsiy maqom to'g'risidagi qonunlar, qoidalar mavjudligi, ularning talqin etilishi, an'analar, ijtimoiy omillar hamda ekstremizm deb ataluvchi hodisalar bilan izohlanadi. Bu davlatlar va huquqiy munosabatlarning nodavlat subyektlariga bir xilda xosdir.

**O'zbekistonda davlat va din munosabatlari.** O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk yillaridan diniy sohaga o'zbek xalqining milliy ma'naviyatining ajralmas qismi sifatida alohida e'tibor qaratildi. 1992-yil 2-iyul kuni Oliy Kengashning X sessiyasida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov quyidagi muhim fikrlarni bayon etgan: «Din odamzodni hech qachon yomon yo'lga boshlamaydi. Din bu dunyoning o'tkinchi ekanini, oxiratni eslatib turadi, odam bolasini hushyor bo'lishga, harom yo'llardan uzoq yurishga, yaxshi bo'lishga, yaxshi iz qoldirishga undab turadi. Biz dinga bundan keyin ham barcha shart-sharoitlarni yaratib beramiz. Diniy rasm-rusumlarga, bayramlarga, diniy tarbiya va ta'limga yurtimizda doimo jiddiy e'tibor beriladi». Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda davlat va din munosabatlari quyidagi tamoyillar asosida olib borilmoqda:

- dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish;
- diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik;
- ma’naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash zarurati;
- dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘ymaslikni e’tirof etish.

Mustaqillik yillari dinning huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatida tutadigan o‘rni va mavqeyi aniq belgilanib, bu sohada mustahkam qonunchilik poydevori yaratildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar», degan demokratik tamoyil mustahkamlab qo‘yilgan. Fuqarolar millati, irqi va dinidan qat’i nazar, teng huquqli ekanligi belgilanib, ularning vijdon erkinligi, urf-odatlarini, milliy an’analari hurmat qilinishi kafolatlangan.

*«Agar biz adolatli davlat, erkin jamiyat qurmoqchi bo‘lsak, bu oliyjanob maqsadni amalga oshirish yo‘llari ming yillik diniy aqidalar bilan mushtarak ekanligini yodda tutishimiz lozim. Bu muqaddas maqsad yo‘lida, kerak bo‘lsa, jon fido qilish zarur deganimizda, aynan adolatli davlat va dinning ildizlari mushtarak ekanligini unutmaylik. Ana shunda, o‘laymanki, Yaratganning o‘zi bizning barcha xayrli ishlarimizga madadkor bo‘ladi, sabr-toqat va kuch-quvvat bag‘ishlaydi».*

*Islom Karimov*

Ushbu konstitutsiyaviy qoida 1998-yil 1-may kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunning 5-moddasida ham o‘z ifodasini top-

gan. Qonunda tarixiy, madaniy, ijtimoiy omillarni hisobga olingan holda davlat va diniy tashkilotlar orasidagi munosabatlar belgilangan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e'tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi, mutaassiblik va ekstremizm asosida diniy munosabatlarni keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaydi. Muayyan dinga e'tiqod qiluvchilarni boshqasiga kiritishga qaratilgan prozelitizm va missionerlik faoliyati qonunan man etiladi.

Sekulyarizatsiya tamoyillariga asoslangan holda davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o'zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi, ularning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi hamda hech qaysi diniy tashkilotning faoliyatini yoki dahriylik targ'ibotiga oid faoliyatni mablag' bilan ta'minlamaydi. O'z navbatida, diniy tashkilotlar hech qanday davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari vakillariga diniy omil asosida tazyiq o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi. Yashirin diniy faoliyat taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlari diniy mohiyatdagi siyosiy partiya va jamoat harakati hamda respublikadan tashqarida tuzilgan diniy partiyalarning filiallari va bo'limlarini tuzish, terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko'maklashadigan boshqa g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalarning faoliyatini man etadi. Shuningdek, dindan davlat va jamiyatga qarshi targ'ibot olib borishda, dinlar va millatlararo adovat uyg'otish, ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarish, aholi o'rtasida vahima uyg'otish hamda davlat, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa xatti-harakatlarda foydalanishga aslo yo'l qo'yilmaydi.

**O'zbekistonda diniy tashkilotlarning ro'yxatga olinishi haqida ma'lumot  
(2016-yil dekabr holati)**

Hudud	Qorqalpog'iston Respublikasi	Andijon viloyati	Buxoro viloyati	Jizzax viloyati	Navoiy viloyati	Namangan viloyati	Samarqand viloyati	Sirdaryo viloyati	Surxondaryo viloyati	Toshkent viloyati	Farg'ona viloyati	Korazm viloyati	Qashqadaryo viloyati	Toshkent shahri	Markaziy organ	Jami
																2065
Islom	50	181	103	171	78	186	285	73	98	221	198	97	182	117	25	2065
Rus pravoslav cherkovi	1	1	2	1	4	2	4	7	2	9	3	-	1	5	3	45
Rim-katolik cherkovi	-	-	1	-	-	-	1	-	-	-	1	1	-	-	1	5
Evangel xristian baptistlar cherkovi	-	-	1	2	3	1	2	-	-	8	1	-	-	4	1	23
To'liq injilchi xristianlar cherkovi	-	1	1	2	1	-	1	1	-	10	-	-	-	5	1	23
Yettinchi kun xristian-advantistlari cherkovi	-	-	1	-	1	-	-	-	-	4	-	-	-	3	-	9
Evangel-lyuteranlar cherkovi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1	-	-	1	-	2

Yahudiyilar diniy jamoalari	-	-	2	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1	-	-	3	-	8
Budda ibodatxonasi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1	-	-	-	-	1
Novoapostol cherkovi	-	-	-	-	1	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1	-	3
«Iyegov shahidlari» cherkovi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1	-	-	-	-	1
Arman apostollik cherkovi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1	-	2
«Golos Bojiy» cherkovi	-	-	-	-	-	1	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1
Koreys protestant cherkovlari	-	-	1	1	-	-	7	-	-	-	-	19	5	-	1	9	1	44
Bahoiy diniy jamoalari	-	-	1	1	1	-	1	-	-	-	-	1	-	-	-	1	-	6
Krishnani anglash jamiyati	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1	-	1
Bibliya jamiyati	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1
JAMI	51	183	113	178	90	189	305	81	100	274	210	98	184	151	33	2240		

Fuqarolar o'zlarining diniy huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlarini, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari ushbu sohadagi qonunchilikning muhim tamoyili sanaladi.

Davlat va diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan amalga oshiriladi.

2016-yilning dekabr holatiga ko'ra, respublikada 16 ta konfessiyaga mansub 2240 ta diniy tashkilot faoliyat yuritmoqda. 130 dan ziyod millatga mansub aholining 94% dan ziyodi islom, 3,5% ga yaqini pravoslav diniga mansub, qolganlarini boshqa konfessiya vakillari tashkil etadi (qarang: 1-jadval).

Hozirgi kunda diniy ta'lim sohasida Toshkent islom instituti, 9 ta o'rta maxsus islom bilim yurti, shuningdek, pravoslav va protestant seminariyalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Istiqlol yillari O'zbekiston hukumati tomonidan vijdon erkinligini ta'minlash, dindorlarga qulay sharoit yaratish, diniy qadriyatlarini tiklash va avaylab-asrashga qaratilgan ko'plab hukumat qarorlari qabul qilinib, hayotga joriy qilindi. Ramazon va Qurbon hayitlari umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanmoqda.

Mustaqillik yillarida yuzlab cherkov, sinagoga va ibodat uylari, xususan, Toshkent, Samarqand, Navoiydagi pravoslav ibodatxonalarini, Toshkent shahridagi katolik kostyoli, Samarqanddagi arman-apostollik cherkovi, Toshkentdagi Buddha ibodatxonasi qayta barpo etildi, ta'mirlandi. Hazrati Imom, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Hakim Termiziy, Imom Moturidiy, Shohi Zinda, Qosim Shayx, Zangi ota kabi qadimiy yodgorlik majmualari obod qilindi va yangilari qurildi.

Istiqlol davrida Qur'oni Karim, hadislar to'plamlari, Bibliya tarkibidagi «Yangi ahd» va «Qadimiy ahd»ning ba'zi qismlari, masalan, «Sulaymon hikmatlari», «Rut, Ester va Yunus payg'ambarlar tarixi» o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. O'zbekiston ko'zi ojizlar uchun maxsus Brayl yozuvida Qur'onni nashr qilgan uchinchi mamlakat hisoblanadi.

1999-yili Toshkent islom universiteti tashkil etildi. Mazkur universitetda talabalarga dunyoviy va diniy fanlardan keng ko‘lamli ta‘lim berib kelinadi.

2018-yil 16-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5416-sonli «Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoniga asosan O‘zbekiston islom akademiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti negizida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi.

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi O‘zbekiston musulmonlari idorasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita muassisligidagi Qur‘on ilmlari, hadis, islom huquqi, aqida, tasavvuf, islom iqtisodiyoti va moliyasi, xalqaro munosabatlar, xorijiy tillar (arab, fors, ingliz, rus, urdu, turk va b.) va boshqa xalqaro miqyosda ehtiyoj mavjud bo‘lgan sohalar bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlashga, o‘rta maxsus, oliy ta‘lim, oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim, malaka oshirish bosqichlarida uzluksiz ta‘limning yaxlit tizimini tashkil etishga va ilmiy merosni chuqur tadqiq qilish va asrab-avaylashga, diniy va dunyoviy bilim berishga ixtisoslashgan yetakchi ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi.

Davlat tomonidan O‘zbekiston aholisining asosiy qismi e‘tiqod qiluvchi islom diniga mansub fuqarolarning haj va umra safarlarini tashkil etish ishlariga katta e‘tibor ko‘rsatib kelinmoqda. Jumladan, 2006-yil avgust oyida Birinchi Prezident Islom Karimovning Farmoniga asosan «Haj va umra tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Jamoatchilik kengashi» tuzildi. Davlat rahbarining 2008-yil 20-may kunidagi qarori asosida esa haj va umra ziyoratlarini amalga oshiruvchi (fuqarolarga davlat tomonidan zarur yordam ko‘rsatish maqsadida Jidda shahridagi O‘zbekiston Bosh konsulxonasi tarkibida «Haj va umra» ishlari bo‘yicha attashe lavozimi kiritildi.

Qayd etish lozimki, so‘nggi yillar davomida barcha yo‘nalishlarda bo‘lgani kabi diniy sohada ham islohotlarning yangi

bosqichga o'tildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi ilk xalqaro nutqida katta tashabbus bilan chiqib, *«Islomning umumbashariy sivilizatsiyaga benazir hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ko'p qirrali diniy-ma'naviy merosini o'rganishga ixtisoslashgan xalqaro ilmiy tadqiqotlar markazini Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuyi qoshida yaratilishi hamda musulmon dunyosidagi ta'lim, ilmfan va madaniyat tarixi hamda ularning hozirgi holatini o'rganish va ular haqida talabalarga chuqurlashtirilgan maxsus kurslarni o'qish maqsadida Toshkent islom universiteti tarkibida ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha ISESCOning maxsus kafedrasini tashkil etish»*, taklifini bildirdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning sohadagi keyingi yirik tashabbuslaridan biri 2017-yilning 14-fevral kuni **«Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»**gi Farmonni imzolashi bo'ldi. Markaz tashkil etilishidan ko'zlangan maqsad islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Iso Termiziy (Imom Termiziy) va termiziy allomalarning benazir merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, muqaddas yurtimiz zamini azal-azaldan ulug' allomalar, aziz-avliyolar vatani bo'lib kelganini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalashdir. Ushbu Markazning ochilishi borasidagi ishlar nufuzli xalqaro islomiy tashkilotlar tomonidan ham e'tirof etildi. Jumladan, Butunjahon musulmon ulamolar kengashi Bosh kotibi Ali Qoradog'iy Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilishi munosabati bilan O'zbekiston hukumati va ahlini tabriklab, *«O'zbekiston yurti juda ham ko'plab muhaddislar, faqihlar va boshqa qator sohalarda yetuk olimlarni yetishtirib chiqargan. Ular sababli islom madaniyati, balki butun insoniyat madaniyati boyidi. Mana shunday yurt uchun bunday markazlarni ochilishi ajablanarli ish emas. Shuning uchun men*



*O‘zbekiston hukumatini, shuningdek u yerdagi musulmonlarni ushbu qilinayotgan muborak ish munosabati bilan tabriklayman».*

Musulmonlarning ehtiyojlari, takliflarini inobatga olgan Prezidentimiz tashabbuslari bilan yurtdoshlarimizning muqaddas shaharlarga haj va umra ziyoratlarini amalga oshirishlari uchun sharoitlar yanada yaxshilandi hamda 2016-yilda 5200 kishi haj, 6000 nafar ziyoratchi umra ibodatini ado etgan bo‘lsa, 2017-yildan boshlab haj ziyoratiga 7200, umra ibodatiga esa 10 000 nafar yurtdoshlarimiz yo‘l oldilar.

2017-yil 15-iyunda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan «Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusidagi yig‘ilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev *«Samarqandda – Imom Buxoriy ilmiy markazida hadisshunoslik, Imom Moturidiy markazi qoshida kalom ilmi, Farg‘onada – Marg‘inoniy ilmiy markazida islom huquqi maktabi, Buxoroda – Bahouddin Naqshband markazida tasavvuf, Qashqadaryoda – Abu Muin Nasafiy markazida aqida ilmi maktabini tashkil etsak, o‘ylaymanki, bu juda foydali bo‘ladi. Kelgusida chuqur bilimli imom-xatiblar, islomshunos mutaxassislar, ulamolar tayyorlashda, eng muhimi, farzandlarimizni buyuk ajdodlarimizning bebaho merosi ruhida, sog‘lom e‘tiqod ruhida tarbiyalashda bu maktablar tayanch bo‘lib xizmat qiladi»* deb, ta‘kidlagan edilar.

2017-yildan «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» doirasida, yillar davomida DEOga mansublikda ayblanib, «Qora ro‘yxat»da turgan vatandoshlarimiz bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazilib, 16 mingga yaqin fuqarolar maxsus hisobdan chiqarildi.

Davlatimiz rahbari islohotlar olib borishda faqatgina yurtimiz bilan chegaralanib qolganlari yo‘q. O‘zlarining tinchlik va rivojlanishga xizmat qiladigan g‘oyalarini jahon arenalarida ham dadil turib targ‘ib qilmoqdalar. Xususan, 2017-yilning 10-sentyabr kuni Qozog‘iston Respublikasida bo‘lib o‘tgan Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi sammitidagi nutqida ham yurtimiz allomalari hamda yurtimizda din

sohasida amalga oshirilayotgan keng islohotlar haqida soʻzladilar. Unda yurtimizda fan va texnologiyalarni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar va kelajakda amalga oshirilishi nazarda tutilgan bir qator islohotlar toʻgʻrisida ayta turib, bugungi musulmon olami ushbu sohalarda oqsayotgani, mazkur masalalarni hal etishda oʻzaro hamkorlik va hamjihatlikning ahamiyatini alohida taʼkidlab, bir necha dolzarb takliflarni oʻrtaga tashladilar. Jumladan:

- *musulmon olami yosh olimlari xalqaro markazini tuzish;*
- *musulmon dunyosida erishilayotgan ilm-fan yutuqlarini munosib taqdirlash hamda ularni xalqaro miqyosda ommalashtirish uchun Islom hamkorlik tashkilotining maxsus mukofotini taʼsis etish;*
- *aʼzo davlatlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi, aholining munosib hayot darajasini taʼminlash maqsadida Fan va texnologiyalar boʻyicha sammitni har uch yilda bir marta oʻtkazishni va ushbu taklif qoʻllab-quvvatlangan taqdirda, keyingi sammitni 2020-yilda Oʻzbekistonda oʻtkazish.*

Yurtimizda din sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro miqyosdagi ekspertlar, mutaxassislar, ulamolar tomonidan ham yuqori baholanayotganini alohida qayd etish lozim.

**Vijdon erkinligining huquqiy asoslari.** Din va eʼtiqod masalalari inson maʼnaviyatining uzviy qismi hisoblanadi. Mazkur masalalarning mazmun-mohiyati haqida chuqur va asoslangan bilimlarga ega boʻlish hayotiy-amaliy faoliyatni toʻgʻri tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, eʼtiqodiy tushunchalarni tahqirlash, mensimaslik shaxs tabiiy huquqlarining buzilishiga sabab boʻladi. Chunki vijdon erkinligi koʻplab davlatlar qatori Oʻzbekiston qonunchiligida hamda xalqaro konvensiyalarda huquqiy himoyaga olingan. Vijdon erkinligi huquqi inson huquqlarining 5 ta eng asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda vijdon erkinligini huquqiy himoya qiluvchi dastlabki qonunning paydo boʻlishi XX asrning 90-yillariga toʻgʻri keladi. Oʻtgan asrda shoʻro tuzumi xalqimiz ongu tafakkurida dinni afyun va zararli uydirma sifatida gavalantirishga harakat qilayotgan bir pallada Oʻzbekistonning

Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ko'rsatgan jasorati evaziga 1991-yil 14-iyunda ilk bor «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan edi. Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Tariximizning eng fojiali, eng og'ir damlarida ham, mustabid tuzum changalida bo'lgan paytimizda ham, bizni dinimizdan ayirishga, unga xiyonat etishga majbur qilganlarida ham, xalqimiz hech qachon o'z islomiy e'tiqodidan qaytmagan».

Mustaqillikdan keyin fuqarolarimizning din bilan bog'liq huquq va erkinliklarini to'liq amalga oshirish, diniy va milliy qadriyatlarni tiklash sohasida qator ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo, vijdon erkinligining huquqiy bazasi mustahkamlandi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi», degan huquqiy norma belgilandi (31-modda). Mazkur norma asosida har bir shaxsning din bilan bog'liq haq-huquqlari davlat tomonidan rasman kafolatlandi.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi me'yorlarning qonunchilikka kiritilishi natijasida diyorumizda rasmiy faoliyat olib borayotgan barcha din vakillariga katta imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, mustaqillikkacha respublikada bir necha cherkov va sinagogalar faoliyat olib borgan bo'lsa, qonun qabul qilingach, dunyoning turli mintaqalarida diniy ibodatlarini amalga oshiruvchi Yevangel-lyuteran jamoasi, Rim-katolik cherkovi, Yettinchi kun adventistlar cherkovi, Bahoiylar jamoasi, yahudiylar diniy jamoalari kabi 10 dan ortiq diniy konfessiyalar yurtimizda rasmiy faoliyat yurita boshladi.

Shuningdek, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov Farmoniga ko'ra, 1903-yilda qurilgan «Святая Богородица» ibodatxonasining Arman apostollik cherkoviga topshirilgani, o'z vaqtida faoliyati to'xtatib qo'yilgan Yevangel-lyuteran cherkovi Kirxasining respublikamizda istiqomat qiluvchi nemislarning diniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida «Vidergeburt» nemis madaniyat

markaziga foydalanish uchun qaytarib berilgani va 1996-yilning dekabrda ushbu konfessiyaning yurtimizda faoliyat boshlagani-ning 100 yilligi keng nishonlanishi ham yuqoridagi fikrimiz isboti bo'la oladi. Ammo, yaratilgan imkoniyatlarga qaramasdan xalqimizning bag'rikengligini suiiste'mol qilgan ayrim diniy oqimlar faqat diniy g'oya va aqidalarni emas, balki siyosiy va ekstremistik maqsadlarni ko'zlab ish olib borgani achinarli.

Ko'p asrlardan beri hanafiy mazhabiga ergashib kelgan xalqimiz uchun yot g'oya va qarashlarni yoqlab chiqishlari barobarida hanafiy mazhabi yo'l-yo'riqlari asosida ibodat qiluvchilarni mensimaslik, mazhab ulamolarini haqoratlash, din arkonlarini bajarmayotgan shaxslarni kofirlikda ayblash, imomlar bilan masala talashish, boshqa mazhab vakillariga shaklan taqlid qilish kabi holatlar kuzatildi.

Xorijiy davlatlardan diniy aqidaparastlikni targ'ib etuvchi, odamlarda qo'rquv va vahima uyg'otuvchi ko'plab diniy adabiyotlar «Hizbut-tahrir», «Akromiyalar», «Tavba», «Adolat uyushmasi» kabi ekstremistik guruhlar tomonidan ommaga tarqatilib, mamlakat barqarorligiga raxna solishga qaratilgan harakatlar yuzaga kela boshladi. Shuningdek, asosiy maqsadi millat va jamiyatni diniy asosda bo'lib tashlash bo'lgan missionerlik harakatlari turli yo'llar bilan yurtimizga suqilib kira boshlagan edi. Respublikamiz qonunchiligida missionerlik faoliyatiga huquqiy jihatdan yetarli darajada to'siqning mavjud emasligi bartaraf etib bo'lmas darajada og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin edi.

Bu kabi holatlar «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunni qayta ko'rib chiqishni taqozo etardi. Yuqorida qayd etilganidek, 1991-yil 14-iyunda ilk marta qabul qilingan Qonunga 1993-yil 3-sentyabrda ba'zi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. 1998-yil 1-may kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 23 moddadan iborat yangi tahriri qabul qilindi. Qonunni ishlab chiqishda mamlakatimizning o'ziga xos sharoiti, unda yashovchi ko'p millatli xalqimizning huquq va

manfaatlari hamda mentaliteti hisobga olindi. Qonunning asosiy maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek, diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat.

Qonunning 3-moddasida «Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin»ligi belgilangan. Bu norma «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida»gi xalqaro Paktning 18-moddasi 3-bandiga to'liq mos tushadi.

Shuning bilan birga, BMT Bosh Assambleyasining «Diniy toqatsizlikning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risida»gi Rezolyutsiyasida ham bunday qoida mustahkamlangan bo'lib, unda asosan tinchlik va jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadlarida din yoki e'tiqod erkinligi sohasida ma'lum cheklovlarga yo'l qo'yilishi belgilab o'tilgan.

Shu ma'noda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 5-moddasida mustahkamlangan bir konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar, shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyatini cheklash haqidagi qoida yurtimiz xavfsizligi, turli din vakillarining tinch-totuv yashashini ta'minlashga qaratilgan. Chunki inson o'z dini va e'tiqodini o'zgartirishi ko'p hollarda salbiy oqibatlariga olib keladi. Ayniqsa, bunday harakatlar oqibatida oiladagi barqarorlikka putur yetishiga sabab bo'layotganini hech qanday yo'l bilan oqlab bo'lmaydi. Qonunchilikda bunday holatlarga nisbatan javobgarlik belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 240-moddasi ikkinchi qismida bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar va boshqa missionerlik faoliyati uchun eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravari-gacha miqdorda jarima solish yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishi belgilangan bo'lsa,

Jinoyat kodeksining 2162-moddasi ikkinchi qismiga asosan bunday xatti-harakatlar ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilsa, eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi nazarda tutilgan.

Yangi tahrirdagi qonunda diniy tashkilot sifatida diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqa birlashmalar e'tirof etilishi hamda ular 18 yoshga to'lgan va respublika hududida doimiy yashayotgan 100 nafardan kam bo'lmagan O'zbekiston fuqarolari tashabbusi bilan tuzilishi haqidagi qoida mustahkamlab qo'yildi. Avvalgi tahrirda bu qoida «10 nafar fuqaroning tashabbusi bilan», deb belgilangani diniy tashkilotlar sonining aholi ehtiyojiga nisbatan ancha ko'payib ketishiga olib keldi. Shu bilan birga, ularning bir qanchasi xorijiy muassislar tashabbusi bilan tuzilgani bois, 8-moddaning 5-bandida tegishli diniy ma'lumotga ega bo'lgan respublika fuqarolarigina diniy tashkilot rahbarlari bo'lishi mumkin, deya belgilandi. Respublika fuqarosi bo'lmagan shaxslarning nomzodi esa Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishilgan holda qabul qilinishi qoida tariqasida mustahkamlandi.

Ayni paytda, diniy tashkilot tuzish masalasi turli davlatlar qonunchiligida o'ziga xos tarzda hal qilinganini ta'kidlash joiz. Masalan, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'istonda 10 nafar fuqaro, Polshada 15, Vengriyada 100, Qirg'izistonda 200, Chexiyada 300 nafar fuqaro tashabbusi bilan diniy tashkilot tuzish mumkinligi belgilangan.

Respublikamizning «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» yangi tahrirdagi Qonunining 9-moddasida diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari diniy o'quv yurtlari tuzishga haqli ekanligi belgilandi. Shu bilan birga, bu muassasalarda diniy fanlarni o'qitayotgan shaxslar diniy ta'lim olgan bo'lishi va o'z faoliyatini tegishli markaziy boshqaruv organining ruxsati bilan amalga oshirishi lozimligi qayd etildi. Shuningdek, oliy va o'rta maxsus diniy o'quv yurtlarida bilim olishni ista-

gan shaxs, albatta, umumiy majburiy oʻrta taʼlimni tamomlagan boʻlishi shart qilib belgilandi.

Ushbu qoidaning tatbigʻini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-martdagi 99-son qarori bilan tasdiqlangan «Diniy taʼlim muassasalarining faoliyatini litsenziyalash toʻgʻrisida»gi Nizomi qabul qilindi. Bu nizomda diniy taʼlim muassasalari faoliyatini tashkil etish va bu sohada eʼtibor berish lozim boʻlgan jihatlar hamda koʻrsatilgan tartibga amal qilinmagan holatda kelib chiqadigan huquqbuzarliklar bayon etilgan. Bir soʻz bilan aytganda, respublikamizda din sohasida demokratik prinsiplarga toʻla amal qilingan holda barcha dinlarning rivojlanishi uchun teng imkoniyatlar yaratilgan.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida»gi Qonunning 16-moddasida diniy tashkilotlar muayyan miqdorda davlat mulkidan foydalanishlari mumkinligi koʻrsatilgan.

Shunga koʻra, diniy tashkilotlar oʻz ehtiyojlari uchun davlat organlari tomonidan shartnoma asosida beriladigan binolar va mol-mulkdan foydalanishga haqlidir. Bu esa tegishli hokimiyat organlari ruxsati bilan amalga oshiriladi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish toʻgʻrisida»gi Qonunining 27-moddasiga muvofiq, tarixiy va madaniy yodgorliklar obyektlari va buyumlar diniy tashkilotlarga tekin foydalanish shartnomasida berib qoʻyilishi koʻzda tutilgan. Bu esa, fuqarolarning diniy marosimlarni toʻlaqonli amalga oshirishi uchun davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatdir.

Qonunning diniy adabiyotlarga tegishli boʻlgan 19-moddasi ham oʻzgartirildi. Unga koʻra, diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari diniy maqsadlarga moʻljallangan buyumlar, diniy adabiyotlar va diniy mazmundagi boshqa axborot materiallarini Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqarishga, eksport va import qilishga hamda tarqatishga haqlidir.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 23-apreldagi 196-son qarori bilan tasdiqlangan, Oʻzbekiston Res-

publikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita to'g'risidagi Nizomning 7-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita respublikada chiqariladigan yoki chet ellardan keltiriladigan diniy tusdagi mahsulotlarni ekspertizadan o'tkazadi va mazkur faoliyatni muvofiqlashtiradi. Mazkur qoida orqali respublika hududiga diniy mazmundagi adabiyotlarning olib kirish tartibi takomillashtirildi.

Shunga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi 10-sonli «Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga asosan diniy mazmundagi materiallarning turlari va ularning mazmun-mohiyati kengroq tavsif qilib berildi. Unda aytilishicha, diniy mazmundagi kitob, risola, jurnal, gazeta, varaqa va boshqa bosma nashrlar, audiovizual asarlar axborot tashuvchi elektron jismlar (CD, DVD diskleri, fleshkalar, Internet tarmog'ida joylashtirilgan materiallar va shu kabilar) diniy mazmundagi materiallar sifatida e'tirof etiladi.

Ko'rinib turibdiki, vijdon erkinligi qonunchiligi borasidagi islohotlar amalga oshirilishi lozim bo'lgan hayotiy zarurat hisoblanadi. Bu islohotlar jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas tarzda rivojlanishda davom etadi. Jumladan, mavjud qonunchilik mohiyatini keng xalq ommasiga to'laqonli yetkazib berish maqsadida vakolatli davlat organlari tomonidan sohaga oid qonunlarga huquqiy sharhlar berilishi, fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini ta'minlashga xizmat qiluvchi qonun osti hujjatlarining qabul qilinayotgani fikrimizning isbotidir.

Xulosa qilib aytganda, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunni hayotga tatbiq etish va sohaga oid amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar natijasida diniy tashkilotlarni ro'yxatga olish hamda ularga rahbarlik qilish, noan'anaviy diniy oqimlar yoyilib ketishining oldini olish, diniy ta'lim tizimini takomillashtirish, shuningdek, diniy adabiyotlarni chop etish va



tarqatish kabi diniy hayot barqarorligini ta'minlashga qaratilgan vazifalarni bajarish uchun zamon talablariga mos huquqiy mexanizm yaratildi.

Shuni afsus bilan qayd etish lozimki, yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan ba'zi diniy tashkilotlar tomonidan vijdon erkinligi to'g'risidagi qonunchilikning buzilishi, xususan, missionerlik va prozelitizm bilan shug'ullanish holatlari ham kuzatilmoqda.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Hozirgi davrda din va davlat munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?

2. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari haqida ma'lumot bering.

3. Davlatning vijdon erkinligini ta'minlashdagi roli nimalarda ko'rinadi?

4. Zamonaviy sektalar tomonidan missionerlik faoliyatini olib borishda qanday uslublardan foydalanilmoqda?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga-yuz javob). Mas'ul muharrir O.Yusupov. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 156 b.

2. Ochildiyev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari (yuz savolga-yuz javob). – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.

3. Jo'rayev Sh. «Vijdon erkinligining huquqiy kafolatlari». // O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 80 b.

4. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552 b.

### 3-mavzu. ISLOM – TINCHLIK, BAG‘RIKENGLIK VA MA‘RIFAT DINI

1. Islom dinining tinchlikparvarlik mohiyati.
2. Islom bilim va ma‘rifat dini.
3. Bag‘rikenglik tushunchasi va mohiyati.
4. O‘zbekistonda bag‘rikenglik munosabatlari.

*Tayanch so‘z va iboralar: Islom – tinchlik va yengillik dini, bilim, ma‘rifat, dinning bag‘rikenglik mohiyati, «Bag‘rikenglik tamoyillari» Deklaratsiyasi, Hudaybiya sulhi, diniy bag‘rikenglik.*

**Islom dinining tinchlikparvarlik mohiyati.** Islom – inson qadri va taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan eng ezgu g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan din. Islom – bu tinchlik. Arab tilidagi bir o‘zakdan yasalgan «silm», «salom» va «islom» so‘zlari ma‘no jihatidan tinchlik va omonlikni anglatishi bejiz emas.

Islom ta‘limoti, xususan, Qur‘oni Karim oyatlarida tinchlikni saqlash va uning uchun kurashishga intilishga chaqiriladi: **«Ey, imon keltirganlar! Yoppasiga tinchlik ishiga kirishingiz!...»** (*Baqara, 208*). Tafsir kitoblarida keltirilishicha, oyatdagi «yoppasiga» so‘zi barcha insonlarning birlashgan holda tinchlik yo‘lini tutishlari lozimligi va uning barqarorligini saqlashda qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham o‘z hissalarini qo‘shish zarurligini bildiradi.

Tinchlik insoniyatga berilgan ne‘matlarning ichida imondan keyingi eng ulug‘ ne‘mat sanaladi. Bu haqida Muhammad (a.s.) shunday deganlar: *«Allohdan avf va tinchlik-omonlikni so‘rangizlar, biror kishiga imondan keyin avf qilishlik va tinchlikdan afzalroq ne‘mat berilgani yo‘q».*

Alloh taolo Qur‘oni Karimning Baqara surasi 126-oyatida *«Es-lang, Ibrohim: «Ey, Rabbim, buni (Makkani) tinchlik shahri qilgin va uning aholisidan Allohga va oxirat kuniga ishonuvchilariga (turli) mevalardan rizq qilib bergin!»*, deb duo qilganida avvalo tinchlik, undan keyin rizq so‘rash orqali duo qilish ta‘limi berilmoqda. Bundan ko‘rinadiki, tinchlik-xotirjamlik rizqdan ham ulug‘roq ne‘matdir.

Tinchlikni qadrlash hamda osoyishta hayot uchun shukuronalik uni saqlab qolish va mustahkamlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Islom ta'limotida masalaning bu jihatiga ham alohida e'tibor berilgani Qur'oni Karimning «Nahl» surasi 112-oyatida «*Alloh bir shaharni (Makkani) misol keltirur: u tinch, sokin (shahar) edi, har tomondan rizqi kengu mo'l kelib turar edi. Bas, u (aholisi) Allohning ne'matiga noshukurlik qilgach, Alloh unga (aholisiga) bu «hunarлари» sababli ochlik va xavf libosi (balosi)ni «totish»ga majbur etdi*». Shukur qilish orqali berilgan ne'matlar yanada ziyoda bo'lar ekan, uni asrab qolish uchun ushbu ne'matni e'tirof etish va shukur qilish muhim omildir. Inson go'zal bir holatda umr kechirayotgan bo'lsa uning o'zi bu holatni o'zgartirmagunicha ya'ni, noshukurlik qilmagunicha Yaratgan aslo ularning ne'matlarini to'sib qo'ymasligini oyati karimalarida aytib o'tgan.

Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisi sharifda Payg'ambar (a.s.) shunday deydilar: «*Kimki, o'z uyida xavf-xatardan emin holda tong orttirs va huzurida bir kunlik ozig'i bo'lsa, bas unga go'yoki, dunyo ne'matlari to'raligicha ato qilinibdi*».

Muqaddas manbalar orqali kishi uchun eng aziz ne'mat bu — tinchlik ekani bildirilmoqda. Alloh tarafidan bandalarga ato etilgan ushbu ne'matga rahna solish eng katta gunohdir.

Zero, Payg'ambar (a.s.) o'z faoliyatlarida doimo muzokara, sulh bilan tinchlik yoki mudofaa yo'lini tutganlari islom tarixidan ham ma'lum. Ayniqsa, «Hudaybiya sulhi» deb nom olgan tinchlik bitimida ularning tinchlikparvar siyosatlarini yaqqol namoyon bo'ldi. Musulmonlar uchun noqulay shart-sharoitlar asosida tuzilgan bu sulhga sahobiyalar keskin qarshi chiqsalar, Rasullulloh (a.s.) tinchlikka erishish va qon to'kilishining oldini olish maqsadida ushbu hujjatga darhol imzo qo'ydilar. Qur'oni Karimda ham bu borada, «*Bordiyu, tinchlikka moyil bo'lsalar, bas, sen ham unga (tinchlikka) moyil bo'l va Allohga tavakkul qil*», deb qattiq ta'kidlangan (*Anfol, 61*).

Darhaqiqat, Hudaybiya sulhi o'zining ahamiyati jihatidan har qanday jangdagi g'alabadan yuqori turadi. Zero, bu sulh yan-

gi islom dinining tinchlikparvar mohiyatini namoyon etgan edi. Payg‘ambar (a.s.) o‘zlarining ziyonlariga bo‘lsa ham tinchlik uchun qanchalik jonkuyar ekanlari makkaliklarga hamda ayrim madinalik sahobiylarga saboq bo‘ldi.

Keyinchalik esa, Payg‘ambar (a.s.) Arabiston tarixida misli ko‘rilmagan kuchga ega bo‘lsalar-da, Makkani qon to‘kmasdan tinch yo‘l bilan egallash yo‘lini tutganlari ham e‘tiborga molik. Vaholanki, Makka mushriklari necha yillar davomida Rasululloh (s.a.v.)ga aziyat yetkazib, ularga qarshi chiqib, ko‘plab musulmonlarning umriga zomin bo‘lgan edilar. Rasululloh (a.s.) shaharga kirishdan oldin makkaliklarga Abu Sufyonning hovlisiga kirib olganlar, eshigini qulflab o‘tirganlar, Masjid al-Haromga kirib olganlarga omonlik berilishini kafolatladilar.

Makkaga kiringach esa, Rasuli Akram shu vaqtgacha dushmanlik qilib kelgan mushriklarni bir joyda to‘plab: «Ey, Quraysh ahli, sizlarga meni qanday chora ko‘radi, deb o‘ylaysizlar?» Quraysh dedi: «Saxiy insonning saxovatli farzandidan yaxshilikningina kutamiz». Shunda Rasuli Akram «Men sizlarga Yusuf (a.s.) o‘z birodarlariga aytgani kabi — **«Bu kun sizlarga nisbatan ayblov yo‘q»** (*Yusuf, 12*), — deyman. Ketaveringlar, hammangiz ozodsizlar», deb marhamat ko‘rsatdilar. Hatto dushmanlarga ham oliyjanoblik ko‘rsatish, ularga kechirimli munosabatda bo‘lish dini-mizning tinchlikparvar mohiyatini namoyon etadi. Zero, islom dini har qanday sharoitda jangga yo‘l qo‘ymaslikka, tinchlikni asrashga katta e‘tibor bergan. Payg‘ambar (a.s.) sahobiylarga doimo takrorlab shunday deganlar: «*Qiyomat kuni birinchi savol nohaq to‘kilgan qonlar to‘g‘risida bo‘lur*» (Imom Buxoriy rivoyati).

Tinchlikni ulug‘ ne‘mat, deb e‘lon qilgan dinimizda bu yo‘lda nafaqat amal, balki so‘z bilan ham zarar keltirishdan qaytarilgan. Payg‘ambar (a.s.) «*Musulmon kishi shuki, uning tilidan va qo‘lidan musulmonlar ozor chekmaydilar.*» deb marhamat qilganlar. Zero, so‘z, ya‘ni tildan yetadigan ozor qo‘ldan yetadigan zarardan avval zikr etilishi, qo‘l bilan boshqalarning faqat bu dunyosi — salomatligi, oilasi, mulkiga zarar yetkazish mumkinligi, til bilan — inson-

larni turli buzg'unchi g'oyalarga targ'ib qilish, kishilarni to'g'ri yo'ldan chalg'itish orqali ikki dunyosini barbod etish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda ayrim firqa va toifalarning musulmonman, deb turgan aholining ichida parokandalik, oilasida ziddiyatlarni keltirib chiqarishga urinishlari islomning asl mohiyatiga butunlay ziddir. Bu amallarni islom nomi bilan bog'lash dinimizga nisbatan tuhmatdir.

**Islom bilim va ma'rifat dini.** Islom dini inson manfaatlari va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi har qanday kashfiyot va yangiliklarni yuksak qadrlagan, qo'llab-quvvatlagan. Islom ta'limotida ilmning yuksak qadrlanishini hadislar ham tasdiqlaydi. Buyuk bobokalonimiz Imom Buxoriy ta'kidlaganlaridek: «Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay». Albatta, islom ilm-ma'rifatga asoslangan dindir.

Islomning asosiy manbalari hisoblangan Qur'oni Karim hamda hadisi sharifda ilm o'rganishga va uni o'rgatishga targ'ib qilinib, aksincha, ilmsizlik yoki uni o'rganishga loqaydlik qattiq qoralanadi. Jumladan, Qur'oni Karimning ilk nozil bo'lgan oyatining o'zidayoq Alloh taolo «O'qi!» deb amr qildi. «Ilm» so'zi turli ma'nolarda Qur'onda 811 o'rinda takrorlanishi uning o'rni qanchalik yuqori ekanini ko'rsatadi.

Rasululloh alayhissalom o'zlarining ko'plab hadislarida ilm egallashga, olimlarni yaxshi ko'rishga chaqirganlar. Jumladan, Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda: «Ilm talab qilish har bir musulmonga farzdir» deb ta'kidlaganlar. Qur'oni Karimda: «Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko'tarur» (*Mujodala, 11*), deyilgan. Ibn Hajar Asqaloniy ushbu oyatni quyidagicha tafsir qiladi: «Albatta darajalarni ko'tarish ulug' fazlu marhamatga dalolat qiladi va dunyoda oliy martaba, shon-shuhrat kabi ma'naviy yuksaklikni hamda jannatdagi oliy martaba kabi hissiy yuksaklikni o'z ichiga oladi».

«Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri»da esa ushbu oyat quyidagicha tafsir qilinadi: «Ilm va olimlarning fazilat-

lari, ikki dunyoda erishadigan daraja va martabalariga doir oyat va hadislar juda ko'p uchraydi. Rasul alayhissalomdan olim kishining bir kunlik ibodati ilmsiz obidning qirq yillik ibodatiga teng ekani, qiyomatda shafaot qilishi, agar u ta'lim ham bersa, Yer va osmonlardagi barcha jonzot Allohdan unga mag'firat so'rashi va boshqa ko'p bashoratlari sahih hadislar orqali rivoyat qilingan. Sulaymon alayhissalomga Alloh taolo ilm, boylik va podshohlikdan birini tanlashni buyurganida u ilmni tanlaydi. Ilmning sharo-fatidan unga boylik va podshohlikni ham qo'shib beradi».

**Bag'rikenglik tushunchasi va mohiyati.** «Bag'rikenglik» tushunchasi ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik kabi fanlar doirasida keng istifoda etiladi. «Tolerantlik» — lotincha «tolerare», ya'ni «chidamoq», «sabr qilmoq» ma'nosini anglatgan bu so'z, asosan biror narsani, o'zgacha fikr yoki qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'i nazar, imkon qadar bag'rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Xususan, ushbu tushuncha deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi ma'no kasb etib, «chidamlilik», «bardoshlilik», «toqatlilik», «o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish», «muruvvatlilik», «himmatlilik», «kechirimlilik», «mehribonlik», «hamdardlik» kabi ma'nolarga ega.

Taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lgan bag'rikenglik borasida 1995-yil 16-noyabrda BMT tizimida Fan, ta'lim va madaniyat sohasida ixtisoslashgan tashkilot (YUNESKO) Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida «Bag'rikenglik tamoyillari» Deklaratsiyasi qabul qilindi. Deklaratsiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat'i nazar, bag'rikenglikni targ'ib etish, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlarni belgilab qo'yilgan. 1995-yil «Xalqaro bag'rikenglik yili» deb e'lon qilindi.

Diniy bag'rikenglik turli din vakillari e'tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qat'i nazar ularning yonma-yon, o'zaro tinch-to-

tuv yashashi hamda har bir diniy ta'limotga hurmat bilan qarashni anglatadi. Har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkin bo'lgani holda, bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini e'tirof etmog'i lozim. «Bag'rikenglik tamoyillari» Deklaratsiyasida ta'kidlanganidek, «Bag'rikenglik bo'lmasa tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi».

**O'zbekistonda bag'rikenglik munosabatlari.** Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, zaminimizda madaniyat rivojining uch ming yildan ortiq buyuk tarixi bor. Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonning hozirgi hududida qadim davrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qilgan xalqlar yashab kelgan. O'zbekistonning jug'rofiy-siyosiy nuqtayi nazardan muhim savdo yo'llari chorrahasida joylashgani, ko'plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar qilgani diniy va madaniy hayotga katta ta'sir ko'rsatgan. O'z navbatida bu yerda yashagan tub aholining madaniyati ham ularga ta'sir o'tkazgan va o'ziga xos turmush tarzini shakllantirishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Asrlar mobaynida o'lkamizning shaharu qishloqlarida masjid, cherkov va sinagogalar emin-erkin faoliyat ko'rsatib, turli millat va dinga mansub qavmlar hamjihatlikda o'z diniy marosimlarini ado etib kelganlar. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagan. Bu esa, millati va diniy qarashidan qat'i nazar, insonni ardoqlash va o'zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish kabi tuyg'ular o'lka aholisining qon-qoniga singib ketganidan dalolat beradi. Aynan shu sifatlar xalqimizga xos bo'lgan diniy bag'rikenglikning ma'naviy asosini tashkil qiladi.

Ma'lumki, har bir dinning o'ziga xos aqidalari mavjud. Ular ba'zan bir-biriga mutanosib bo'lsa, ba'zan bir-biriga zid ham kelishi mumkin. Diniy bag'rikenglik ana shu xilma-xillik asosida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning oldini oladi, turli e'tiqodlarning yonma-yon va bir paytda mavjud bo'la olishi uchun xizmat qiladi.

Qadim zamonlardanoq o'lkamizda zardushtiylik, buddaviylik, yahudiylik, nasroniylik kabi dinlar mavjud bo'lgan. Eng qadimiy va keng tarqalgan dinlardan biri bo'lmish zardushtiylikning vatani ham bizning yurtimizdir. Zero, u qadimgi Xorazmda shakllanib, rivoj topgan.

Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda buddizm ham muhim o'rin tutgan. Hattoki, Buxoro shahrining nomi ham «vaxara» – buddaviylar ibodatxonasi nomidan kelib chiqqan, degan fikrlar ham bor.

Markaziy Osiyoga islom dinining yoyilishi arafasida bu yerga Eron orqali Suriyadan kirib kelgan nestorian yo'nalishidagi nasroniylik dini muhim mavqeni egallagan. VI asr boshlarida Samarqandda nestorian yepiskopi, VIII asrda esa mitropoliti xizmat qilgan. Shuningdek, qadimda hozirgi Toshkent va Xorazm viloyatlari hududlarida nasroniy diniga mansub aholi ham yashagan.

VIII asrda Markaziy Osiyo arablar tomonidan zabt etilganidan so'ng mintaqaga islom dini kirib keldi. Aholining bu dinni qabul qilishi asta-sekinlik bilan, bir tekis bo'lmagan holda yuz berdi. Aholining bir qismi o'zlarining qadimgi dinlariga e'tiqod qilishda davom etdi. Bu vaqtda islom va mahalliy dinlarning, ularga xos qadriyat va odatlarning qorishuvi yuz berdi. Movarounnahr xalqlarining islom diniga zid kelmaydigan ma'rifiy-axloqiy g'oyalari, huquqiy me'yor va urf-odatlarini to'la saqlanib qoldi hamda islom ta'limoti asosida yanada sayqallandi. Bu holat Movarounnahrda islomning o'ziga xos xususiyatlar kasb etishiga sabab bo'ldi. Bu ham yurtimizda uzoq yillar davomida shakllangan diniy bag'rikenglik samarasi edi.

O'lkada tinchlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlashda islom ta'limotidagi o'ziga din vakillari bilan o'zaro murosa yo'lini tutish, ular bilan dunyoviy ishlarda hamkorlik qilish va hamjihatlikda yashashga chorlovchi tamoyillar ham o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, islom ta'limotidagi dinni qabul qilish yoki qabul qilmaslik qalbga bog'liq, insonning to'liq ixtiyoridagi amal deb qaralishi mintaqada diniy bag'rikenglik muhiti barqaror bo'lishi uchun asosiy omillardan bo'ldi.



Bu ta'limot Qur'oni Karim oyatlari va hadisi shariflarga tayannar edi. Jumladan, Qur'oni Karimning «Baqara» surasi 256-oyatida «La ikroha fid-din» ya'ni, «Dinda zo'rlash yo'q» degan qoida asosida dinni qabul qilish ixtiyoriy amal ekani va insonni zo'rlab biror dinga kiritish mumkin emasligi, har bir inson dinga munosabatini belgilashda erkin ekani qayd etiladi.

Bundan tashqari, yana bir oyatda: «Agar Rabbingiz xohlasa edi, Yer (yuzi)dagi barcha kishilar yoppasiga imon keltirgan bo'lar edilar. Bas, Siz odamlarni mo'min bo'lishlariga majbur qilasizmi?!» (*Yunus*, 99) deyiladi.

Shuningdek, ijtimoiy masalalarda ham musulmonlarning o'zga e'tiqod vakillari bilan hamkorlik qilish, ular bilan hamjihatlik asosida munosabatga kirishishga chaqiriladi. Jumladan, boshqa din vakillari (ahli kitoblar)ning taomlaridan yeyish, ular bilan quda-andachilik qilish, ulardan uylanishga ruxsat berilgan.

Bu haqida «Moida» surasida shunday deyilgan: «Bugun sizlar uchun pokiza narsalar halol qilindi. Shuningdek, Ahli Kitoblarning taomi sizlar uchun halol va taomingiz ular uchun haloldir. Zinokorlik va maxfiy o'ynash qilib olish uchun emas, balki mahrlarini bersangiz, mo'mina ayollarning iffatlilari va sizlardan oldin Kitob berilganlarning iffatli ayollari (ham haloldir) (5-oyat).

Quda-andachilik insonlarni o'zaro bog'lab turuvchi asosiy rishtalarning biridir. Musulmon insonning ahli kitob (xristian va yahudiylar)ga uylanishi natijasida o'zga din vakillari bilan qarindoshlik rishtalari bog'lanadi va ular o'rtasida o'zaro mehramuruvvat tuyg'ulari paydo bo'ladi. Islom ta'limoti esa ana shunday hamkorlik va hamjihatlikka chorlaydi.

Shuningdek, zarur bo'lsa, o'zga din vakillarining ibodatlarini-da, hurmat qilish, ularni bajarib olish uchun imkoniyat yaratib berishga islom dini da'vat qiladi. Jumladan, Muhammad (a.s.) huzurlarida Najrondan kelgan nasroniy dini vakillari masjidida o'z diniy ibodatlarini bajarishga chog'lanib turganlarida sahobiy-lar ularni qaytarishmoqchi bo'ladilar. Shunda Rasululloh (a.s.):

«Qo‘yinglar, ibodat qilaverishsin», deganlari yuqoridagi fikrning yaqqol isboti hisoblanadi.

Shu bilan birga, islom dinida kishi qaysi din vakili bo‘lishidan qat’i nazar uni inson sifatida qadrlash, unga hurmat ko‘rsatishga da’vat etiladi. Imom Buxoriydan rivoyat qilingan quyidagi hadisda bunga ishorat bor: «Nabiy (s.a.v.) oldidan bir janoza olib o‘til-di. Shunda u zot o‘rinlaridan turdilar. Odamlar: «Yo Rasululloh, bu yahudiyning janozasi», deyishdi. U kishi: «U inson emasmi?!» dedilar». Demak, islom dinida millati va dinidan qat’i nazar har bir inson hurmat va qadru qimmatga ega.

Ming yillar davomida islom dini tamoyillarga sodiq holda yashab kelayotgan xalqimiz ham bu kabi go‘zal fazilatlarini to‘laligicha hayoti, urf-odat va an‘analariga singdirib olganini ko‘rish mumkin.

Boy tarixiy tajribaning davomi sifatida bugungi kunda ham yurtimizda bir yuz o‘ttizdan ortiq millat va elat vakillari va o‘ndan ortiq diniy konfessiyaga e‘tiqod qiluvchi shaxslar bir oila farzandlaridek ahil-inoq bo‘lib yashab kelmoqdalar. Ularning urf-odatlarini, an‘ana va qadriyatlarining rivojlanishi, ta‘lim olishi, kasb-hunar egallashi, jamiyat hayotining barcha jabhalarida faoliyat ko‘rsatishida mamlakatimizdagi tinchlik va barqarorlik, millatlararo totuvlik, ayniqsa, tinchliksevar xalqimizning bag‘rikengligi muhim omil bo‘lmoqda.

Bu borada yurtimizda istiqomat qilayotgan turli din vakillari uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi, ayniqsa, diniy bag‘rikenglikka doir qoidalarning qonuniy asoslarda mustahkamlanishi tahsinga sazovor. Bu borada eng avvalo, Konstitutsiyamizning 31-moddasida mustahkamlangan «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi», degan qoida diniy bag‘rikenglik uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu tamoyilga ko‘ra, har kim o‘z dini va e‘tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog‘i lozim. Bir kishining din

borasidagi qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

Bundan tashqari, Konstitutsiyamizning 18-moddasida ham «O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart», degan norma asosida turli diniy e‘tiqoddagi insonlarning dini va e‘tiqodidan qat’i nazar qonun oldida teng ekanligi e‘tirof etilgan.

Konstitutsiyamizning 61-moddasida esa, respublikamizda faoliyat olib boruvchi diniy tashkilotlar va birlashmalarning davlatdan ajratilgani haqidagi qoida mustahkamlangan. Unda aytilishicha, «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi». Bu qoidaning mohiyati shundaki, O‘zbekistonda har qanday din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan va barcha diniy konfessiyalar qonun oldida barobardir. Davlat diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo‘llab-quvvatlaydi hamda ular o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatilishiga ko‘maklashadi.

Hukumatimiz tomonidan turli diniy tashkilotlarning o‘z faoliyatlarini amalga oshirish va mamlakat hayotida faol ishtirok etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berildi. Jumladan, markaziy televideniye orqali O‘zbekiston musulmonlari idorasi ma’naviy-ma’rifiy ko‘rsatuvlarni berib borishi, Buxoriy, Termiziy, Moturidiy kabi mashhur allomalarning tavalludiga bag‘ishlangan anjumanlarning keng ko‘lamda nishonlanishi kabi tadbirlarni aytib o‘tish o‘rinlidir. Ayniqsa, haj ibodatini to‘la-to‘kis va hamjihat holda ado etish uchun barcha sharoitlar yaratilgani tahsinga sazovor.

O‘z navbatida pravoslavlar uchun Isroil, Gretsiya va Rossiya, katoliklar uchun Isroil va Italiya, armanlar uchun Isroil va Armaniston, yahudiylar va bahoiylar uchun Isroil, krishnachi-

lar uchun Hindiston va buddaviylar uchun Koreyada joylashgan muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil qilinmoqda.

Bu esa, yurtimizda yashayotgan barcha din vakillarining o‘z diniy e‘tiqodlarini emin-erkin amalga oshirishlari va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlashga qaratilayotgan tadbirlar jumlasiga kiradi. Quvonarli jihati shundaki, bu tadbirlar diniy barqarorlik, konfessiyalararo samimiy va do‘stona muhitning vujudga kelishi va eng asosiysi yurtimizdagi tinchlikning barqaror bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.

### **Nazorat savollari:**

1. Islom dinining tinchlikparvarlik mohiyatini ochib bering.
2. Islom dinining muqaddas manbalarida ilm olishning fazilati va olimlarning darajasi haqida nimalar deyilgan?
3. «Bag‘rikenglik» va «diniy bag‘rikenglik» deganda nima tushuniladi?
4. O‘zbekistonda millatlar va dinlararo bag‘rikenglik borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Tinchlikni asrash — muqaddas burch. / Mas‘ul muharrir A.Ochildiyev. — Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. — 32 b.
2. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo‘llari. / A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuxeamedov, U.G‘afurov, J.Karimov. — Toshkent: Movarounnahr, 2013. — 160 b.
3. Diniy bag‘rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga-yuz javob). / Mas‘ul muharrir O.Yusupov. — Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. — 156 b.
4. Hasanboyev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari. — Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. — 552 b.

#### **4-mavzu. EKSTREMIZM VA TERRORIZM – JAMIYAT BARQARORLIGIGA TAHDID**

1. Ekstremizmning musulmon dunyosi uchun xavfi.
2. Ekstremizm va terrorizmning mudhish qiyofasi.
3. Terrorizmning moliyaviy manbalari.
4. Musulmon mamlakatlarning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashi.

*Tayanch soʻz va iboralar:* xalqaro islom tashkilotlari, noqonuniy qurol-yarogʻ savdosi, narkobiznes, majburiy badal, tabarruhot, kid-neping, qarshi kurash strategiyasi.

**Ekstremizmning musulmon dunyosi uchun xavfi.** Hozirgi kunda islom omili tobora katta kuchga aylanmoqda. U davlatlarning ichki va tashqi siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, davlatlararo va xalqaro munosabatlarga taʼsir etib kelmoqda. Siyosatchilar musulmon olamiga dunyo hamda xalqaro munosabatlar istiqboliga taʼsir koʻrsatuvchi kuch sifatida qaramoqdalar. Islom omilining kuchayishida musulmon mamlakatlari hududlarining kattaligi, yaʼni joʻgʻrofiy-strategik imkoniyatlarining ham oʻziga xos oʻrni bor.

Bugungi kunda dunyodagi taxminan 1,7 milliard musulmon aholining 92,5 foizini sunniylar tashkil etib, ular mazhablar boʻyicha quyidagi nisbatda boʻlinadilar: hanafiylar – 49% (Turkiya, Pokiston, Hindiston va h.k.), shofiiylar – 25% (Misr, Indoneziya, Suriya va h.k.), molikiylar – 17% (Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya va h.k.), hanbaliylar – 1,5% (Saudiya Arabistoni va h.k.). Shuningdek, shialik tarqalgan mamlakatlar (Eron, Iroq, Yaman va h.k.)ning huquqiy hayotida jahfariylik mazhabi oʻz mavqeyini maʼlum darajada saqlab kelmoqda. Oʻrta Osiyoda, xususan, Oʻzbekistonda hanafiylik mazhabi keng yoyilgan.

Musulmonlarning uchdan ikki qismidan koʻprogʻi Osiyoda, 30 foizga yaqini Afrikada yashaydi. Dunyodagi musulmon jamoalari mavjud boʻlgan 120 dan ortiq mamlakat boʻlsa, shundan 40

dan ortig'ida musulmonlar aholining ko'pchiligini tashkil qiladi. Jumladan, Indoneziyada 218 million, Pokistonda 183 million, Bangladeshda 154 million, Nigeriyada 120 million, Eron va Turkiyada 75 milliondan, Misrda 80 million, Marokashda 32 million, Jazoirda 38 milliondan, Saudiya Arabistonida 30 milliondan ortiq musulmon istiqomat qiladi. Hindistondagi musulmonlarning soni 250 milliondan ortgan. Bulardan tashqari, Ozarbayjon hamda Rossiyaning Tatariston, Boshqirdiston, Checheniston, Ingushetiya, Kabardin-Balqar kabi respublikalarida 30 million, Markaziy Osiyo davlatlarida 55 million musulmonlar tashkil etishini qayd etish lozim.

Musulmon mamlakatlari neft, gaz va boshqa tabiiy resurslarning ulkan zaxiralariga ega. G'arb dunyosining Yaqin va O'rta Sharqdagi uglevodorod resurslariga bo'lgan bog'liqligi yaqin istiqbolda ham saqlanib qoladi. Buni anglagan musulmon davlatlari tabiiy resurslardan maksimal ravishda foydalanib, o'z iqtisodiyotlarini rivojlantirishga harakat qilmoqdalar. Bir qator musulmon mamlakatlarida chet eldan yangi qurol-yarog' sotib olish hamda zamonaviy harbiy infratuzulma yaratish orqali o'zining harbiy kuch-qudratini oshirish, hatto ommaviy qirg'in quroliga ega bo'lishga intilish jarayonlari ham tobora kuchayib bormoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida ekstremizm va undan oziqlanayotgan hamda diniy shiorlar bilan niqoblangan terrorizm ana shu mintaqalar va mamlakatlar hayotiga birdek tahdid solmoqda. Keng ko'lam va xilma-xil ko'rinishlar kasb etayotgan ushbu tahdidga qarshi kurash nafaqat musulmon mamlakatlari, balki butun dunyo uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Dastlab saltanat sohiblari va davlat arboblari qarshi qurolli hujumlar shaklida paydo bo'lgan siyosiy terrorizmni bugun har qadamda uchratish mumkin. XX asrning 60-yillaridan boshlab, dunyodagi butun-butun mintaqalari turli-tuman terrorchilik tashkilotlarining o'chog'iga aylana boshladi.

Ekstremizm va terrorizm odamlarning ertangi kunga bo'lgan ishonchiga putur yetkazibgina qolmasdan, turli diniy e'tiqod va-

killari bo'lgan xalqlar, hattoki, sivilizatsiyalar orasidagi o'zaro ishonchga ham soya tashlamoqda, jahon taraqqiyotining tamal toshi bo'lgan xalqaro iqtisodiy va madaniy hamkorlikning rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozir dunyoda 600 ga yaqin terrorchi tashkilotlar mavjud bo'lib, ularning 80 foizi islom niqobi ostida faoliyat yuritadi. Ekspertlarning fikricha, dunyoda faoliyat ko'rsatayotgan terrorchilik tashkilotlarining yuzdan oshig'i eng zamonaviy qurollar bilan yaxshi ta'minlangan yirik uyushmalardan iborat. Ular turli qo'poruvchiliklarni sodir etish jarayonida o'zaro hamkorlik qiladilar, ma'lumotlar almashadilar, zarur hollarda, bir-birlariga harbiy, moliyaviy va boshqa shakldagi yordamni ko'rsatadilar. Bunday tashkilotlarning eng yiriklari qatoriga «Musulmon birodarlar», «al-Jihad al-Islomiy», «al-Jamaat al-Islomiya», «at-Takfir val-hijra» (Misr), «Abu Sayyof» (Filippin), «Ozod Achex» va «Lashkari jihod» (Indoneziya), «Qurolli islomiy harakat» (Jazoir), «al-Qoida», «Boko haram», «Iroq va Shom islom davlati», «Jabhat an-nusra» kabilarni kiritish mumkin.

BMTning G'arbiy Osiyo bo'yicha Iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasining bergan ma'lumotlariga ko'ra, Yaqin Sharq mamlakatlari «Arab bahori» natijasida ko'rgan zarari 614 milliard AQSH dollari yoki hududning 6% yalpi ichki mahsulotiga teng bo'ldi. Ushbu natijalar 2011–2015-yillar doirasida hisoblandi. Birgina Suriya davlatining o'zi ko'rgan iqtisodiy zarari 259 milliard AQSH dollariga teng bo'ldi.

2000-yildan 2016-yilga qadar dunyoda 72 ming 135 ta terrorchilik harakatlari sodir etilgan. Ularning 55% to'rtta davlat – Iroq, Pokiston, Afg'oniston va Hindiston hududida amalga oshirilgan. 169 ming 572 nafar odam terrorchilik harakatlari qurboniga aylandi. 260 ming 684 nafar odam jarohat oldi.

2015-yili dunyodagi 163 ta mamlakat ichida 92 ta davlat terrorchilik harakatlaridan zarar ko'rdi. Ulardan Afg'oniston, Suriya, Pokiston, Iroq, Nigeriya va Yaman davlatlari terrorchilik harakatlaridan eng katta zarar ko'rgan hududlar bo'ldi.

2015-yili terrorchilik harakatlari natijasida halok bo'lgan odamlar soni 29 ming 376 tani tashkil etdi. Ularning eng ko'pi, ya'ni 11 ming 900 nafari Iroq, Nigeriya va Afg'oniston davlatlariga to'g'ri keldi. Boshqa davlatlarda esa halok bo'lgan odamlar soni 2014-yilga nisbatan 14% ga oshdi, ya'ni 17 ming 476 nafarni tashkil qildi.

Umuman olganda, o'tgan asrning 90-yillarining boshlarida ko'tarilgan va zo'rvonliklar zanjirini vujudga keltirgan din niqobidagi ekstremizm to'lqini hamon musulmon dunyosida real xavf sifatida saqlanib qolmoqda.

**Ekstremizm va terrorizmning mudhish qiyofasi.** Jamiyat taraqqiyotiga muqobil ravishda ekstremizm va terrorchilik bilan bog'liq jinoyatlar sifat va miqdor jihatidan o'zgarib, uning masshtab doirasi tobora kengayib bormoqda. Shuningdek, terrorchilar sodir etayotgan jinoyatlarning intensivligi va og'irlik darajasi ham kun sayin dahshatli tus olayotgani juda achinarli holdir. Bu esa insoniyat xavfsizligi va dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga tahdid hamon saqlanib qolayotganidan dalolat beradi. Ekstremizm aqidaparastlik va mutaassiblik bilan bog'liq bo'lib, din sohasidagi salbiy hodisalarning o'ziga xos mantiqiy halqasi hisoblanadi.

Ekstremistik harakatlar o'zlarining g'ayriinsoniy g'oyalari bilan odamlar ongini egallash, diniy shiorlardan foydalangan holda ularni chalg'itish, jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishish maqsadlarini ko'zlaydilar. Buzg'unchilik esa ular o'zlari jar solayotgan, o'zlari intilayotgan mazmun-mohiyati va shaklu shamoyili noma'lum bo'lgan jamiyatga erishishning yo'li sifatida chiqadi. Ekstremistik tashkilotlar kurashning terrordan boshqa yo'lini rad etishi, jangariligi hamda yuqori darajada ijtimoiy xavfliligi bilan ajralib turadi.

O'tgan asrning 70-yillari oxiriga kelib, Afg'oniston ekstremizm va fundamentalizmning eng yirik o'chog'iga aylana boshladi. Ushbu mamlakatdagi siyosiy beqarorlik tufayli turli mamlakatlardan o'zining xunuk qilmishlari uchun badarg'a bo'lgan qora



kuchlar Afgʻonistonga oqib keldilar va mustahkam oʻrnashib oldilar. «Tolibon» nomi bilan atalgan ekstremistlar ularga boshpana berdilar. Afsuski, ayrim yirik davlatlar ham oʻzlarining shubhali geosiyosiy manfaatlarini roʻyobga chiqarish ilinjida Afgʻonistondagi radikal guruhlarni amalda qoʻllab-quvvatladilar. Natijada, ushbu mamlakat ekstremizm va terrorizmning haqiqiy oʻchogʻiga aylandi. Bu hol nafaqat uning, balki unga tutash mamlakatlarining xavfsizligiga ham tajovuz solgan.

Bugungi kunda diniy shiorlarni oʻziga bayroq qilib olgan ekstremistik oqimlar kishilarni garovga olish, turli qiynoqlarga solish va hattoki, shafqatsiz uslublarda qatl etishdek mudhish ishlarga qoʻl urmoqdalar.

XXI asr boshlarida mazkur harakatlar yanada avj olayotganini koʻrishimiz mumkin. Ekstremizmni oʻziga qurol qilib olgan terrorchilarning butun dunyo nafratini qoʻzgʻatgan 2001-yilda sodir etgan vahshiyliklari bashariyat tarixidagi eng mashʼum sahifalardan boʻlib qolishiga hech kim shubha qilmaydi. Jumladan, 2001-yilning 11-sentyabrida turli reyslar bilan AQSHning Nyu-York, Boston va Vashington shaharlaridan uchgan toʻrtta «Boing-757» samolyoti 18 nafar terrorchi tomonidan egallab olinib, ularning ikkitasi Nyu-Yorkdagi Xalqaro Savdo Markazi joylashgan «egizak» binolarga, bittasi esa AQSH qurolli kuchlari shtabi – Pentagonga yoʻnaltirildi. Yana bir samolyot Pensilvaniya shtatidagi Shanksvill rayoniga qulab tushdi. Oqibatda 2974 kishi hayotdan koʻz yumdi shu bilan birga 18 ta terrorchi, 10 mingdan ziyod kishi jarohatlandi.

2003-yil 13-noyabrda Turkiyaning Istanbul shahrida joylashgan ikki sinagoga (yahudiylar ibodatxonasi) yonida portlovchi moddalar bilan toʻldirilgan mashinalar portlatilib yuborilgan. Natijada 25 kishi halok boʻldi va 300 nafar shaxs jarohatlandi.

2004-yilning 11-martida Ispaniyaning Madrid shahridagi 4 ta temiryoʻl bekatida umumiy hisobda 6 ta portlatish amalga oshirildi. Natijada, 200 ga yaqin kishi halok boʻldi va 1500 dan ziyod kishi jarohatlandi.

2005-yil 7-iyulda Buyuk Britaniyaning London shahri metrosida bir qancha terrorchilik harakatlari amalga oshirildi. Natijada 56 kishi qurbon bo‘ldi va 700 nafar kishi turli darajada jarohat oldi. 2005-yil 5-noyabrda Iordaniyaning Ammon shahrida portlatishlar amalga oshirildi. Buning oqibatida 67 begunoh inson hayotdan ko‘z yumdi va 295 shaxs jarohatlandi.

2008-yil 26-noyabrdan 29 noyabrgacha «Dekkan Mujohidin» ekstremistik tashkiloti tomonidan Mumbay (Hindiston)dagi «Toj Mahal» mehmonxonasi, shahar shifoxonasi va «Yahudiylar markazi»ga uyushtirilgan terrorchilik xurujlari oqibatida 195 kishi halok bo‘lgan, mingga yaqin kishi og‘ir tan jarohati olgan.

2013-yil 21-sentyabrda Keniya poytaxti Nayrobida joylashgan «Vestgeyt» savdo markaziga Somalidagi «ash-Shabab» tashkiloti jangarilari qurolli bosqinni amalga oshirib, nafaqat boshqa din vakillari, balki islom ta‘limotlarini to‘liq bilmagan musulmonlarni ham qiynoqqa solishgan.

Natijada, 70 ga yaqin inson hayotdan ko‘z yumib, 200 dan oshiq insonlar tan jarohati olishgan.

2014-yil 26-noyabr kuni «Boko Xaram» terrorchi guruhi Nigeriyaning Borno shtatidagi ikkita qishloqqa hujum qilib, vayronaga aylantiradi. 20 dan ortiq kishi vafot etadi.

2015-yil 10-oktyabr kuni Turkiyaning poytaxti Anqarada portlash sodir bo‘ladi. Terakt oqibatida 95 kishi vafot etadi, 246 kishi jarohat oladi.

2015-yil 31-oktyabr kuni Sinay yarimorolida (Misr) Sharm al-Shayxdan Sankt-Peterburg shahriga uchgan samolyot halokatga uchraydi. Mazkur halokat rasmiy ravishda terakt deb baholandi. Unda 224 kishi vafot etdi.

2016-yil 22-mart kuni Belgiya poytaxti aeroportida ikkita, so‘ngra, Yevroparlament binosi yaqinidagi metro stansiyasida yana ikkita portlash sodir etildi. 30 dan ortiq inson vafot etdi, 130 dan ortiq kishi jarohatlangan.

2016-yil 14-iyul kuni Fransiyaning Nitssa shahrida mamlakatning milliy bayrami – Bastiliya kunini nishonlash paytida mud-

hish terakt sodir etildi. Falokat oqibatida 84 kishi halok bo‘ldi, yuzdan ortiq odam jarohatlandi.

Yuqoridagi holatlar bunday harakatlarning ko‘lami kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Ma‘lumki, tinchlik – urush va nizolarga barham berish orqaligina ta‘minlanadi. Afsuski, turli qarama-qarshilik va ziddiyatlarni keltirib chiqarish yo‘li bilan o‘z maqsadlariga erishishni ko‘zlaydigan kuchlar bor ekan, sun‘iy ravishda nizoli vaziyatlarni vujudga keltirishga qaratilgan harakatlar ham to‘xtamaydi. Bunga 2011–2016-yillarda ba‘zi arab mamlakatlarida ro‘y bergan va hamon davom etayotgan siyosiy inqirozlar oqibatida yuzaga kelgan qonli to‘qnashuvlar misol bo‘la oladi. Mazkur ommaviy tartibsizliklar tufayli Tunisda 300 nafar, Misrda 800 nafar, Liviyada 14 ming nafar, Suriyada 250 mingga yaqin kishi halok bo‘lgan. Ayniqsa, Suriyaning kelajagi qanday bo‘lishini hozirgi kunda hech kim bilmaydi. Ilgari gullab-yashnagan musulmon mamlakati uchun besh yil davom etgan qonli urushlar juda ayanchli yakun topmoqda – har elliginchi suriyalik halok bo‘ldi, har ikkinchisi esa qochoqlikda. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, 2011-yili Suriyada 21 million aholi istiqomat qilgan. Besh yil ichida esa 250 minggi halok bo‘ldi. Agar halok bo‘lgan, yaralangan va boshqa davlatlarga qochishga majbur bo‘lgan suriyaliklarning umumiy soni birlashtirilib chiqilsa, unda Suriya o‘z aholisining deyarli to‘rttdan bir qismini yo‘qotganligi aniqlanadi. Ikkinchi Jahon urushidan keyin Suriyadagi mojarolar eng qonli urushlardan bo‘ldi.

Yaqin Sharq va G‘arbdagi ayrim davlatlarning Suriya davlatining ichki ishlariga aralashishga harakati hamda rasmiy davlat rahbarini ag‘darib tashlashga intilishlari oqibatida nafaqat qonli to‘qnashuvlar sodir bo‘ldi, balki dunyo tarixida ilk bor «terrorchilar davlati»ning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Bugun Yaqin Sharqdagi bir necha terrorchi guruhlarini birlashtirgan «Iroq va Shom islom davlati» (IShID) tashkiloti butun dunyoga xavf solmoqda. Ammo, Suriyadagi mojarolarning ilk davrlarida ushbu tashkilot Shom (Suriya) hududida «xalifalik» qurishga chaqira-

yotgan uncha katta bo'lmagan diniy ekstremistik guruhlarining koalitsiyasi sifatida ma'lum bo'lgan edi.

Mamlakatning ko'plab yerlaridagi hokimiyat organlaridagi bo'shliqlar va ma'lum davlatlarning yordamida «IShID» bir necha oy ichida dunyo hamjamiyatiga tahdid soluvchi, ko'p minglab terrorchilarga ega bo'lgan yirik jangari guruhga aylandi.

Birgina, 2015-yili «IShID»ning terrorchilik harakatlari natijasida 6 ming 141 kishi halok bo'ldi. Bu guruh har bir terrorchilik bosqinida 6,4 ta odam o'limiga sabab bo'ldi. Iroq hududida sodir bo'lgan terrorchilik harakatlari oqibatida halok bo'lganlarning 62% «IShID»ga to'g'ri keldi. Bu guruh zarar keltirgan davlatlar soni 28 ga yetdi.

Ekstremizm va terrorizmning mudhish qiyofalaridan yana biri sifatida 2015-yil fevral oyida aynan «IShID» jangarilari tomonidan Mosul markaziy kutubxonasi portlatilib, 10 mingdan ziyod noyob kitoblar yo'q qilinganini aytish mumkin. Kutubxona hovlisida terrorchilar qo'lyozma va bosma kitoblarni jamlab, gulxan yoqishdi. Shuningdek, «IShID» jangarilari Mosul shahri muzeyi eksponatlarini ham yo'q qilishdi. 2015-yil 4-martda «IShID» tomonidan Nimrud shahri qadimgi ossuriy binolari va haykallarini buldozerlar yordamida yer bilan yakson qilindi. O'sha yili 7- va 8-mart kunlari jangarilar tomonidan qadimgi Xatra shahri xarobalari hamda Dur-Sharruqin shahri, shuningdek, avgust oyida Suriyaning Palmira (Tadmur)dagi qadimiy Baalshamina va Bela ibodatxonalari ham vayron qilindi.


Yuqorida keltirilgan misollardan ekstremistik harakatlar faqat islom bayrog'i ostida amalga oshirilmoqda, degan xulosaga kelmaslik lozim. Chunonchi, nafaqat islom, balki xristian dinining ba'zi sektalariga asoslangan ko'plab diniy ekstremistik harakatlar ham mavjud. Xususan, «Iyegovochilar», «Pyatidesyatniklar», «Tashabbuskor baptistlar» faolligini alohida qayd etish o'rinli. Masalan, «Tashabbuskor baptistlar» umuman na qonuniy hokimiyat va na dunyoviy qonunlarni tan olmaydi, ularning fikricha, cherkov davlatdan yuqori turadi.

«Pyatidesyatniklar»ning baʼzi vakillari esa, oʻz safdoshlarini oʻta shafqatsizlik bilan ado etiladigan ibodatlariga zoʻrlaydi va dunyo neʼmatlaridan batamom voz kechib, tarkidunyochilik bilan yashashga daʼvat etadi. Dunyoning turli hududlarida sodir boʻlayotgan bu kabi mudhish voqealar oqibatida aziyat chekayotgan begunoh kishilar turli millat va din vakillari sanaladi.

Xulosa oʻrnida shuni qayd etish lozimki, ekstremizm va terrorizmni na dini, na millati va na Vatani bor. Bu kabi harakatlarning kishilik jamiyatining nafaqat buguniga emas, balki istiqboliga ham jiddiy tahdid solayotgan omilga aylangani, insoniyat unga qarshi bir butunlikda kurashgandagina ijobiy natijalarga erishishi mumkinligini koʻrsatadi.

**Terrorizmning moliyaviy manbalari.** Zamonaviy terrorizm xilma-xil moliyaviy manbalardan oziqlanishi hisobiga faoliyat qamrovini kengaytirishga, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga harakat qilmoqda. Terrorchi tashkilotlarni oziqlantirib turuvchi asosiy moliyaviy manbalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

Ayniqsa, noqonuniy qurol-yarogʻ savdosi va narkobiznes yordamida mablagʻlar toʻplash va undan tartibsizlik va beqarorlikni keltirib chiqarishda foydalanish ekstremistlarning asosiy yoʻli hisoblanadi.



Demak, ekstremistik va terrorchi kuchlarning moliyaviy manbalariga qarshi hamkorlikda kurash olib borish ham dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Zero, terrorchilarga moliyaviy madad kuchlari yetib kelishda davom etar ekan, ularga qarshi olib borilayotgan kurash natija bermaydi. Bu yoʻlda amalga oshirilishi lozim boʻlgan eng muhim vazifalardan biri giyohvandlikka qarshi hamkorlikda kurashish. Chunki terrorchi kuchlarning asosiy moliyaviy taʼminoti giyohvandlik ortidan keladigan daromad bilan ham bogʻliq. Hozirgi kunda butun yer sharida yetishtirilayotgan giyohvand vositalarning asosiy qismi Afgʻonistonga toʻgʻri kelmoqda. Afgʻonistonda yiliga 200 ming gektarga yaqin maydonga koʻknori ekilib, 800 tonnaga yaqin heroin butun dunyoga tarqatilmoqda. Afgʻonistonda faoliyat yuritayotgan «Tolibon» harakati jahonda ishlab chiqariladigan afyunning 80 foizini oʻz nazorat ostiga olgan boʻlib, undan tashkilot juda katta daromad koʻrmoqda. Bugungi kunda giyohvandlik iskanjasiga tushganlarning aksariyat qismi 15–35 yosh orasida boʻlgan yigit-qizlar boʻlib, maʼlumotlarga koʻra ularning soni 200 millionga yetadi.

Xalqaro valyuta fondining 2006-yildagi maʼlumotlariga koʻra, dunyoning turli mintaqalaridagi narkokartellar uyushgan jinoyatchilik va xalqaro terrorizmni moliyalashtirishga har yili 500 milliondan to 1,5 milliard dollargacha mablagʻ sarflamoqda.

BMT ekspertlari oʻtkazgan tadqiqotlar xulosalariga koʻra, jahonda har yili taxminan 100 ming narkoman vafot etmoqda. Statistik maʼlumotlar bugungi kunda narkobiznes savdosidan tushadigan daromad yiliga 400 milliard dollarni tashkil etishini koʻrsatadi. Yer yuzi boʻylab bunday illatning tarqalishida diniy ekstremistik guruhlarning ham oʻziga xos hissasi bor. Birgina «al-Qoida» tashkiloti oʻz moliyaviy mablagʻlarining 40 foizdan ortiqrogʻini narkobiznes orqasidan topishi ham soʻzimizning isboti boʻla oladi. Shubhasiz, bu yetishtirilayotgan giyohvand vositalarni Markaziy Osiyo mamlakatlari hududi orqali boshqa mintaqalarga tarqatishga harakat qilinmoqda.

Ekstremistik tashkilotlarda aʼzolar tomonidan oylik daromaddan majburiy badal («baytulmol» yoki «tabarruhot») toʻlashning yoʻlga qoʻyilgani ham terrorchilik amaliyotlarini moliyaviy oziqlantiruvchi manba boʻlib xizmat qilmoqda. Xususan, «Hizbut-tahrir» aʼzolari orasida oylik daromadidan 5–20 foiz majburiy badal toʻlashi yoʻlga qoʻyilgan. Mutaxassislar fikriga koʻra, bunday shakllarda yigʻilgan pullar qoʻporuvchilik harakatlarini amalga oshirish, terrorchilarni tayyorlash lagerlarini moddiy qoʻllab-quvvatlash uchun sarflangan. Masalan, 2002-yilda Germaniyada «rizbut-tahrir» diniy-ekstremistik tashkiloti tomonidan mahalliy musulmonlardan yigʻilgan «tabarruhot»lar chet mamlakatlardagi terrorchilik amaliyotlarini moliyalashtirishga yoʻnaltirilgani fosh etilgan. Shuningdek, 2007-yilda Pokistonda turli yoʻllar bilan yigʻilgan xayriya pullarini «al-Qoida»ga qurol-yarogʻ sotib olishga sarflagani uchun tashkilotning barcha hisob raqamlari muzlatilgan.

Terrorchi guruhlar hozirda oʻz moliyaviy manbalari bilan bank tizimi imkoniyatlari va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan murakkab aloqa tizimlarini shakllantirishga harakat qilmoqda. Natijada, ushbu manbalarni aniqlash va yoʻq qilish tobora qiyinlashib bormoqda.

Dunyoning koʻpgina davlatlari, jumladan, Oʻzbekistonda ham terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash haqidagi maxsus qonunlar qabul qilingan. Mazkur yoʻnalishda xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT Xavfsizlik Kengashining terrorchi shaxslar hamda tashkilotlarga tegishli dunyo banklaridagi hisob raqamlarini «hibsga olish»ga bagʻishlangan 1333, 1390 va 1455-qarorlari deyarli barcha davlatlar tomonidan ijro etilmoqda.

**Musulmon mamlakatlarining ekstremizmga qarshi kurash tajribasi.** Din niqobidagi ekstremizm va u bilan bogʻliq terrorizm dunyoning 15 dan ortiq mamlakatlariga alohida tahdid solmoqda. Yer kurrasining turli qitʼalarida joylashgan bunday mamlakatlarni shartli tarzda bir necha guruhga boʻlish mumkin.

Birinchi guruhga mansub Shimoliy Afrikada joylashgan ayrim arab mamlakatlari, jumladan, eng katta arab davlati boʻlgan Misr

Arab Respublikasi uchun ekstremizm bilan bogʻliq terrorchilik harakatlari haqiqiy muammoga aylandi. 1970–1980-yillarda bunday jarayon Tunisni ham qamrab oldi. Mazkur mintaqada joylashgan yana bir arab davlati – Jazoiridagi diniy-ekstremistik tashkilotlarning qoʻporuvchilik faoliyati tufayli oʻn minglab begunoh insonlar halok boʻlgan boʻlsa, radikal oqimlar Sudanda ichki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning mutlaqo izdan chiqishiga, Darfur mintaqasini dunyoning eng fojiali nuqtalaridan biriga aylanishiga sabab boʻldi.

Ikkinchi guruhga Osiyo qitʼasida joylashgan yana bir necha arab davlatlarini kiritish mumkin. Turli-tuman siyosiy, iqtisodiy va diniy-mafkuraviy sabablarga koʻra, Falastin hududlari, Suriya, Iroq Respublikasi ekstremizm bilan bogʻliq terrorchilik harakatlaridan katta talafot koʻrmoqda.

Ayniqsa, Suriya davlatining iqtisodiyotiga 5 yillik urush 255 milliard AQSH dollari miqdorida zarar keltirdi.

Mamlakatning oʻnlab shaharlaridagi 2 milliarddan ziyod bino va inshootlar poydevorigacha yoʻq qilingan, neft-gaz qazib chiqaruvchi quvvatlarning koʻp qismi «IShID» jangarilari qoʻlida qolmoqda. Shu sababli, 85% suriyaliklar qashshoq holatga tushib qolgan. BMT maʼlumotlariga koʻra, Suriyani tiklash uchun yiliga 100 milliard AQSH dollari lozim boʻladi. Shundan keyingina 9 yil ichida davlat 2010-yilgi darajaga chiqishi mumkin. Suriyaning sobiq Bosh vaziri va hozirda BMTning iqtisodiy va ijtimoiy Komissiyasi ijroiya kotibining oʻrinbosari boʻlgan Abdulloh al-Dardoriy aytishicha, 2010-yili Suriyaning yalpi ichki mahsuloti 62 milliard AQSH dollariga teng boʻlgan. Ammo, fuqarolar urushidan soʻng yalpi ichki mahsuloti 27 milliard AQSH dollariga tushib ketgan.

Faqatgina ishlab chiqarish maydonlarining oʻzi 90% vayron qilingan. Turar-joy binolarining yarmi esa buzib tashlangan.

Ekstremistik faoliyatning uchinchi oʻchogʻi janubi-sharqiy Osiyo mintaqasida joylashgan deyish mumkin. Ushbu xatarning olovli nafasi, ayniqsa, Pokiston, Indoneziya, Malayziya hamda Hindiston va Filippinning ayrim hududlarida oʻzining halokatli



oqibatlarini namoyon etmoqda. Boshqacha aytganda, qadim-qadimlardan buddaviylik, hinduiylik, islom va boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilar tinch-totuv yashab kelgan ulkan hududda ham ekstremizmning qo'poruvchilik salohiyati o'zini ko'rsatmoqda.

Islom mafkura sifatida musulmonlarni birlashtiruvchi kuchli omil bo'lib kelgan. Asrlar davomida turli ijtimoiy tabaqalar va millatlarni qamrab olishi natijasida islom bugungi kunda o'z rivojlanishida katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Islom dini doirasida yuzaga kelgan turli qarama-qarshiliklar oqibatida jangari millatchilik va ekstremizmga asoslangan siyosiy kuchlar va ittifoqlar paydo bo'lmoqda. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash olib borishda kompleks va tizimli, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy chora-tadbirlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Albatta, bunday chora-tadbirlarni qo'llash katta vaqt, tegishli reja va yirik mablag'lar talab qiladi.

Ekstremizmga qarshi kurashda xalqaro birdamlik va kelishuvlar ham katta ahamiyatga ega. Xususan, o'z hududida diniy ekstremistlar va terrorchilar faoliyatiga yo'l ochib bermaslik, ularga yordam ko'rsatmaslik va siyosiy boshpana bermaslik hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Arab-musulmon davlatlari ichida Misr Arab Respublikasi birinchi bo'lib terrorizm muammosiga 1940-yillarda, «Musulmon birodarlar»ning o'z faoliyatida ishontirish usullaridan radikal terrorchilikka – davlat, politsiya va armiyaning ko'zga ko'ringan arboblarni jismonan yo'q qilish yo'liga o'tishi natijasida duch keldi. Ushbu davlatning diniy mutaassiblikka qarshi kurashdagi bir necha o'n yillik tajribasi radikal diniy guruhlariga xayrixohlik bilan qarash, ularni pinhona rag'batlantirish ekstremistik harakatlarning yanada faollashuviga, yangilarining paydo bo'lishiga imkon yaratishini ko'rsatadi.

Musulmon mamlakatlarining ekstremizmga qarshi kurash strategiyasi umuman olganda, har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlaridan qat'i nazar, bilvosita va bevosita qarshilik ko'rsatish usullarini o'z ichiga oladi.

Bilvosita choralarga rasmiy diniy tashkilotlar bilan hamkorlik, zo'rvonlikka qarshi kurashda diniy arbob va muassasalarning ahamiyatini oshirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradigan dasturlarni kiritish mumkin. Bevosita qarshilik ko'rsatish o'z ichiga huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan ko'riladigan choralarni, aksiterrorchilik qonunlarini qabul qilish, ulardan keng foydalanish kabi tadbirlarni oladi. Shu o'rinda, masalan, Misr qonunchiligi diniy asosda partiyalar tashkil etishni taqiqlashini ta'kidlash joiz. Bundan tashqari, davlat noqonuniy ravishda qurol saqlaganlar, zo'rvonlikni targ'ib etuvchilar, radikal guruhlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlovchilarga nisbatan qattiq ma'muriy-jinoiy choralarni qo'llashini ham qayd etish lozim.

1990-yillarda zo'rlik va terror harakatlarining kuchayishi esa Misr hukumatini «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonun kabi bir qator yangi huquqiy hujjatlarni qabul qilishga majbur qildi. Bunday maxsus qonunning qabul qilinishi xavfsizlik idoralarga ko'proq erkinlik berish va ular olib borayotgan faoliyatning samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq edi.

Musulmon mamlakatlari ekstremizm va zo'rvonlik muammolarini ilmiy va keng qamrovda yechish bo'yicha amaliy ishlarni tashkil etmoqda. Jumladan, ilmiy-tekshirish institutlari va strategik markazlarda bu muammoning ilmiy-tizimli tahliliga katta e'tibor berilmoqda. Bu jarayonda har bir mamlakatda muayyan o'ziga xosliklar kuzatilishi, tabiiy, albatta. Masalan, Indoneziyada ekstremizmga qarshi olib borilayotgan kurashda ekstremistlarning yirik vakillari, jumladan, qamoqda bo'lgan Abu Bakar Bashir tomonidan tashkil etilgan «islom maktablari»ni yopish choralari ko'rilayotgani bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, 2002-yilda Bali orolida sodir etilgan va 200 dan ortiq kishining umrini xazon qilgan portlashlarning tashkilotchilaridan biri Imom Samudra tomonidan yozil-

gan va jangarilik g'oyalariга boy bo'lgan kitoblarni bosish va tarqatish man etilganini ham qayd etish zarur.

Bunday harakatlar hozirda hukumat va ulamolarning ekstremizmga qarshi birgalikda olib borayotgan ishlari-ning bir qismi sifatida qaralmoqda. Umuman olganda, Indoneziyada «Politsiya ishtirokida kuchga va musulmon ulamolarning faol ishtirokida mafkuraga tayanib ish olib borish – ekstremizmga qarshi kurashning ikki fronti» sifatida e'lon qilinganini ta'kidlash lozim. Radikal qarashlarga qarshi kurash bo'yicha yetakchi musulmon ulamolari ishtirokida guruh shakllantirilgani ham bu yo'lda amaliy ishlarga o'tilganining isboti bo'la oladi.

Ekstremizm va terrorism muammosi bilan duch kelayotgan musulmon mamlakatlari ushbu masalani turli xalqaro forumlarda ko'tarish bilan dunyo jamoatchiligi diqqatini uni hal etishga qaratib kelmoqda. Shuningdek, radikal kayfiyatdagi mutaassiblar yashayotgan davlatlar bilan xavfsizlik sohasida hamkorlik qilish va jinoyatchilarni almashish bo'yicha ikki tomonlama kelishuvlarni imzolashga ham alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, arab davlatlari o'rtasida xavfsizlik sohasidagi siyosatni tartibga solish va terrorism muammosini arab davlatlari Ichki ishlar vazirlari majlislarining dolzarb mavzusiga aylantirish yo'lidagi harakatlar ham shu yo'nalishdagi ishlarning uzviy qismi hisoblanadi.

Dinni qurol qilib olgan bunday ekstremistik harakatlar bugun umuman kishilik jamiyati hayotiga jiddiy tahdid solmoqda. Zamonaviy ekstremizm va terrorismga qarshi kurash davlatlarning doimiy e'tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko'p qirrali siyosatni amalga oshirishda o'zaro hamkorlik va sobitlikni talab etadi.

Shakllanib, keng tarmoq otgan terrorismga qarshi kurashmagan davlatlar zaiflashib, o'z xalqi va mamlakati osoyishtaligi va barqaror rivojlanishini xavf ostida qoldiradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Ekstremizm va terrorizmning jamiyat rivojiga tahdidi nimalarda ko‘rinadi?
2. Ekstremistik tashkilotlar qanday moliyaviy manbalarga tayanadi?
3. Musulmon dunyosining ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash tajribasining ahamiyatli jihatlarini keltiring.
4. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashni tizimli tashkil etish uchun nimalarga e‘tibor berish kerak?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo‘llari. / A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuxeamedov, U.G‘afurov, J.Karimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.
2. Diniy bag‘rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga-yuz javob). / Mas‘ul muharrir O.Yusupov. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 156 b.
3. Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyushmalar (Ma‘lumotlar to‘plami). K.Shermuxeamedov, J.Karimov. – Toshkent. Movarounnahr, 2014. – 160 b.
4. Hasanboyev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552 b.

## 5-mavzu. GLOBAL XAVFSIZLIKKA TAHDID SOLAYOTGAN ENG YIRIK EKSTREMISTIK GURUHLAR VA ULARNING STRATEGIYASI

1. XX asrda yuzaga kelgan diniy-siyosiy tashkilotlar va ularning ta'sirida shakllangan destruktiv oqimlar.

2. XXI asr boshlarida Yaqin Sharqda faoliyati kuzatilgan terrorchi guruhlar.

*Tayanch so'z va iboralar:* zamonaviy ko'rinishdagi ekstremistik tashkilotlar, «Musulmon birodarlar», «Tolibon», «al-Qoida», «Iroq va Shom islom davlati», «Jabhat an-nusra».

**XX asrda yuzaga kelgan diniy-siyosiy tashkilotlar va ularning ta'sirida shakllangan destruktiv oqimlar.** Zamonaviy voqeelik ekstremizm va xalqaro terrorizmning salohiyati sifat va miqdor jihatidan jiddiy o'sganini ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida ekstremizm va terrorizmning global xavfsizlikka yo'naltirilgan jiddiy tahdidga aylanishiga zamin yaratmoqda. Ekstremistik va terrorchi guruhlar globallashuv jarayonlari va yirik davlatlar orasidagi geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvidan hamda fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda ekstremizm va terrorizmga qarshi keng ko'lamlı kurash olib borilayotgan muhitga moslashishga harakat qilmoqda. Ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga salbiy ta'siri xalqaro terrorchilik tizimida yetakchi o'rinlarni egallab turgan quyidagi diniy-siyosiy tashkilotlarning mohiyati tahlil qilinganda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

«Al-Qoida» («Asos»). Radikal «islom» g'oyalariga asoslangan ushbu transmilliy diniy-siyosiy guruhning paydo bo'lishiga Usoma ben Laden (1957–2011) rahbarligida Afg'onistonda Sovet armiyasiga qarshi urushda ishtirok etish uchun ko'ngillilarni yollash va ularni qurol-aslaha bilan ta'minlash maqsadida Pokiston hududida tuzilgan «Maktab al-xidmat» byurosi asos bo'lib xizmat qilgan.

2001-yilning 11-sentyabridagi terroristik faoliyatlar natijasida Al-Qoidaning kelib chiqishi va shakllanishi hamda Usoma ben Ladenning biografiyasi haqidagi ko'plab ma'lumotlar paydo bo'la boshladi. Usoma ben Ladenning shaxsiyati va uning tashkiloti al-Qoida borasida ushbu bobda ko'plab mavzular muhokama qilingan. Ben Ladenning intellektual va ma'naviy shakllanishining keng konteksti o'xshashdir: liberal, demokratik, g'arbiy sivilizatsiya ma'naviy mohiyatdan mahrumdir, bu esa uni Xudoning yakuniy va aniq ifodalangan vahiyiga qarshi qo'yadi. Ushbu mavjud xatar tufayli mo'min G'arbga imkoni boricha qarshilik ko'rsatishi va unga bog'liq bo'lgan yoki xususan islom olamidagi u bilan ittifoq bo'lgan tuzumlarni buzishi lozim. Tarix to yakuniy, abadiy va osoyishta musulmon olami o'rnatiladigan oxirgi qiyomat voqealarigacha islomiy haqiqatning ahamiyati pasayib borishidan iboratdir.

*1977-yilda Ben Laden Jidda shahridagi Qirol Abdulaziz universitetining muhandislik va biznes kursiga qabul qilingan. Undan islom dinini o'rganish ham talab qilingan, bu yerda u Abdulla A'zam va Sayyid Qutbning ukasi, Misr ixvon tashkilotining a'zosi va akasining nashrlarining muharriri Muhammad Qutbning rahnamoligi ostida o'zining salafiylik nazariyasini boyitgan. A'zam Falastin ixvon tashkiloti hamda Xamasning a'zosi deb topilgan. U 1967-yilgi olti kunlik urushda qatnashgan, 1969-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qabul qilgan va Iordaniya universitetida islom huquqshunosligi bo'yicha professor bo'lgan. Bir necha yildan so'ng u siqib chiqarilgan va Abdulaziz universitetida ta'lim berishni boshlagan. Uning ravshan va islom yerlarini qayta tiklash haqidagi tushunchasi ochiq va ravshan bo'lgan: «jihod va qurol bitta narsadir: muzokaralar, konferensiyalar va dialoglarga o'rin yo'q». Xalifalik tomonidan boshqarilgan har qanday hudud xatto u kichik va yoki bir kishining qo'lidagi hovli bo'lsa ham, qayta qo'lga kiritilishi shart. Ben Laden uchun bunday fikr aksiomadir.*

*Bir ma'lumotga ko'ra, Ben Laden 1979-yilda Jome' masjidining egallab olinishidan qattiq ta'sirlangan. Shaxsan u uchun muhim hisoblangan voqea Afg'onistondagi Sovet ittifoqiga qarshi urush*

bo'lgan. Afg'onistonning ahamiyati haqidagi fikr Ben Ladenning us-tozi A'zamda u 1980-yili Makkada ba'zi afg'on hojilarini uchrat-ganidan so'ng uyg'ongan. 1984-yilda u Peshovarga ko'chib borgan va Mujohidlarga xizmat ko'rsatish Byurosini tashkil qilgan. Saudi-ya Arabistonida Ben Laden allaqachon Afg'onistondagi jihod uchun fondlarni yig'ib qo'ygan edi. U oqibatda o'zining Peshovardagi us-toziga qo'shilgan va O'rta Sharqdagi ko'plab ko'ngillilardan farq-li ravishda Afg'onistonda Sovet qo'shinlariga qarshi faol kurashgan. Uning Afg'onistondagi tajribasi va A'zam bilan hamkorligi unda ji-hodning muhimligi haqidagi taassurotni qoldirgan. Ularning ikkala-si uchun ham jihod ritorik chora-tadbir yoki tashviqot vositasi emas, balki xalifalikning tiklanishini tezlashtiradigan ilohiy maqsad bilan qoplangan aniq va tajribaviy amaliyotdir. 1989-yilda Ben Laden Saudiya Arabistoniga qaytadi.

1988-yilda Ben Laden Peshovarda A'zamning yollash sinovlari-dan o'tgan barcha ko'ngillilar va Afg'onistonda o'zi tashkillashtirgan harbiy mashq lagerlari uchun kompyuter fayllari tarmog'ini yarat-di. Arab tilida al-Qoida deb ataladigan ushbu ma'lumotlar bazasi mashhur terroristik tarmoq uchun manba bo'lib xizmat qildi. O'sha yildan so'ng butkul aniq bo'lmagan, biroq bevosita Isroilga hujum uyushtirish yoki johiliy musulmon tuzumlarini vayron qilish kabi asosiy vazifalariga oid fikrlarining turli-tumanligi sabablariga ko'ra Ben Laden va A'zam o'zlarining ish aloqalarini uzdilar; bir yildan so'ng A'zam ikki o'g'li bilan birga noma'lum odamning mashinani portlatishi tufayli vafot etdi. Ayni vaqtda Ben Laden o'z vaqtini Sa-datning o'ldirilishida ayblanib qamoqda o'tkazgan Misr islomiy jiho-di harakatining rahbari hamda tibbiyot fanlari doktori Ayman Za-vohiriy kabi yirik ittifoqdoshlarni o'ziga yolladi. Uning Butunjahon Savdo Markaziga uyushtirgan birinchi hujumida ishtirok etishni tas-diqlagan Umar Abdurrahmon ham o'sha vaqtda Peshovarda bo'lgan. Keyinchalik uning ikkita o'g'li ham al-Qoidaga qo'shilgan. Qo'shim-chasiga qurol ishlab chiqarish, portlatish va boshqa sohalardagi tex-nik mutaxassislar qatorida Ben Ladenning idorasiga, ya'ni sho'rosi-ga Abu Muoz al-Masriy ham kiritilgan.

*Bu ikki shaxs uchun u chaqiriq vositasi yoki uning retorik o'Ichami emas, balki keyinchalik xalifalikni qayta tiklashni ta'minlovchi ilohiy maqsad bilan yo'g'rilgan konkret amaliy faoliyat edi. Ben Laden Afg'onistonda Xudoning yirik g'alabasi bo'lganligi va yana shunday g'alabalar yaqinlashayotganligiga barchani ishontirdi.*

*Fuqarolik jamiyatiga qaytadan qo'shilib keta olmaydigan urush qatnashchilari bo'lgan askarlar dunyo bo'ylab keng tarqalgan. Ushbu muammo, o'zlarining tilida afg'on-arablar deb ataluvchi Afg'onistondagi jang maydonlarida qatnashib O'rta Sharqdagi o'z uylariga qaytib keladigan askarlarga ham taalluqlidir.*

*O'zidan oldin o'tgan Sayyid Qutb singari, Ben Laden ham amerikaliklarni XV asrdagi salibchilarga qiyosladi va ularni islomning cheksiz dushmanlari deb atadi. Shuningdek u, Saudiya ulomlarining qirollikka Amerika qo'shinlarining kirishiga ruxsat bergan fatvosi tuzatib bo'lmas xato edi, deb husoblanardi. O'zining bu kabi qarashlari sababli, Ben Laden Saudiya hukumati tomonidan ta'qib ostiga olingach, u yerdan qochib chiqib ketadi. U dastlab Pokistonga va oxiri Sudanda, regiondagi islom maskanida qo'nim topishdan oldin Afg'onistonga bordi.*

*Ko'rfaz urushi va uning oqibatlari Ben Laden uchun katta burilish nuqtasi bo'ldi. Boshqacha qilib aytganda, u o'zining Sudan qishloq xo'jaligi faoliyatlari va oilaviy biznesni olib borishda afg'on veteranlari uchun ish topish maqsadida yagona tarmoq qilib al-Qoidani tuzdi. Endi o'z jihodchilari siqib chiqarilayotgan Pokistondan ularni chiqarib olishni osonlashtirishga yordam berdi va ularni Somali, Boltiq bo'yi, Checheniston, Sharqiy Afrika va Filippinga taqsimlab chiqdi. U al-Qoidada Islom jihodchilarini boshqalarga qarshi kurashga tayyorlovchi xalqaro brigada tuzdi. Ular ijtimoiy reallikdan uzib qo'yilgan, «jihodning tekin elektronlari» hamda «diniy doktrina va qurollangan zo'ravonlik» ko'rinishiga o'tishgan edi. Saudiya yoki arab millatlaridan yiroq bo'lgan veteran fanatlar sifatida qurollanishdi.*

*Ben Laden al-Qoidaning dunyo bo'ylab mablag'lar aylantirish qobiliyatini ham yaxshiladi. Benjamin va Simonning kuzatishlariga*



*ko'ra, «al-Qoidaning kelajagi asosiy masalaga aylanadi». Bu kelajak kuchaytirilgan mashg'ulotlar rejimi, Amerika va Saudiya nuqtalarida hujumlar olib borishni va oxiri Afg'onistonda qayta qo'nim topishni rivojlantirish maqsadida Shita terrorchilik tashkiloti bilan ittifoq tuzishga undadi. Shu vaqtlar oralig'ida, ya'ni 1996-yilning yozida Ben Laden o'zini «shayx» deb atay boshladi.*

*Shuningdek, tashkilotga yo'nalish, ko'rsatmalar vazifasini o'tovchi fatvolarni chiqardi. O'zidan oldingi Qutb va Mavdudi singari, rasmiy ilmiy malakaga ega bo'lmagan va shu bois na shayx deb atalishga, na fatvolar chiqarishga haqli edi. Bundan tashqari Qutbga o'xshab, diniy ta'limga ega ulamolarni poraxo'rlikda aybladi.*

Tashkilotning dastlabki tuzilmalari G'arb va AQSHning global yetakchiligiga qarshi kurash, islomning fundamental asoslariga qaytish va yagona islomiy xalifat qurishdek maqsadlar dasturiga monand ravishda 1992-yilda Xartum (Sudan)da qayta shakllantirilgan.

«Al-Qoida» rahbariyati g'oyaviy jihatdan Muhammad ibn Abdul Vahhob va Said Qutblarning asarlarida bayon qilingan tamoyillarga asoslanishini e'tirof qilgan holda, amalda musulmon davlatlaridagi dunyoviy hukumatlarni ag'darib tashlash va shariatga asoslangan islom davlati qurishdek asosiy maqsadni ko'zlaydi.

«Al-Qoida» boshqa diniy-ekstremistik tashkilotlar kabi qat'iy iyerarxiya asosida tuzilgan bo'lib, unga Oliy kengash («Majlis ash-shura») rahbarlik qiladi. Oliy kengashga harbiy, moliyaviy, diniy va huquqiy, axborot va tashviqot qo'mitalari bo'ysundirilgan bo'lib, ular quyi pog'onadagi guruhlar faoliyatini boshqaradi.

Manbalarda «al-Qoida»ning harbiy lagerlari 2001-yilga qadar Afg'oniston, Pokiston, Somali, Sudan, Yaman, Bangladesh kabi qator davlatlarning tog'li hududlarida faoliyat ko'rsatgani qayd etiladi.

Taxminlarga ko'ra, hozirgi kunda tashkilotning yashirin guruhlari 33 tadan 88 tagacha mamlakat hududida faoliyat yuritayotgan bo'lishi, jangarilarining soni esa 3000–7000 kishini tashkil etishi mumkin.

«Al-Qoida»ning dastlabki faol harakati 1992-yil kuz faslida kuzatilgan boʻlib, tashkilot jangarilari Somalidagi beqarorliklarning oldini olish uchun kiritilgan BMT tinchlikparvarlik kuchlari tarkibidagi AQSH maxsus qoʻshinlarining 18 harbiy xizmatchisini oʻldirishgan.

1996-yilda «al-Qoida»ning asosiy jangovar kuchlari Afgʻonistonning «Tolibon» harakati nazoratidagi hududlarga koʻchib oʻtdi. Aynan shu yerda, 1998-yilning fevralida «al-Qoida» yetakchiligida «al-Jamoa al-islomiya», «al-Jihod» (Misr), «Jamaati ulame Pokiston», «Kashmir qoʻzgʻolonchilik harakati» (Hindiston), «Jihod» (Bangladesh) va «Tolibon» harakati vakillari «Yahudiy va salbchilarga qarshi xalqaro islom fronti» uyushmasi tuzilganini eʼlon qilishdi. Ushbu uyushma nomidan Usoma Ben Laden Gʻarb dunyosiga jihod eʼlon qilgan.

Shundan soʻng, qator ogʻir oqibatlarini keltirib chiqargan terrorchilik harakatlari sodir etildi. Jumladan, 1998-yil 25-iyunda «al-Qoida» jangarilari Saudiyaning Daxran shahri yonida joylashgan AQSH harbiy havo kuchlarining bazasi oldida amalga oshirgan portlash natijasida 19 kishi halok boʻlib, 300 dan ziyod kishi tan jarohatini oldi. Oʻsha yilning 7-avgustida esa «al-Qoida» jangarilari bir vaqtning oʻzida AQSHning Tanzaniya va Keniyadagi elchixonalarini oldida bomba ortilgan mashinalarni portlatishi oqibatida esa 242 kishi halok boʻldi va 5000 ga yaqin odam shikastlandi.

Va nihoyat, 2001-yilning 11-sentyabrida Amerika Qoʻshma Shtatlarida turli reyslar bilan Nyu-York, Boston va Vashington shaharlaridan uchgan toʻrtta «Boing-757» samolyoti «al-Qoida» guruhiga mansub 18 nafar terrorchi tomonidan egallab olinib, ularning ikkitasi Nyu-Yorkdagi Xalqaro Savdo Markazi joylashgan «egizak» binolarga, bittasi esa AQSH qurolli kuchlari shtabi – Pentagonga yoʻnaltirildi. Yana bir samolyot Pensilvaniya shtatidagi Shanksvill rayoniga qulab tushdi.

Umuman olganda, mavjud maʼlumotlarga koʻra, «al-Qoida» guruhi jangarilari Afgʻoniston (1992-yildan), Somali

(1992–1993-yillar), Bosniya va Gersegovina (1992–1995-yillar), Kashmir (1993-yildan), Shimoliy Kavkaz (1995-yildan), Kosovo (1999 yildan), Markaziy Osiyo (1999-yildan), Pokistonning Janubiy Vaziriston viloyati (2001-yildan) va Iroq (2003-yildan) hududlarida qurolli to‘qnashuv va terrorchilik harakatlarini amalga oshirishda faol ishtirok etib kelmoqda.

2001-yil 11-sentyabr voqealaridan so‘ng Afg‘onistonda o‘tkazilgan keng ko‘lamli xalqaro aksilterror harakati natijasida «al-Qoida» jiddiy talafot ko‘rgan bo‘lsa-da, u o‘z faoliyatini yangi sharoitlarga moslashtirishga intilmoqda. Jumladan, ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra, tashkilot asosiy tizimlarini erkin pushtun qabilalari yashaydigan Pokistonning shimoli-g‘arbiy va Kashmirdagi baland tog‘li hududlarga ko‘chirishga harakat qilmoqda.

Afg‘oniston va Iroqda AQSH harbiylariga qarshi partizan urushida faol ishtirok etish barobarida aksilterror ittifoqiga a‘zo davlatlar hududlaridan o‘z qo‘shinlarini olib chiqishni talab qilayotgani tashkilotning bugungi kundagi o‘ziga xos xususiyatidir. «Al-Qoida» aynan shu maqsadga erishish bayrog‘i ostida terrorchilik harakatlarini amalga oshirmoqda. Jumladan, 2004-yilning 11-martida Madrid (Ispaniya)dagi 4 ta temiryo‘l bekatida umumiy hisobda 6 ta portlatish amalga oshirildi. Natijada, 200 kishi halok bo‘ldi va 1500 dan ziyod kishi yarador bo‘ldi. Politsiyaning taxminiga ko‘ra, portlashlarni «al-Qoida» guruhi bilan yaqin aloqada bo‘lgan marokashlik radikal guruh amalga oshirgan.

2009-yilning 7-dekabr kuni «al-Qoida» tashkiloti a‘zolari Iroqning Bag‘dod shahrida maktab yonida bomba portlatishi oqibatida 12 nafar odam, shu jumladan, 6 nafar 6–12 yoshli go‘dak halok bo‘lgan. Shuningdek, «al-Qoida» jangarilari tomonidan Pokistonning birgina Xayber-Paxtunxva viloyatida 2009–2012-yillarda 690 dan ziyod maktab vayron qilingan. Afg‘oniston va Pokiston hududidagi jangarilarning eng mudhish jinoyatlaridan biri – o‘smir yoshdagi o‘g‘il va qiz bolalardan xudkush operatsiyalarda «tirik bomba» sifatida foydalanishidir. Pirovard natijalar ushbu

mamlakatlarda minglab bolalar ko'chaga chiqishga qo'rqib, savodsiz bo'lib qolmoqda.

Qayd etilgan dalillar ham «al-Qoida»ning xalqaro terrorchilik tizimining markaziy unsuri va jahonning turli nuqtalarida ro'y berayotgan qurolli to'qnashuvlar, terrorchilik amaliyotlarini moliyalashtirish, rejalashtirish hamda bevosita amalga oshirishning asosiy bo'g'iniga aylanganini ko'rsatadi.

«Tolibon» harakatining nomi arab tilidagi «tolib» so'zidan olingan bo'lib, «o'quvchi», «talaba» yoki «talab qiluvchi» ma'no-larini bildiradi. «Tolibon» esa fors-tojik tilida «tolib» so'zining ko'plik shaklidir. Bu so'z aslida diniy ta'lim muassasasi (madrasa)ning o'quvchilariga nisbatan ishlatiladi. Harakat asosini 1979–1989-yillarda Afg'onistonda bo'lib o'tgan janglarda yetim qolgan bolalarga diniy ta'lim berish uchun Pokiston hududida tashkil etilgan madrasaning sobiq o'quvchilari (toliblari) tashkil etgani uchun shunday nom olgan.

«Tolibon» harakati 1994-yilda Afg'onistonning janubi-sharqida joylashgan Qandahor shahrida Mulla Muhammad Umar (asli ismi Said Muhammad Oxunzoda) tomonidan mamlakatda uzoq yillar davom etgan fuqarolar urushi natijasida yuzaga kelgan. 1996-yil 26-sentyabrda «Tolibon» harakati poytaxt Qobulni egaladi va «Afg'oniston islom amirligi» tashkil etilganini e'lon qildi.

«Tolibon» harakati Afg'oniston va Pokiston hududlarida «jihod» yo'li bilan «islom xalifaligi»ni tiklashni asosiy maqsad qilgan.

«Tolibon» nazorati ostida bo'lgan hududlarda shariat qoidalariga amal qilish qattiq talab qilinadi.

1996–2001-yillar mobaynida Muhammad Umar afg'on «toliblari» tomonidan tashkil etilgan «Afg'oniston islom amirligi»ga boshchilik qildi. AQSHdagi 2001-yil 11-sentyabr voqealaridan so'ng, «Afg'oniston islom amirligi»ga qarshi AQSH va NATO boshchiligida aksilterror operatsiyalar boshlandi va «Shimoliy Alyans»ning ko'magi bilan mavjud tuzum ag'darildi. Oqibatda Muhammad Umar boshchiligidagi «Tolibon»lar Pokiston hududiga yashirinishga majbur bo'ldi. Ularning keyingi faoliya-

ti asosan qo'shni Pokistonning Vaziriston viloyatida davom etdi. Shundan beri Vaziriston «Tolibon»larning tayanch nuqtasi bo'lib kelmoqda.

1998-yili ular tomonidan tuzilgan maxsus «shariat mirshablari» jamoasi namoz o'qimagan va hatto soqolini tartibga solib yurgan fuqarolarni jazolash bilan shug'ullangan edi. «Tolibon»lar, shuningdek, televizor, videomagnitafon, fotoapparatdan foydalanishni taqiqlab, tele va radiostudiyalarni yopib qo'ygan edi.

Mulla Muhammad Umar o'zining rahbarligini pushtun qabilasidan bo'lgan o'nta maslahatchiga tayangan holda olib bordi. Shu bilan birga harakat o'zining «Rahbarlik kengashi»ga ega bo'lib, u 28–30 kishidan iborat.

Hozirgi kunda butun yer sharida yetishtirilayotgan giyohvand vositalarning asosiy qismi Afg'onistonga to'g'ri kelmoqda. Afg'onistonda yiliga 200 ming gektarga yaqin maydonga ko'knori ekilib, 800 tonnaga yaqin geroin butun dunyoga tarqatilmoqda. «Tolibon» harakati jahonda ishlab chiqariladigan afyunning 80 foizini o'z nazorati ostiga olgan bo'lib, undan harakat rahbarlari juda katta daromad ko'rmoqda.

Bugungi kunda shtab kvartirasi Pokistonning Kvetta shahrida joylashgan «Tolibon» harakati tarkibiga 6 mingdan 20 minggacha jangari kiradi. Pokistonning Janubiy Vaziriston va shimoli-g'arbiy chegara okruglarida mustahkam o'rnashib olgan ushbu harakatga mazkur hududlarda istiqomat qilayotgan 2 millionga yaqin afg'on qochoqlari jangarilarni yetkazib beruvchi manba hisoblanadi. Shuningdek, ushbu hududda turli mamlakatlardan to'plangan 2 mingga yaqin terrorchilar joylashib olganini ham qayd etish zarur.

«Tolibon» harakati Afg'onistonning barcha hududlarida o'z hukmronligini o'rnatish uchun 1999-yili Shimoliy Afg'onistondagi o'zini o'zi boshqarib turgan mahalliy xalqlar hududlariga bostirib kirdi va ularga qarshi ommaviy terror harakatlarini amalga oshirdi. Shu davrda ularning Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonga qarshi xuruj qilishi xavfi paydo bo'lgan edi. Bu

diniy mutaassiblik global xavfga aylanganini, u xalqaro terrorchilik faoliyati kuchayishiga olib kelishi mumkinligi va unga qarshi jahon hamjamiyati tezkorlik bilan kurashishi lozimligini yana bir bor tasdiqladi. «Al-Qoida» tashkiloti 2001-yil 11-sentyabrda AQSHda uyushtirgan terrorchilik harakatlaridan soʻng ushbu tashkilotning hamkori boʻlgan «Tolibon» harakatining ham global xavf ekani tan olindi va unga qarshi aksiterror kurashi boshlandi.

«Tolibon» harakati oʻz faoliyati davomida yoshlar va ayollarining ilm olishiga qarshi qattiq kurash olib boradi. Shu sababli ham ularning bosqinchilik obyektlari maktablardan iborat boʻlgan. Afgʻoniston maorif vazirligining maʼlumotlariga koʻra, «Tolibon»lar birgina 2007-yilda mamlakatda 98 ta maktabni yoqib yuborishgan, 147 ta oʻqituvchi va oʻquvchi hayotiga zomin boʻlishgan. 236 marotaba oʻquvchilarga hujum uyushtirilgan.

2007-yilda «Tolibon»lar Pokistonda qizlar oʻqiydigan 125 maktabni yoqib yuborishgan. 2008-yil 12-noyabr kuni Qandahorda tolibonlar darsga borayotgani uchun 15 nafar oʻquvchi va oʻqituvchi ustiga kislotaga sepib yuborishgan. «Tolibon»lar 2009-yilda Pokistonning Svat vodiysining oʻzida 200 dan ziyod maktabni ham yoqib yuborishgan. Shuningdek, 2010-yilning mart-may oylarida Afgʻonistonda tolibonlar 5 ta maktabda oʻnlab oʻquvchi va oʻqituvchilarga zaharlovchi gaz bilan hujum uyushtirdi. Oqibatda yuz minglab oʻquvchi bolalar maktabga borishga qoʻrqib, oʻqishga bormay qoʻygan.

«Tolibon»lar 2009-yil 28-oktyabrda Qobuldagi mehmonxonalaridan biriga hujum uyushtirdi. Oqibatda BMTning 6 nafar xodimi vafot etgan va 9 nafar kishi jarohat olgan. Terrorchi-xudkushning 2009-yil 28-dekabr kuni Karachi shahri markaziy koʻchalaridan birida «Ashuro» motam marosimini oʻtkazayotgan minglab shia mazhabi vakillari orasida oʻzini portlatishi natijasida 43 kishi vafot etdi va 60 dan ortiq shaxslar jarohatlandi. Ushbu teraktni amalga oshirilishini Pokiston toliblari oʻz boʻyniga oldi.

Pokistonning Kvetta shahrida 2010-yil 3-sentyabrda «Falastinliklarni qoʻllab-quvvatlash xalqaro kuni» doirasida oʻtkazilayot-

gan mitingda portlash amalga oshirildi. Natijada 54 kishi halok bo'ldi va 200 ga yaqin kishi jarohat oldi. Ushbu terakt amalga oshirilishini ham Pokiston toliblari o'z bo'yniga oldi.

Pokistonning Doro Odamxil shahrida 2010-yil 5-noyabrda terrorchi-xudkush masjidida juma namozi vaqtida o'zini-o'zi portlatishi oqibatida 50 kishi vafot etdi, yuzdan ortiq insonlar turli darajada jarohatlandi. Ushbu qo'poruvchilik harakatining amalga oshirilishini Pokiston toliblariga aloqador bo'lgan guruh o'z zimmasiga oldi.

2010-yil 11-noyabrda Pokistonning Karachi shahri politsiyasi binosi oldida mina o'rnatilgan yuk mashinasi portlatildi. U yerda 20 kishi halok bo'ldi va 100 dan ziyod insonlar jarohat oldi.

2011-yil 31-oktyabrda Afg'onistonning Qandahor shahrida terrorchi-xudkush o'zini portlatishi natijasida BMTning 3 vakili hamda mahalliy politsiya boshlig'i va bir necha kishi vafot etdi.

2012-yil 4-sentyabrda Afg'onistonning Nangarxar provinsiyasida janoza vaqtida terrorchi-xudkush amalga oshirgan portlash natijasida 20 kishi halok bo'lib, 50 dan ortiq kishi tan jarohati oldi. Ta'kidlash lozimki, hujumdan jabr ko'rganlarning barchasi tinch aholidan iborat bo'lgan.

2014-yil 17-yanvar kuni Afg'onistonning Qobul shahrida restoran yonida terrorchi-xudkush o'zini portlatib yuboradi. Jami 21 kishi (4 tasi BMT vakili) vafot etadi.

2015-yil 19-oktyabr kuni Afg'onistonning shimolidagi Faryob provinsiyasida «Tolibon» tomonidan portlash sodir etilishi natijasida, 5 kishi vafot etdi, 25 kishi jarohatlandi.

Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi 2006-yilda «Tolibon» harakatini «terrorchi tashkilot» deb e'lon qildi. AQSH hukumati 2002-yildan boshlab, «Tolibon» harakatini «terrorchi tashkilot» deb tasdiqlash masalasini bir necha bor ko'targan bo'lsa-da, faqatgina 2009-yilning aprelida AQSH Davlat Departamenti tomonidan terrorchi guruhlar ro'yxatiga kiritilgan. «Al-Qoida» va «Turkiston islom harakati» «Tolibon»larning eng yaqin ittifoqdoshlari hisoblanadi.

**XXI asr boshlarida Yaqin Sharqda faoliyati kuzatilgan terrorchi guruhlar.** Hozirgi kunda diniy-ekstremistik va terrorchi tashkilotlar o'zlarining g'arazli maqsadlaridan kelib chiqib, islom ta'limotining ayrim g'oya hamda tamoyillari mazmun-mohiyatini bir yoqlama, taassubga berilib noto'g'ri izohlashga va odamlarni hidoyat yo'lidan adashtirishga urinmoqda. Bunday holat, ayniqsa, bugungi kunda butun dunyoga tahdid solayotgan «Iroq va Shom islom davlati», «Jabhatu fathi biladish-Shom» kabi bir qator terrorchi guruhlar misolida o'z aksini topmoqda.

**Iroq va Shom islom davlati.** «Iroq va Shom islom davlati» tashkilot topishida «al-Qoida» tashkiloti muhim o'rin tutgan. Dastlab, 2004-yilda xalqaro miqyosdagi terrorchi Abu Mushab Zarqoviy Iroqda «Tavhid va jihad harakati»ni tuzadi va «al-Qoida»ning Iroqdagi bo'limi sifatida faoliyat olib boradi. Iroqdagi harakat doirasini kengaytirish maqsadida keng ko'lamli ishlar olib boriladi. Keyinchalik unga «Jaysh al-fotihin», «Jaysh as-sahoba» kabi bir qator terrorchi guruhlar qo'shilishi natijasida Zarqoviy 2006-yilda Abdulloh Rashid Bag'dodiy boshliq «Mujohidlar maslahat kengashi» tuzilganini e'lon qiladi. Buning natijasida Yaqin Sharqdagi bir necha terrorchi guruhlarini birlashtirgan tashkilot 2006-yil 15-oktyabrda «Iroq islom davlati» nomi ostida Iroqda tashkilot topadi va unga Abu Umar Bag'dodiy ismli shaxs rahbarlik qiladi.

2010-yil 19-aprelda Abu Umar Bag'dodiy o'ldirilgandan so'ng guruhga Abu Bakr Bag'dodiy nomi bilan tanilgan Abdullo Ibrohim as-Samariy (ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Ibrohim Avvad al-Badriy al-Husayniy) rahbarlik qiladi. Suriyada kechayotgan mojarolarga mustaqil armiya sifatida kelib qo'shilgandan so'ng, 2013-yil aprel oyida tashkilot «Iroq va Shom islom davlati» (IShID) deb nomlandi. «Al-Qoida» tashkiloti «IShID»ning Suriyadagi mojarolarga aralashganidan so'ng, 2014-yil fevral oyida mazkur tashkilotning «al-Qoida»ga aloqasi yo'q deb bayonot berdi. BMT Xavfsizlik kengashi ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi eng xavfli hisoblangan «al-Qoida» faolligining kamayishi undan-



da kuchliroq terrorchilik tashkilotlari, xususan «Iroq va Shom islom davlati»ning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

2014-yil 29-iyunda tashkilot rahbarlari tomonidan Iroq va Shom (Suriya) hududida xalifalik tuzilgani va Abu Bakr Bag'dodiy xalifa ekani e'lon qilindi. Keyinchalik, «IShID» o'zini «Islom davlati» deb nomladi.

Tashkilotning bosh maqsadi islom «xalifaligi»ni qayta tiklash va islom shariatini amalga tatbiq etishdan iborat. Bu yo'lda Iroq, Suriya mamlakatlari negizida sunniy musulmonlarning yagona davlati «xalifalik»ni barpo etib, bosqichma-bosqich Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari hisobiga kengaytirishni e'tirof etadi.

Hozirgi kunda «IShID» tomonidan boshqaruv o'rnatilgan hududlarda na islomiy va na insoniy tamoyillarga to'g'ri keladigan qonunlar joriy qilinmoqda. «IShID» aqidasi ko'ra, dunyoviy-ma'rifiy yo'lni tutgan musulmon davlatlar tuzum shakllarini kufr deb e'lon qilgan. Ushbu qarashlarning barchasi islom dinining haqiqatini bilmaslik, uning matnlarini zohiran, yuzaki tushunish, mazmun-mohiyatini chuqur anglamasdan hukm chiqarish va o'z yo'nalishiga moslab sharhlashga asoslanadi. Jumladan, ular e'lon qilgan «shirk ko'rinishlarini, unga olib boruvchi vositalarni yo'q qilish» g'oyasi hozirda musulmon olamida shirk mavjud degan qarash bo'lib, maqbaralarni buzish, qadimiy yodgorliklarni tashkil etuvchi haykallar, arxeologik topilmalarni yo'q qilishga qaratiladi.

Shuning bilan birga, xristian dini vakillarini «zimmiy» hukmida hisoblab, ulardan «jizya» solig'ini majburlab undirish, ularga xoch osib yurmaslik, ibodat vaqtida ovoz kuchaytirgichlardan foydalanmaslik kabi taqiqlar ham belgilab qo'yilgan. Diniy toqatsizlik, ayollar va bolalar huquqlarining poymol etilishi, taraqqiyot yutuqlaridan yuz o'girish, oddiy insonlar hayotiga tajovuz qilish avjiga chiqmoqda. Hattoki, musulmon ayollarga nisbatan esa o'ta mutaassibona hukmlar joriy qilinib, ularni buzganlarga shafqatsiz jazo metodlari qo'llanmoqda. Bundan tashqari, «IShID» maxsus kiyimini kiyish vojib, kiyimganga darra uriladi.

Bir soʻz bilan aytganda, mazkur hududda aholi shariat talblariga boʻysunishga majbur qilinmoqda. Sud tizimi bekor qilinib, «qozilik» joriy etilgan. Dunyoviy tashkilotlar, madaniyat maskanlarining faoliyati umuman toʻxtatilgan. Shu sababli, «IShID»ning botil aqidalari butun dunyodagi musulmon ulamolari tomonidan qattiq tanqid ostiga olingan.

Mazkur tashkilot oʻz maqsadlarini amalga oshirish uchun zamonaviy axborot kommunikatsiyalaridan keng foydalanish, Internet orqali turli tillarda targʻibot olib borish va puxta ishlangan strategiya asosida virtual jamoatlar tuzish asosiy vazifaga aylangan. Ayniqsa, yoshlar orasida mutaassiblikka yoʻgʻirilgan bunday forumlarning tobora ommalashuvi hamda ularda turli koʻrinishdagi buzgʻunchi «fatvo»larning berib borilishi muammoning naqadar jiddiy ekanini namoyon etadi. Masalan, soʻnggi yillarda Internet tizimi orqali tarqatilgan shunday fatvolardan biri, «Nikoh jihodi» deb atalib, unga koʻra, Suriyada oʻzlaricha «jihod qilaymiz» deb iddao qilayotgan «jihodchilar»ga nikohlanishga, ularning jinsiy ehtiyojini qondirishlari uchun boshqa davlatlardan ayollar va qizlarning Suriyaga hijrat qilishlari lozimligini taʼkidlaydi. Odatda bunday soxta fatvoga uchgan qizlarga jihodchilarning lagerlarida joriyalarga qilinadigan munosabat koʻrsatiladi. Hatto bir yoki undan ortiq «mujohid»ga nikohlanib chiqishiga ham izn berilgan.

*2014-yil noyabr oyida «IShID» rahbari Abu Bakr Bagʻdodiyning bayonotiga koʻra, Saudiya, Misr, Yaman kabi davlatlardan tarafdorlar kelib ularga bayʼat qilgani, shu sababli mazkur hududlarda oʻzlarining valiylarini tayinlagani aytib oʻtildi. Bu esa, «IShID»ning hozirgi kundagi faoliyat koʻlami yanada kengayib borayotgani hamda global xatarga aylanayotganiga dalildir.*

*Rasmiy bayonotlarda aytilishicha, tashkilot hozirgi kunda dunyodagi eng boy terroristik tashkilotlardan biriga aylangan. Uning asosiy moliyaviy manbalari quyidagilardan iborat:*

- *bosib olingan hududlarda qoʻlga kiritilgan neft xomashyosini noqonuniy yoʻllar orqali sotish;*

- *guruh nazorat qilayotgan hududda yashaydigan millionlab aholidan yig'ib olinayotgan go'yoki, zakot ko'rinishidagi soliqlar;*
- *guruh tomonidan bosib olingan hududlarda joylashgan turli obyektlardan tushayotgan mablag'lar yoki zo'ravonlik bilan tortib olinayotgan boyliklar;*
- *garovga olingan odamlarni ozod qilish evaziga yig'ilgan mablag'lar;*
- *guruh tomonidan bosib olingan hududlarda istiqomat qilayotgan boshqa din vakillariga o'lim tahdidi ostida undirilayotgan «jizya» (soliq) to'lovlari.*

SkyNews ma'lumotiga ko'ra, «IShID» Suriyadagi neft manbalarining uchdan ikki qismini va Iroqdagi neft manbalarining 10 foizini nazorat qilmoqda. Birgina neft kontrabandasi ortidan bir kunda bir milliondan uch million AQSH dollarigacha daromad olayotgani taxmin qilinmoqda. Buning oldini olish uchun 2014-yil 28-iyul kuni BMT Xavfsizlik Kengashi «IShID»dan neft sotib olishni taqiqlovchi bayonot qabul qildi. Shuningdek, guruh tasarrufida Iroq va Suriya armiyasidan olingan bir qancha tanklar, qurollar, zirhli texnika va boshqa harbiy vositalar bor.

Shu bilan birga, ushbu guruh arxeologik yodgorliklarni pullash hisobiga 50 million dollar ishlab olgan. «The New York Times»ning yozishicha, «IShID» dunyodagi eng boy terror tashkiloti bo'lib, uning boyligi taxminan 2 milliard dollar atrofida ekanligi aytiladi. Jumladan, «IShID» 2014-yil iyun oyida Mosul shahrini bosib olgan paytda banklarda saqlanayotgan 400 million AQSH dollarini bir kunda qo'lga kiritgan. Garovga olingan odamlarni ozod qilish evaziga yig'ilgan 126 million dollar va mintaqa muzeylaridan o'g'irlangan osori atiqalarni sotishdan tushgan 10 million dollar «IShID» guruhining o'z safiga yangi jangarilarni yollash imkoniyatini oshirmoqda. «The Telegraph» nashrining yozishicha, 2014-yilning so'nggi olti oy davomida mazkur tashkilot rahbarlari 1,2 milliard dollar miqdorida mablag' topgan.

Taxminlarga ko'ra, «IShID» safida urushayotgan jangarilarning 40 foizini 80 dan ortiq xorij davlatlaridan kelgan ko'ngillilar tashkil etadi. Ming afsuski, ular orasida Markaziy Osiyo respublikalari fuqarolari bo'lgan jangarilar ham bor. Guruh rahbarlari Qur'on oyatlarini o'z ra'yolaricha talqin qilib, bugungi kunda «hijrat» qilish va «jihod» tushunchalarini ilgari surib harbiy to'qnashuvlar o'choqlariga odamlarni jalb qilmoqdalar.

Buning natijasida, tashkilot tomonidan 2013–2014-yillar mobaynida 10 mingdan ziyod terrorchilik harakatlari sodir etilgan, xudkush terrorchilar tomonidan 80 ga yaqin portlashlar amalga oshirilgan. Suriyada «IShID» jangarilari 60 dan ziyod cherkov va monastirni vayron qilgan. 2014-yil 14-iyun kuni Iroqning Mosul shahridagi «Al-Isro» masjidida yonida tashkilotga qo'shilishdan bosh tortgan 12 nafar diniy ulamo namoyishkorona qatl etilgan. Hattoki, «The Daily Mirror» axborotiga ko'ra, «IShID» jangarilari Iroqda aholi orasida qo'rquv uyg'otish uchun tirik chayonlar to'ldirilgan konteynerlarni portlatish usulidan foydalanmoqda. Oqibatda atrofga tarqalib ketgan zaharli hasharotlar odamlarni chaqib, aholi orasida dahshatga sabab bo'lmoqda. Bu esa ularning har qanday qabih ishlardan ham tap tortmasligidan dalolat beradi.

2014-yilning 3-iyulida Dunyo musulmon ulamolari kengashi tashkiloti «Islom davlati» e'lon qilgan «xalifalikni» keskin qoralab, uni shar'an botil deb fatvo berdi. Fatvoda islom ta'limotiga ko'ra qandaydir alohida firqa va oqimlar o'zboshimchalik bilan «xalifalik»ni e'lon qilish huquqi berilmagani ta'kidlangan. Demak, butun dunyo musulmon ulamolari ham «IShID»ning faoliyatini tanqid qilib, uning faoliyati, targ'ib etayotgan g'oyalari islom ta'limotlariga zid ekani va uni tan olib bo'lmasligini aytib o'tganlar.

«**Jabhat an-nusra**» (*«jabha» – front, «nusra» – yordam*). To'liq nomi – «Jabhat an-nusra li ahliah Sham» (Shom ahligha yordam fronti) bo'lib, u «al-Qoida» tashkilotining Suriya va Liviya hududidagi sho'basini hisoblangan. 2016-yil 28-iyul kuni tashkilot o'z nomini «Jabhat fath ash-Sham» deb o'zgartirganidan so'ng «Al-Qoida» aloqalar uzilganini e'lon qildi.

«Jabhat an-nusra» salafiy-jihodiy yoʻnalishidagi harakat boʻlib, 2012-yil yanvarda Suriyada yuzaga kelgan. Tez orada Suriya hukumatiga qarshi kurashuvchi kuchlarning asosiylaridan biriga aylandi. Harakat oldin Iroqda Abu Mushab Zarqoviy qoʻl ostida harakat qilgan «al-Qoida» jangarilaridan tashkil topgan. 2011-yil martda Suriyada davlat toʻntarishi boshlanishi bilan «al-Qoida» ushbu jangarilarni Suriyaga joʻnatgan.

Frontning asosiy muassisi «Al-Fotih» laqabli suriyalik Abu Muhammad Juloniydir. «Al-Qoida» tashkilotining rahbari Ayman Zavohiriy «Jabhat an-nusra»ni «al-Qoida»ning Suriyadagi yagona boʻgʻini sifatida eʼtirof etadi.

Mamlakatdagi joriy hukumatni agʻdarish orqali dastlab Suriya hududida, soʻng barcha musulmon olamini birlashtirgan islom shariatiga asoslangan «islom xalifaligi»ni oʻrnatish maqsad qilingan.

«Jabhat an-nusra» harakati «al-Qoida» tashkilotining «jihod»ga targʻib etuvchi, «salafiy» aqidasiqa asoslangan boʻlinmasi hisoblanadi. Shuningdek, harakat nazariy jihatdan «Musulmon birodarlar» uyushmasi aʼzosi boʻlgan Said Qutbning qarashlariga ham asoslanadi. «Jabhat an-nusra» harakatining asosiy gʻoyasi xalifalikni qayta tiklash, islom shariatini tatbiq qilish, jihod orqali davlat tuzumini agʻdarish va qaysi yerga hukmron boʻlsa, oʻsha yerda «islom davlati»ni qurishdan iborat.

Shu bilan birga, «Jabhat an-nusra» harakati alaviylar va shialarga qarshi ish olib borib, ularni kufr yoʻlini tutgan oqimlar, deb hisoblaydi.

«Jabhat an-nusra» Suriya, Livan, Iordaniya, Isroil va Falastin davlatlarini oʻz ichiga olgan. Uning asosiy faoliyat uslublari xudkushlik amaliyotlari, portlovchi moddalar bilan toʻlatilgan mashinalarni portlatish, harbiy bazalarga hujumlar uyushtirish kabi harakatlar sanaladi.

«Jabhat an-nusra»ning bosh hayʼati — «Mujohidlar shoʻro kengashi» deb nomlanadi. Undan keyin har bir mintaqada kichikroq maslahat kengashlari turadi. Ushbu kengashlar guruhlar

nomidan qarorlar qabul qiladi. Tashkilotni amir boshqarib, u bir vaqtning o'zida ham siyosiy, ham diniy shaxs hisoblanadi. Unga Suriya shahar va viloyatlaridagi mahalliy amirlar bo'ysunadi. Shuningdek, alohida ishlarni bajaruvchi Mas'ullar ham bo'lib, ular mablag'larni yo'naltirish, qurol-yarog'larni qo'lga kiritish kabi ishlar bilan shug'ullanadi.

Bundan tashqari, diniy ishlar, matbuot xizmati, tashqi ishlar bo'limlari ham faoliyat olib boradi. «Jabhat an-nusra» harakati ayrim manfaatdor davlatlar hamda Yaqin Sharq va G'arb davlatlaridagi ba'zi jamg'armalar tomonidan maqsadli ravishda ajratiladigan mablag'lar, turli diniy, xayriya tashkilotlari, «al-Qoida» (2016-yilga qadar) kabi uyushmalar tomonidan moliyalashtiriladi. Shuningdek, harakat noqonuniy neft savdosi, insonlarni garovga olish ishlari bilan ham shug'ullanadi.

«Jabhat an-nusra»ning tarkibida Pokiston va Afg'oniston davlatlari hududidagi lagerlarda «al-Qoida» tomonidan tayyorlangan va undan ajralib chiqqan jangarilar ko'pchilikni tashkil etadi. Ma'lumotlarga ko'ra, shu kunga qadar «Jabhat an-nusra» tomonidan 70 dan ziyod xudkushlik amaliyotlari sodir etilgan. Shuningdek, ular alaviy va shialardan iborat tinch aholiga ham hujum uyushtirishgan.

«Global terrorizm indeksi» ma'lumotlariga ko'ra, «Jabhat an-nusra» tomonidan amalga oshirilgan terrorchilik amaliyotlari natijasida 2015-yilda 600 dan ortiq inson vafot etgan. Jumladan, 2015-yil sentyabr oyida jangarilar «Abu ad-Duxur» aerodromini qo'lga kiritish chog'ida asirga tushgan Suriya hukumatining 56 nafar askarlarini qatl etgan.

Shuningdek, jangarilar 2014-yil avgust oyida BMTning tinchlikparvar kuchlaridan iborat 45 nafar kishini asir olgan. Keyinchalik 20 million AQSH dollari evaziga ularni ozod etgan.

2012-yil dekabrda AQSH Davlat Departamenti, 2013-yil may oyida BMT Xavfsizlik Kengashi «Jabhat an-nusra» harakatini terrorchi tashkilotlar ro'yxatiga kiritdi. Shuningdek, Avstraliya,

Buyuk Britaniya (2013) hamda Rossiya (2014) kabi bir qator davlatlar ham mazkur uyushmani terrorchi tashkilot deb e'lon qilgan.

Umuman olganda, din bayrog'i ostida talonchilik va bosqinchilik, terrorchilik va qo'poruvchilik harakatlari sodir etilayotgani, narkobiznes va noqonuniy qurol-yarog' savdosi amalga oshirilayotgani, korxonalar va inshootlarga zarar yetkazilayotgani ham hech kimga sir emas. Bunday harakatlar ijtimoiy barqarorlikning izdan chiqishiga, millatlararo va dinlararo adovat, millatchilik va diniy ayirmachilik kayfiyatlarining shakllanishiga zamin yaratmoqda.

### **Nazorat savollari:**

1. Diniy ekstremistik tashkilotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishining qanday sabablarini ajratish mumkin?
2. «Musulmon birodarlar» harakatining jamiyat barqarorligiga tahdidi nimalarda namoyon bo'ladi?
3. «Tolibon» va «Al-Qoida» harakatlarining faoliyat uslublari haqida nimalarni bilasiz?
4. Yaqin Sharqda faoliyati kuzatilgan qanday yirik terrorchi guruhlar mavjud?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Shermuxamedov K. Jaholat to'ri. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 48 b.
2. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To'ldirilgan nashr. Mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sharq, 2014. – 536 b.
3. Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyushmalar (Ma'lumotlar to'plami). / K.Shermuxamedov, J.Karimov. – Toshkent, «Movarounnahr» nashriyoti, 2014. – 160 b.
4. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552 b.

## **6-mavzu. EKSTREMIZM VA TERRORIZMNING MINTAQADA NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

1. Ekstremizmning mintaqada namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari.

2. Markaziy Osiyodagi barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solayotgan diniy-ekstremistik va terrorchi tashkilotlar.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzatilgan diniy-siyosiy tashkilotlar, «Hizbut-tahrir», «Akromiyalar», «Nurchilik», «Turkiston islom harakati», «Islomiy jihod ittihodi».*

**Ekstremizmning mintaqada namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari.** Markaziy Osiyo mintaqasida diniy mutaassib oqimlar faoliyati XX asrning 80-yillari boshlarida xorijiy ekstremistik markazlar sa‘y-harakatlari bilan shakllana boshladi. Mintaqada xorijdan kelayotgan moliyaviy yordam hisobiga jangari sifatida foydalaniladigan shaxslarni tanlash va tayyorlash bilan shug‘ullanadigan guruhlar paydo bo‘ldi. Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgan 1990-yillarning boshlarida esa, bu guruhlar faollashib ketdi. Masalan, Namangan shahrida ayrim siyosiy kuchlarning moliyaviy ko‘magi bilan «Adolat», «Tavba», «Islom lashkarlari» va boshqa ekstremistik tashkilotlar tuzildi.

1991-yil yanvar oyida yuzaga kelgan «Adolat» guruhining asl maqsadi mavjud tuzumni ag‘darish, hokimiyat tepasiga kelish hamda islom davlatini barpo etishdan iborat bo‘lgan. Bu guruh jamoat tartibini saqlash, ko‘cha jinoyatlariga qarshi kurash niqobi ostida har xil reydlar uyushtirdi, tekshiruvlar o‘tkazdi, kishilarni qo‘lga oldi. Ularning nazarida aybdor bo‘lgan shaxslar shariat ahkomlariga muvofiq xalq oldida jazolanardi. Aslida bunday xatti-harakat ortida «Adolat» rahbarlarining mahalliy hokimiyat va huquqni muhofaza qilish organlarini zarur xavfsizlik hamda tartibni ta‘minlashga qodir emasdek qilib ko‘rsatib, ularni xalq oldida obro‘sizlantirish niyati turardi. Buning natijasida «Adolat» faol-



lari 1990–1992-yillarda yig‘ilishlar, mitinglar uyushtirishdi. 1991-yil oxirida Namanganda bo‘lib o‘tgan ko‘p sonli norozilik mitingi eng sezilarli voqea bo‘ldi. O‘sha vaqtda «Adolat» harakatining dasturiga yaqin bo‘lgan, o‘zlarini «Islom lashkarlari» deya nomlagan (Namanganda tuzilgan) yana bir guruhga Tohir Yo‘ldoshev rahbarlik qilardi. Keyinchalik O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov bunday deb eslagandi: «1991-yil 8-dekabrda men Namanganga borib aqlini yo‘qotgan, o‘ziga «Olloh lashkarlari» deb nom qo‘yib olganlar bilan, o‘sha Yo‘ldoshev Tohir bilan yuzma-yuz bo‘lganman. O‘shanda mendan ular islom davlatini, islom respublikasini hozir e‘lon qilasiz, deb talab qilishgan.

Soqoli tizzasiga tushadigan kimsalar odamlarning boshini aylantirib, shu masalalarni ko‘targanlari hali ham esimda, ovozlari hali ham qulog‘imda turibdi». Aslida bu tartibsizliklar, mitinglarning o‘sha vaqtdagi ommaviyligi kishilarning «Adolat», «Islom lashkarlari»ning g‘oyalari, ko‘rsatmalariga ergashish emas, balki shu guruhlar tomonidan uyushtirilgan yig‘ilishlarda ishtirok etganliklari uchun haq to‘lanar edi. Masalan, guruh varaqalarini yopishtirganlik uchun 50–100 dollar miqdorida haq to‘lanardi. 1990-yillar boshida tuzilgan «Tavba» guruhining asl maqsadi ham qonuniy hokimiyat organlarini almashtirish va ular tomonidan nazorat qilinadigan tuzilmalarni shakllantirishdan iborat edi.

1992-yilda O‘zbekistonda bunday guruhlar faoliyati qonundan tashqari, deb e‘lon qilingach, ularning faollaridan ko‘pchiligi Afg‘onistonga, Tojikistonga ko‘chib o‘tishdi. Qochqinlar orasida Tohir Yo‘ldoshev, Jumaboy Hojiyev degan kimsalar ham bor edi.

Keyinchalik ular ko‘plab ekstremistik tashkilotlar bilan har tomonlama aloqalar o‘rnatib, O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston, Pokiston kabi davlatlarda qo‘poruvchilik harakatlari ishtirok etishgan.

Ayniqsa, 1999-yilning 16-fevralida Toshkent shahrida terroristlar tomonidan uyushtirilgan portlashlar vaziyatni butkul beqarorlashtirish orqali mamlakatning turli joylarida bir qator terrorchilik amaliyotlarini rejalashtirgan edi. Aynan o‘sha kuni soat

11 ga yaqin Toshkent shahridagi sobiq «Nodirabegim» kinoteatri, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Ichki Ishlar Vazirligi kabi binolar yaqiniga qo'yilgan avtomashinalarga o'rnatilgan portlatish qurilmalari ishga tushdi. Lekin asosiysi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosi yonida sodir etildi.

Unda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ishtirokida mamlakat hukumatining 1998-yil yakunlari va 1999-yil ish rejalariga bag'ishlangan majlis bo'lib o'tishi belgilangan edi. Mazkur portlashlar natijasida 13 kishi halok bo'ldi, yuzdan ziyod odam turli darajada jarohatlandi. 50 dan ziyod ma'muriy va uy-joy binolari zararlandi.

1999-yil 28-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi-da terrorchilar ustidan bo'lib o'tgan sud jarayonida sudlanuvchilar ko'rsatmalari, jabrlanuvchilar va guvohlar, dastlabki tergov jarayonida yig'ilgan ashyoviy dalillar, tomonlarning fikrlari, ayblanuvchilarning so'zlari tinglandi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumni ag'darishga va hokimiyatni bosib olishga urinishda ayblangan 20 nafardan ziyod terrorchi ekstremist ustidan hukm o'qildi va ular o'z qilmishlariga yarasha qonuniy jazolandilar.

Toshkentdagi fevral voqealari qabih niyatli terrorchilarning navbatdagi hujumigina emasdi. Mintaqa uchun ko'z ko'rib, quloq eshitmagan bu terrorchilik harakati butun Markaziy Osiyoni qonga botirishni ko'zlagan dahshatli urushning boshlanishiga ishora bo'lishi kerak edi. Yuzaga kelgan vaziyatdan foydalanib, Tohir Yo'ldoshev toliblar bilan Termiz tomondan mamlakatga kirib kelishi, ayni mahalda J.Hojiyev otryadlari o'z jangarilari bilan Qirg'izistonning O'sh viloyati va Farg'ona vodiysi orqali O'zbekistonga kirishi kerak edi.

Lekin terrorchilik harakatlarining tashkilotchilari asosiy maqsadlariga erisha olmadilar. 1999-yil avgustda diniy ekstremistlarning qurollangan yirik to'dalari Tojikistondan Qirg'iziston hududiga bostirib kirishdi, chegara yaqinidagi bir necha qishloqni egallab, 12 nafar kishini garovga olishdi, ular orasida to'rt na-

far Yaponiya fuqarosi va Qirg'izistonning bir necha yuqori martabali shaxslari bor edi.

2000-yilning avgust oyi boshida terrorchilar O'zbekiston chegarasini bosib o'tishga urinishdi. Bu gal ular o'tish qiyin bo'lgan Sariosiyo va Uzun tumanlarida parokanda guruhlar bilan bir qatorda hujum qilishdi. 2000-yil 11-avgustda O'zbekiston hududida jangovar harakatlar boshlanishi bilan bir vaqtda jangarilarning 150 nafar kishigacha bo'lgan qurolli guruhi Tojikiston hududidan Voruk anklavi orqali Qirg'izistonning Botken viloyati baland tog'li Laylak tumaniga bostirib kirgan edi. Jangovar harakatlar jarayonida jangarilarning yuzga yaqin a'zosi yo'q qilindi, harbiylar ham talafot ko'rishdi.

2004-yil bahorida O'zbekiston bo'ylab terrorchilik harakati-ning yangi to'liqini yoyildi. 29-martga o'tar kechasi Toshkentda IIV ning bir qator xodimlariga hujumlar uyushtirildi, natijada uch ichki ishlar xodimi o'ldirildi, bittasi yarador bo'ldi. Shu kuni ertalab Toshkentda, Chorsu bozori hududida, «Bolarlar dunyosi» do'koniga kiraverishda xudkush terrorchi ayol portlovchi qurilmani ishga soldi. Ikki kishi halok bo'ldi, to'rt kishi yaralandi. Keyinroq Ko'kaldosh madrasasi yaqinida shahid tomonidan ikkinchi portlatish amalga oshirildi. Natijada 9 nafar ichki ishlar xodimi halok bo'ldi.

Shu kunning o'zida Buxoro viloyati Romitan tumanidagi Qahramon aholi punktida xususiy uyda 9 kishining, shu jumladan bir go'dakning hayotiga zomin bo'lgan yana bir portlash sodir etildi. Ma'lumotlarga ko'ra, portlash uskunasi terrorchilarga bomba tayyorlanadigan ustaxona sifatida xizmat qilgan uyda ishga tushgan.

2004-yil 30-iyulda Toshkentda uch nafar xudkush terrorchi AQSH va Isroil elchixonalari yaqinida, shuningdek O'zbekiston Bosh prokuraturasi binosi fayesida portlatish sodir etishdi. Portlash natijasida jami 4 nafar kishi vafot etdi va 14 nafar kishi turli darajada tan jarohati oldi. Uchala terrorchi o'zlari portlatish sodir etgan joylarda halok bo'lishdi.

2005-yil 12–13-may kunlari Andijon shahrida «Akromiyar» oqimi tomonidan mavjud konstitutsiyaviy tuzumni o'zgartirish maqsadida ko'plab odamlarni qurbon bo'lishiga hamda fuqarolar va davlat mulkiga katta zarar yetkazilishiga olib kelgan qator terrorchilik harakatlari sodir etildi.

2009-yilning 26-mayida Andijon viloyatida sodir etilgan mud-hish terrorchilik harakati oqibatida bir nafar huquqni muhofaza qilish idorasi xodimi halok bo'ldi. Bir necha fuqaro yarador bo'ldi.

Darhaqiqat, o'sha vaqtlarda mintaqadagi vaziyatning murakabligiga qaramay, davlatimizning oqilona siyosati, o'z vaqtida qat'iyat bilan ko'rgan chora-tadbirlari hamda xalqimizning kuchli irodasi tufayli mamlakatimizda tinch va osuda hayot saqlab qolindi. Yuqorida qayd etilgan bunday jinoyi harakatlar O'zbekistondagi tinch-osoyishta hayotni, barqaror rivojlanishni ko'ra olmaydigan g'araz niyatli kuchlar o'zlarining razil maqsadlari yo'lida begunoh odamlarning qonini to'kishdan ham tap tortmasligini ko'rsatdi.

1990-yillar boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasida ekstremizm asosan firqabozlikka asoslangan yangi guruhlarining paydo bo'lishi, norasmiy yo'l bilan diniy saboq berish, noqonuniy tarzda diniy mahsulotlar tayyorlash, olib kirish, tarqatish, missionerlik va prozelitizmning avj olishi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ldi.

Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan, O'zbekistonda bunday tahdidning yuzaga kelishiga quyidagilar sabab bo'ldi:

– «qayta qurish» davrida nafaqat siyosiy va iqtisodiy inqiroz, balki mafkuraviy parokandalik ham yuzaga kelgan edi. Sovet imperiyasi barbod bo'lgach esa, mafkuraviy bo'shliq o'zining xatarli oqibatlarini namoyon qildi;

– e'tiborli diniy ulamolar o'rnini soxta «islomchilar» egallashga intilishlari va ular tomonidan islom asoslari buzib talqin qilinishi boshlandi;

– aholining islom diniga bo'lgan katta qiziqishidan foydalalanib, xalqaro ekstremistik markazlar tomonidan mintaqada diniy mutaassiblik ruhidagi adabiyotlarni tarqatish kengaytirildi;

– din niqobi ostida faoliyat olib boruvchi, aslida ayrim davlatlarning g‘arazli geosiyosiy va geostrategik qarashlari natijasi o‘laroq shakllangan, qo‘poruvchilik maqsadini ko‘zlagan turli oqim va yo‘nalishlarga mansub xorijiy da‘vatchilar mintaqaga o‘z g‘oyalalarini olib kira boshladilar;

– istiqlol arafasida mintaqada davlatlari chegaralarining mustahkam emasligi turli ekstremistik kuchlarga narkotrafik, qurol-yarog‘larning noqonuniy savdosi orqali moliyaviy imkoniyatlarini mustahkamlab olishga va mintaqada bo‘ylab erkin harakat qilishga zamin yaratdi.

Qisqa qilib aytganda, sho‘ro davridan meros bo‘lib qolgan og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yuqorida qayd etilgan sabablar bilan qo‘shilib diniy ekstremistik oqimlarning shakllanishi va faollashuviga qulay sharoit yaratdi.

Umuman olganda esa, ekstremizm mintaqada yashirin, keyinroq ochiq-oshkora tashviqot va zo‘ravonlikka asoslangan faol harakatlar, so‘ng unga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar natijasida yana o‘ta maxfiy ishlash asnosida targ‘ibot olib borish va qo‘poruvchilik xurujlarini sodir etish kabi bosqichlarni bosib o‘tdi, deyish mumkin.

**Markaziy Osiyodagi barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solayotgan ekstremistik va terrorchi tashkilotlar.** Diniy ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligi rivojiga ko‘rsatgan salbiy ta‘siri Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzatilgan bir qancha mutaassib harakatlarning maqsadi tahlil qilinganida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Mintaqada asosan «Hizbut-tahrir», «Turkiston islom harakati», «Akromiyalar», «Nurchilar», «Islomiy jihod ittihodi» kabi guruhlarining faoliyati kuzatildi.

«**Hizbut-tahrir al-islomiy**» (arab. «Islom ozodlik partiyasi»). «Hizbchilar», «tahrirchilar» deb ham yuritiladi. Falastinlik Taqiyiddin Nabahoniy (1909–1979) mazkur ekstremistik tashkilotning asoschisi hisoblanadi. Isroil davlatini tashkil etish haqidagi BMT qaroridan keyin 1947-yilda oilasini olib, Falastindan Bayrutga ko‘chgan. Aslida Misrdagi «al-Ixvon al-muslimun»

(«Musulmon birodarlar») tashkiloti aʼzosi boʻlgan Nabahoniy 1953-yilda mazkur jamoa aʼzolidan chiqib, Quddus (Iyerusalim) da «Hizbut-tahrir al-islomiy» tashkilotini tuzgan. Nabahoniy vafotidan soʻng hizbga falastinlik Abdulqadim Zallum (1925–2003) boshchilik qildi. Uning rahbarligi davrida tashkilot sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan respublikalarda (asosan Markaziy Osiyo hududida) oʻz faoliyatini jadallashtirgan.

Dastavval Falastinni ozod qilishni maqsad qilgan Nabahoniy, keyinchalik butun dunyo musulmon mamlakatlarini birlashtiruvchi yagona xalifalik davlatini qurishni bosh maqsad deb eʼlon qilgan. Shundan keyin esa, ushbu shakllangan islom ummatining daʼvatlari orqali butun dunyoda xalifalik davlatini qurish mumkin, deb hisoblaydi.

Tashkilotning strategiyasi quyidagi uslublar orqali namoyon boʻladi:

- fikriy kurash. Bu omma orasida oʻzining «madaniy» qarashlarini targʻib qilish orqali boʻladi;

- fikriy inqilob. Bunda madaniy va siyosiy faoliyat olib borilib, hizbning fikrlari jamiyat ongiga singishi bilan yuzaga keladi;

- hukumatni egallash. Bu bosqich «tarbiyalangan ummat» orqali barcha hukmni qoʻlga olish bilan yakunlanadi.

Soʻnggi yillarda «Hizbut-tahrir»da gʻoyaviy yakdillik yoʻqolib, faoliyatida yuzaga kelgan samarasizlik tarkibiy boʻlinishlarga olib keldi. Undan «Hizbun nusra» guruhi ajralib chiqdi. Shuningdek, «Hizbut-tahrir»ning «Ayollar qanoti» kuchaytirilishi barobarida, ular orasida oʻzini oʻzi oʻldirish amaliyotidan keng foydalanilmoqda.

«Hizbut-tahrir»ning aʼzolari oʻrtasida taqsimlangan vazifalar aniq belgilangan boʻlib, unga koʻra, «Amir Qiyodat» (dunyo boʻyicha xalifalik davlatining eng katta rahbari), «Moʻtamad» (vakil, maʼlum bir davlat boshligʻi), «Masʼul» (javobgar, viloyat boʻyicha boshliq), «Naqib» (rahbar, rais, tuman boʻyicha boshliq), uning yordamchisi esa «Musoid» va undan keyingi lavozimdagilar «Jihoz aʼzolari» (boshqaruv idora aʼzolari) deb ataladi. Harakatga

kiruvchilarni o'qitishga mas'ullar «Mushrif» (guruh rahbari) deyilsa, o'quvchilarni «Doris» (o'quvchi) deb belgilangan.

«Hizbut-tahrir» jamoasi g'oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishi 1980-yillarning o'rtalariga to'g'ri keladi. Bu davrda jamoa ta'limotlariga oid chet davlatlarda nashr etilgan turli xildagi kitob, risola va jurnallar noqonuniy yo'llar bilan mintaqaga olib kiritildi. Mazkur tashkilot 1992-yildan boshlab, O'zbekiston hududida o'zining o'ta zararli faoliyatini olib borishga harakat qilib kelgan.

«Hizbut-tahrir»ning faoliyati O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Livan, Misr, Iordaniya, Germaniya, Rossiya, Pokiston va Suriya kabi bir qator davlatlarda qonun bilan taqiqlangan.

### **«Akromiylar».**

Asoschisining nomidan kelib chiqqan holda «Akromiylar» firqasi «imonchilar», «birodarlar», «xalifachilar» deb ham ataladi. «Hizbut-tahrir» tashkiloti asoschisi Taqiyiddin Nabahoniy asarlaridan ta'sirlangan holda 1992-yilda Akrom Yo'ldoshev (1963–2009) tomonidan Andijonda shakllantirilgan.

«Akromiylar»ning bosh g'oyasi – islomiy boshqaruv shaklidagi davlatni barpo etish hisoblanib, buning uchun bosqichma-bosqich harakat qilish, avval Farg'ona vodiysida xalifalik tuzumi barpo etish va keyinchalik uni mintaqaning boshqa hududlariga yoyish maqsad qilingan.

Akrom Yo'ldoshev «ilk diniy saboqlar»ini «Hizbut-tahrir» uyushmasida olganligi bois, o'z shaxsiy ta'limotini yaratishda harakatning nazariy va amaliy fikrlaridan yiroqlasha olmagan. Shu bois, «Islom nizomi», «Izzat va sharaf sari» va «Xalifalik» nomli «Hizbut-tahrir» adabiyotlaridan foydalangan holda o'n ikki darsdan iborat «Imonga yo'l» nomli kitobi orqali o'z diniy falsafiy qarashlarini bayon qiladi. Sekin-asta o'z atrofiga xayrixoh bo'lgan kishilarni yig'ib, mazkur kitob asosida darslar tashkillashtirgan va «Akromiylar» jamoasini shakllantirgan. Bu kitobdagi g'oya atrofida birikkan tadbirkorlar o'nlab korxonalar ochishadi. Bu korxonalaridagi ish tartibi go'yoki «islomiy adolat» tamoyillariga asoslangani aytiladi.

Harakat siyosiy hokimiyatga erishishning 5 ta – «sirli», «moddiy» («iqtisodiy»), «ma'naviy» («siyosiy»), «uzviy maydon» va «to'ntarish» («oxirat») bosqichiga asoslanadi. So'nggi ikki bosqich jamiyat «islomlashtirilgan»dan so'ng amalga oshirilishi va u orqali hokimiyatni butunlay egallash rejalashtirilgan.

«Akromiylar» o'zaro aloqalarni mustahkamlash maqsadida, tadbirkorlik bilan shug'ullanganlar hamda yangi a'zolari asosan qarindoshlar hisobiga o'zlarining savdo do'konlari, sarta-rosh-xona, novvoyxona, duradgorlik, qandolatchilik, kosibchilik va mebel ishlab chiqarish sexlariga ishga jalb qilish orqali kengaytirishga harakat qilganlar. «Akromiylar» yangi a'zolarga ertayu kech mavjud tuzumning kamchiliklari, o'zlarining go'yoki siyosatdan yiroq, kichik bo'lsada, haqiqiy «birodarlar jamoasi» muhitining «go'zal» jihatlarini uqtirib borish orqali ruhiy ta'sir o'tkazishga harakat qilganlar. Bunda ular hokimiyatni qo'lga olish bilan bog'liq rejalarini jamoaning asosiy qismidan sir tutganliklari hamda yangi tarafdorlar ularni siyosatga aloqasi yo'q deb bilganlari bois singdirilayotgan fikrlarga ko'nikib boraverganliklarini ko'rsatadi. Bu yo'ldagi amaliy da'vat uslubi boshqa mutaassib kuchlar yondashuvidan farqli bo'lib, ommaga mafkuraviy tuzoq qo'yishga asoslangan.

Akrom Yuldoshevning 2004-yil yozida «Akromiylar»ga tegishli qator idora va tashkilotlarning faoliyati to'xtatilib, rahbarlari hibsga olinganidan keyin, ularni ozod etish chora-tadbirlariga boshchilik qilgani aytiladi. Unga nisbat berilgan videoda Yo'ldoshev may oyining dastlabki kunlarida va 12-maydan 13-mayga o'tar kechasi ham Andijonda qanday voqealar yuz berayotganligidan doimo xabardor bo'lib turganligini aytgan edi. Ma'lumki, 2005-yil 12–13-may kunlari Andijon shahrida «Akromiylar» oqimi mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'darish maqsadida ko'plab odamlarning qurbon bo'lishiga hamda fuqarolar va davlat mulkiga katta zarar yetkazilishiga olib kelgan terrorchilik harakati sodir etgan.

Hozirgi vaqtda G'arbda «Akromiylar» yangi diniy-siyosiy guruhlar tarkibida faoliyatni davom ettirmoqda. Jumladan, oqim



tarafdorlari Germaniyaning Dyusseldorf shahrida 2009-yilning may oyida «Andijon – Adolat va Tiklanish» tashkiloti tashkil qilgan. 2011-yilda «Akromiyar» jamoasi va ularga moyil boʻlgan «Andijon – Adolat va Tiklanish», «Tanyach» tashkilotlari va «Erk» partiyasi ishtirokida «Oʻzbekiston xalq harakati» nomli uyushma tuzilgan. Ushbu harakat aʼzolari tomonidan «ozodlik», «eʼtiqod erkinligi», «inson huquqlari» kabi jozibali tushunchalar ishlatilib, turli yoʻllar, masalan, Internet tizimi orqali asosan yurtimiz yoshlarini oʻz saflariga qoʻshishga harakat qilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan holatlar ham jaholat ogʻir oqibatlarini keltirib chiqarishini koʻrsatadi. Shunday ekan, odamlar ongi va qalbida maʼrifatning mutlaq ustuvor boʻlishiga erishish, kishilar tafakkurini boyitish, ularda sogʻlom va sobit eʼtiqodni shakllantirish uchun kurash, bu yoʻldagi nazariy va amaliy ishlarining hozirjavobligini taʼminlash, taʼsirchanligini oshirish dolzarb vazifalardan biri boʻlib qolaveradi. Zero, Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov oʻrinli taʼkidlaganlaridek, odamning oʻz mustaqil fikriga, sobit eʼtiqodiga, oʻzi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyatlar, shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega boʻlishi har turli mafkuralarning bosimi, ularning goh oshkora, goh pinhona koʻrinishdagi tazyiqlariga bardosh berishining asosiy sharti hisoblanadi.

**«Turkiston islom harakati» (sobiq «Oʻzbekiston islom harakati»)** diniy-ekstremistik va terrorchi tashkilot. Ushbu tashkilot 1996-yilda «Oʻzbekiston islom harakati» nomi ostida tashkil etilgan. Harakatni shakllantirishda 1992–93-yillarda Oʻzbekistonda faoliyati taqiqlangan «Adolat uyushmasi» (Namangan), «Islom uygʻonish partiyasi» (1990-yil Astraxanda asos solinib, 1991-yil yanvaridan Oʻzbekistonda faoliyat koʻrsatgan), «Odamiylik va insonparvarlik» (Qoʻqon), «Turkiston islom partiyasi», «Islom lashkarlari» (Namangan) kabi diniy-ekstremistik guruhlarining sobiq faollari ishtirok etgan.

Tashkilotning asosiy maqsadi Markaziy Osiyo hududida «Buyuk islom xalifaligi»ni tuzish, unda musulmonlar yashaydigan Kavkaz va

Rossiya Federatsiyasining Volgabo'yi respublikalarini qamrab olishdan iborat. Tashkilot o'z maqsadiga erishish uchun qo'poruvchilik va terrorchilik harakatlarini amalga oshirish, harbiy harakatlar uyushtirish, odamlarni garovga olish orqali mintaqadagi ichki siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish kabi vositalardan foydalanadi.

«Turkiston islom harakati» guruhi jangarilari 1999-yili Toshkent shahri va viloyatida, 2000-yili Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida, 2004-yili Toshkent va Buxoroda, 2005-yili Andijonda, shuningdek, 1999, 2000 va 2006-yillarda qo'shni Qirg'izistonda, 2006-yili Tojikistonda terrorchilik harakatlarini amalga oshirishda ishtirok etgan. Mazkur guruh mintaqadagi terrorchi tashkilotlar bilan yaqin aloqaga ega.

«Turkiston islom harakati» so'nggi yillarda talafotlar, strukturaviy o'zgarishlar, rahbar a'zolar orasidagi yo'qotishlarga duch keldi. Hozirda g'oyaviy targ'ibot kuchaytirilib, bosma va elektron nashrlar tarqatilishiga katta urg'u berilmoqda.

**Nurchilik.** «Nurchilik» (turk. nurculuk) diniy mutaassib harakat. Xalq tilida «Nurchilar» degan nom bilan ham mashhur. Turkiyaning Bitlis viloyatidagi Nursa qishlog'ida tug'ilgan Said Nursiy (1876–1960) bo'lib, «Badiuzzamon» (arab. zamona-ning buyugi, benazir) laqabi bilan tanilgan. Harakat uning asoschisi tomonidan XX asrning 20-yillaridagi Turkiyadagi siyosiy va diniy vaziyatning o'zgarishi ta'sirida, xususan, Mustafa Kamol Otaturkning dunyoviy davlat tuzishiga qarshi muxolif ravishda shakllantirilgan. Said Nursiy Turkiya Respublikasi konstitutsiyasi tuzumiga tahdidi va shariatga asoslangan davlat tuzishni uyushtirishda ayblanib, sudlandi va 23-yil umrini qamoqda o'tkazdi.

Harakat g'oyasi Nursiy tomonidan yozilgan 14 jilddan iborat Qur'on oyatlarining sharhlari va diniy ko'rsatmalardan iborat «Risoi Nur» kulliyoti kitobiga asoslanadi. «Nurchilik» hukumat tomonidan ta'qib qilingani uchun mazkur kitob 1954-yilgacha biror-bir nashriyotda chop etilmay, harakat faollari tomonidan qo'lda ko'chirilib, xalq orasida maxfiy tarqatilgan. Harakat a'zolari manbaning muhimligini ko'rsatishda Badiuzzamonning

«Ilm uchun Risolai Nurni o‘qish va ko‘chirib yozish kifoya, boshqa hech narsa kerak emas», degan fikrini ilgari suradi.

Turkiyaning amaldagi davlat tuzumi o‘rniga islom shariatiga muvofiq qonun-qoidalarini joriy qilish «Nurchilik»ning asosiy g‘oyasi hisoblanadi. Keyingi bosqichda go‘yoki, turkiyzabon davlatlarni Turkiya soyasida birlashtirib, islomiy davlatni barpo etish g‘oyasi ilgari surilib, bunda harakat rahnamosi Fathulla Gyulening «Butun Yer yuzi Allohning mulki, uni bu meniki, bu seniki, deb bo‘lib olishga hech kimning haqqi yo‘q» degan fikr ostida boshqa xalqlarni Vatan tuyg‘usidan ajratib, ular ustidan hukmronlikni qo‘lga kiritish ko‘zlanadi.

Harakatning strategiyasi uzoq davrga mo‘ljallangan bo‘lib, asta-sekinlik bilan yoshlarga mutaassib diniy g‘oyalarni singdirib borish hamda panturkizm g‘oyalarini singdirish va kelajakda ularning rahbar lavozimlarga tayinlanishi orqali «Nurchilik» jamoasiga moyil shaxslarni hokimiyat tepasiga chiqarishga asoslangan.

Nurchilar strategiyasida Kavkaz, Bolqon va Markaziy Osiyo mintaqasi alohida o‘rin tutadi. Fathulla Gyulen fikricha, harakatning bu hududlarda ustuvor mavqega erishishi Usmonlilar davridagi kabi «Buyuk Turon» tiklanishiga xizmat qiladi. Uning ko‘rsatmalariga rioya qilgan nurchilar til, din va madaniyatlar birligini hamda zamonaviy fikrlaydigan kadrlar tayyorlashda yordam berishni iddao qilgan holda Markaziy Osiyo davlatlarida ham paydo bo‘ldi.

Bu oqimning Markaziy Osiyo mintaqasiga kirib kelishi 1992-yildan boshlab kuzatilgan. Dastlab oqim g‘oyalari turkiyalik mutaassiblarning moddiy va ma‘naviy ko‘magida yetkazilgan. Ular tomonidan mintaqa mamlakatlarida ochilgan 128 ta litseydagi ta‘lim jarayonida yangi pedagogik va psixologik texnologiyalar hamda metodlardan samarali foydalanilgani ularning dovrug‘i tarqalishiga va aholi tomonidan ijobiy qabul qilinishiga zamin yaratdi. «Nurchilar» harakatining rejasiga ko‘ra, 10–15 yillardan so‘ng ular faoliyat olib borgan mamlakatning yirik siyosiy arboblari va tijoratchilari bo‘lib yetishishlari kerak edi. Mintaqa davlatlari televideniyealariga beg‘araz deya taqdim etilgan

diniy mazmundagi film va turli yo'llar bilan keng tarqalgan kitoblar yordamida ham «Nurchilik» g'oyalarini yoyish ishlari olib borildi. Bizga qo'shni bo'lgan ayrim davlatlarda bunday amaliyot bugungi kunda ham davom etmoqda.

Bu oqimning Markaziy Osiyoga kirib kelishi 1992-yildan boshlab mintaqa mamlakatlarida turk litseylarining ochilishi orqali namoyon bo'ldi. «Nurchilik» harakatning «Silm» tarmog'i muassislik qilgan, moddiy-texnik ta'minoti «Osiyo finans» tashkiloti tomonidan moliyalashtirilgan 128 ta litsey ochildi. Litseydagi ta'lim jarayonida yangi pedagogik va psixologik texnologiyalar hamda metodlardan samarali foydalangan holda mashg'ulotlar olib borilgani ularning dovrug'i tarqalishiga va aholi tomonidan ijobiy qabul qilinishiga zamin yaratdi.

Mintaqa davlatlari televideniyeleriga beg'araz deya taqdim etilgan diniy mazmundagi film va turli yo'llar bilan keng tarqalgan kitoblar yordamida ham «Nurchilik» g'oyalarini yoyish ishlari olib borildi.

«Nurchilik» harakatining O'zbekistonga kirib kelishi mustaqillik yillarining boshlariga borib taqaladi. Ular Turkiya bilan bo'lgan milliy va madaniy aloqalar soyasi ostida Turk-o'zbek litseylari faoliyatini moliyalashtirib, o'zbek yoshlarini harakat g'oyalari domiga tortmoqchi bo'ldilar. Harakatning asl maqsadlari fosh bo'lgach, 1999-yil uning faoliyati taqiqlanib, mamlakatdagi litseylar yopildi. Shuningdek, harakat a'zolarining O'zbekistondagi ikkinchi g'ayriqonuniy urinishlari sifatida tashkil etilgan o'quv markazlari, chop etilgan gazeta va jurnallar hamda teleko'rsatuvlar aniqlanib, ularning faoliyati ham tugatildi. Ming afsuski, bizga qo'shni bo'lgan ayrim davlatlarda bunday amaliyot bugungi kunda ham davom etmoqda.

«Nurchilik» ochiqdan-ochiq konstitutsion tuzumga qarshi kurash, «islom davlati»ni qurish g'oyalari mavjud bo'lmasada, mazmun va mohiyat jihatidan uning g'oyalari va ushbu oqim tomonidan chop qilingan adabiyotlar fundamentalistik ta'limotlarning aholi orasida ildiz otib ketishiga asos yaratib, ja-

miyat barqarorligiga xavf soluvchi mutaassiblik g'oyalari targ'ib etishga xizmat qiladi. Harakatning g'oyalari va faoliyatiga Turkiya jamiyatining o'zida ham ziddiyatli munosabat mavjud.

**Islomiy jehod ittihodi.** «Islomiy jehod ittihodi» (arab. «Ittihad al-jihad al-islamiy»). Mazkur guruhning «Islom jehodi», «Islom jihodi uyushmasi», «Islom jihodi – mujohidlar jamoati» nomlari ham mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra, guruhga avvallari «Turkiston islom harakati»ning a'zosi bo'lgan, o'zini «amir» deb e'lon qilgan Najmiddin Jalolov asos solgan. Mutaxassislar «Islomiy jehod ittihodi» guruhi «Turkiston islom harakati»dan ajralib chiqqanini e'tirof etishadi. Bunga moliyaviy masalalar, strategiya va maqsadlar bo'yicha «Turkiston islom harakati»ning rahbari bilan bir guruh jangarilar o'rtasida ixtilofning yuzaga kelishi asosiy sabab bo'lgan.

Guruhning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi hukumatiga qarshi chiqish, konstitutsiyaviy tuzumni ag'darish, terrorizm orqali islom xalifaligini o'rnatishdan iborat. Ushbu maqsadda guruh Afg'oniston, Pokiston va Kavkazdagi xalqaro terrorchi jamoa va tashkilotlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatgan.

Ushbu guruh Markaziy Osiyo mintaqasidagi faoliyati davomida bir qator teraktlar sodir etgan. Guruh a'zolari tomonidan 2009-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyatida qo'poruvchilik harakati sodir etilgan. Shuningdek, 2009-yilning yoz oylarida ular tomonidan Toshkent shahri, Qashqadaryo hamda Toshkent viloyatlarida amalga oshirilgan qotillik va bosqinchiliklar natijasida 3 kishi halok bo'lgan, 24 fuqaro turli darajada tan jarohati olgan.

«Islomiy jehod ittihodi» bugungi kunda «Internet» tarmog'i orqali targ'ibot ishlari o'tkazish va mehnat migrantlari ichida yollash ishlari o'tkazish kabi usullar bilan o'z safini yangi jangarilar bilan to'ldirishga harakat qilmoqda.

Yuqorida qayd etilgan diniy-ekstremistik tashkilotlar Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan O'zbekiston xavfsizligiga tahdid solgani yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda o'z aksini topgan. Shunga mos ravishda, O'zbekistonda ham ekstremizm va

terrorizmga qarshi kurash bo'yicha salmoqli tajriba to'plangan. Mazkur tajribadan kelib chiqadigan eng asosiy xulosa shuki, ekstremizm va terrorizm bilan kurashda, asosan, huquq-tartibot organlariga suyanish, faqat jazo choralarini qo'llash orqali unga barham berishga intilish mazkur salbiy hodisaning oqibati bilan-gina kurashish deganidir. Boshqacha aytganda, bunday yo'ldan borilsa, ekstremizm va terrorizmni oziqlantirib turgan «ildiz»lar zararlanmay qolaveradi, ma'lum bir davr o'tishi bilan ular yangi «kurtak»lar berishda davom etaveradi.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Diniy ekstremizm va terrorizmning Markaziy Osiyoda namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
2. Diniy ekstremistik harakatlar tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan qanday g'arazli maqsadlar ko'zlangan?
3. Markaziy Osiyoda faoliyat yuritishga intilayotgan qanday diniy ekstremistik tashkilotlar mavjud?
4. Mintaqada faoliyati kuzatilgan terrorchi guruhlarining faoliyat uslublari, tashkiliy tuzilmasining o'ziga xos jihatlari haqida nimalarni bilasiz?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Aliyev J. Zulmat girdobi. — Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. — 32 b.
2. G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. — Toshkent: «O'zbekiston», 2013. — 312 b.
3. Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyushmalar (Ma'lumotlar to'plami). / K.Shermuxamedov, J.Karimov. — Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2014. — 160 b.
4. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. — Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. — 552 b.

## 7-mavzu. ISLOM ASOSLARINI G‘ARAZLI MAQSADLARDA BUZIB TALQIN QILISH: MOHIYAT VA MAQSADLAR

1. Islom asoslarini g‘arazli maqsadlarda buzib talqin qilish: mohiyat va shakllar.

2. Sof islomiy tushunchalar: asliyat va talqinlar («takfir», «jihod», «shahidlik», «hijrat», «mazhabsizlik»).

**Tayanch so‘z va iboralar:** *kufir, takfir, jihod, hijrat, shahidlik, mazhab, mazhabsizlik, Imom Abu Hanifa, Imom Molik, Imom Shofe‘iy, Imom Ahmad.*

**Islom asoslarini g‘arazli maqsadlarda buzib talqin qilish: mohiyat va shakllar.** Islom niqobi ostida faoliyat ko‘rsatayotgan ekstremistik harakatlarning inson ongi va qalbini egallash maqsadida har qanday razil yo‘llardan foydalanish hollari avj olayotganini afsus bilan qayd etish lozim. Bunday kuchlarning dinimiz asoslarini, Qur‘on oyatlari va hadislarning asl mohiyatini buzib talqin qilishi, jamiyat hayotiga tahdid soladigan ishlarni go‘yoki, islom dini ko‘rsatmasi o‘laroq sodir etayotgani esa, ularning har qanday qabih ishlardan ham qaytmasligidan dalolat beradi.

Voqelik shuni ko‘rsatmoqdaki, ular Yer yuzining turli nuqtalarida davlatga qarshi targ‘ibot olib borish, jamiyat asoslarini, mamlakatdagi tinchlik va tartibni, mavjud tuzum va boshqaruv tizimini izdan chiqarishda ham islom dini g‘oyalarini g‘arazli talqin etish uslubidan faol foydalanmoqda.

Quyida ekstremistlar o‘zlariga bayroq qilib olgan ba‘zi g‘oyalar va tamoyillar tizimli tahlil qilinib, ularning islom ta‘limoti asoslariga mutlaqo zidligi birlamchi manbalar – Qur‘oni Karim oyatlari va hadislariga tayangan holda ochib beriladi.

«*Takfir*» – (arab. «kufirda ayblash») musulmonni imonsizlikda, kofirlikda ayblash.

Islom dini ta‘limotiga ko‘ra, Allohning yagonaligi, Payg‘ambar Muhammad (a.s.) uning elchisi ekaniga imon keltirgan, islom diniga e‘tiqod qiladigan har qanday kishi mo‘min hisobla-

nadi. Insonning imonini o'ldirash, uni musulmon yoki kofirligini aniqlash huquqi hech kimga berilmagan. Chunki imon inson qalbidida bo'ladi. Qalb esa, faqatgina Allohning hukmidadir. Lekin bugungi kunda ko'plab diniy-ekstremistik guruhlar musulmonlarga «kofir» deb ayb qo'yib, dindoshlariga qarshi «jihod» e'lon qilishgacha bormoqda. Ayrim radikal oqimlarning o'z jamoatlaridan chetlashgan, «hijrat» qilmagan, ularning nazdida kofir hisoblangan kishini kofir demaydiganlarni «kufr»da ayblayotgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi. Vaholanki, islom ta'limotiga ko'ra, shirkdan tashqari har qanday gunoh qilgan inson toki o'sha gunohini halol deb hisoblamas ekan, kofir bo'lmaydi. Musulmonlar jamoasidan chetlashish esa, faqatgina islomni tark etish (murtadlik)da namoyon bo'lishini inobatga oladigan bo'lsak, ekstremistlarning o'z jamoalaridan chiqqanlarni kofirlikda ayblashi butunlay asossiz ekanini anglash mumkin. Hadisda «Kimki mo'min kishini «kofirsan» deb haqoratlasa, go'yoki uning qonini to'kkanchalik gunoh qilgan bo'ladi» deyiladi. Ya'ni, hech kimga musulmon insonni «kofir» deb hukm chiqarish huquqi berilmagan.

«*Hijrat*» (arab. «bir joydan ikkinchi joyga ko'chish», «tark qilish»). Istilohda esa, Rasululloh (a.s.) davrlaridagi musulmonlarning Habashistonga, keyinchalik Rasululloh (a.s.) o'zlari boshchiligida Madinaga ko'chib o'tishlariga aytiladi.

Payg'ambar Muhammad (a.s.) Makka shahrida yashar ekanlar chiroyli xulqi va insonlarga bo'lgan go'zal muomalasi bilan yon-atrofdagi kishilarning islom diniga qiziqishiga sabab bo'layotgandi. Bu esa, o'z navbatida musulmonlarning sonini kun sayin ortib borishiga turtki bo'lar edi. Bundan tashvishga tushgan Makka mushriklari Rasululloh (a.s.)ga suiqasd uyushtirib, u kishini qatl qilishga kelishadilar. Biroq Alloh taolo o'z Rasulini fitnadan ogoh qilib, Madinaga hijrat qilish to'g'risida vahiy yuboradi.

Ulamolar hijrat to'g'risida nozil bo'lgan oyat va hadislarini o'rganib, uni ikki qismga ajratadilar. Birinchisi, yuqorida ta'kidlangan «ko'chish» ma'nosidagi hijrat bo'lib, bu borada Qur'oni



Karimning «Niso» (97- va 100-oyatlar), «Anfol» (74-oyat), «Nahl» (41- va 110-oyatlar) suralarida bayon qilingan. Mazkur manbalarda islomga nisbatan qarshi turgan makkaliklar tomondan musulmonlarni turli ko‘rinishda azoblash hamda ularni o‘z tanlagan e‘tiqodlaridan voz kechtirish maqsadida jismoniy va boshqa ko‘rinishlardagi zo‘rlıklar ishlatilgani bayon qilinib, dinlari va hayotlarini saqlash maqsadida tinch va osoyishta joyga ko‘chish buyurilgani ta’kidlanadi.

Ikkinchisi, inson gunohlardan o‘zini tiyishi va ularni tark qilishi tushuniladi. Bu borada Imom Buxoriydan rivoyat qilingan quyidagi hadisi sharif dalil sifatida keltiriladi. Rasululloh (a.s.): «Tili va qo‘lidan boshqalar aziyat chekmagan kishi haqiqiy musulmondur. Alloh taolo qaytargan narsalardan hijrat qilgan inson haqiqiy muhojirdir», deyilgan. Ulamolarni hadisni sharhlab, undagi «hijrat»dan murod «tark qilishdir», deganlar. Boshqa bir hadisda esa, Ummu Anas (r.a.) Rasululloh (a.s.)dan nasihat qilishni so‘raydilar. Shunda, Rasululloh (a.s.): «Gunohlardan tiyilgin, o‘sha hijratning eng kattasidir. Farzlariga rioya qilgin, o‘sha jehodning eng afzalidir. Zikrni ko‘paytirgin, qiyomat kuni Alloh taoloning huzuriga borganingda unga eng mahbub amal shu bo‘ladi», deyilgan. Lekin islom dini aqidasi buzib, g‘araz maqsadlarni ko‘zlayotgan kimsalar «hijrat qilmaganlar kofir, konstitutsion tuzumlar o‘rnatilgan yurtlarda yashamoqlik kufr» degan soxta da’vo bilan vatandoshlarimizni aldab, xorijdagi jangarilar tayyorlanadigan markazlarga jo‘natishga harakat qilmoqda. Vaholanki, ona yurtini tashlab, o‘zga ellarda sarson-sargardon yurish, o‘zi kabi manqurt shaxslar bilan birlashib, kindik qoni to‘kilgan yurtiga qarshi qurol ko‘tariش islom ta’limotiga ziddir.

«*Jihad*» (arab. «g‘ayrat qilish», «kuchni ishga solish») so‘zi «jiddu-jahd», ya’ni inson o‘z maqsadiga erishish yo‘lida bor imkoniyatlarini ishga solib, harakat qilishini anglatadi.

Istilohda esa, ushbu so‘z bir qancha ma’nolarda ishlatiladi. Jumladan, «jihad» – Allohning yo‘liga da’vat qilish, yaxshilikka

chaqirish va yomonlikdan qaytarish, Alloh yo'lida insonning o'z havoyi nafsiga qarshi kurashi, ota-onaga xizmat qilishi va yovga qarshi kurashishdek turlari mavjud. Bunga dalil sifatida Imom Termiziydan rivoyat qilingan quyidagi hadisi sharifda «*Jihodning afzali Alloh taoloning roziligini deb inson o'z havoyi nafsiga qarshi jihod qilishidir*», deyilgan. Shuningdek, Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyat qilgan: «*Bir kishi Rasululloh (a.s.)ga: «Men jihodda qatnashmoqchiman», dedi. U zot: «Ota-onang bormi?» deb so'radilar. «Ha», deb javob qildi u kishi. Shunda Payg'ambar (a.s.): «Ular-ning huzuriga borib, yordam ber, xizmatini qil! Shu sening jihodingdir», dedilar*». Shundan kelib chiqqan holda, musulmon ulamolalar farzandning ota-onaga qilgan xizmati ham jihod bo'lishini ta'kidlaganlar.

Bugungi kunda islomga oid munozaralar va islom amaliyotida jihod masalasiga e'tibor qaratilishi uning eng ko'zga ko'ringan xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Islom dinining boshqa ko'plab turli jihatlar bilan bir qatorda jihod atamasining tarixi hamda ma'nosi ham keng qamrovli va murakkab sanaladi. Birlamchi muammo soddalashtirishga bo'lgan da'vatlarning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflab berishdan iboratdir. Islom dinining tajribaviy o'ziga xosligi va universal tushunchaning muayyan bir tilda ifodalanishi Qur'on nozil bo'lishi o'z nihoyasiga yetib, 632 yilda Payg'ambar (a.s.)ning vafoti davrida boshlaganligini aytib o'tish adolatdan bo'lar edi. Umumiy va ochiq monoteizm universalligi islomdagi besh farzning birinchi qismi, ya'ni «Allohdan o'zga iloh yo'qdir», degan tavhid kalimasidagi iborani qabul qilgan. Bu narsa islomda bo'lgani kabi xristian yoki yahudiy e'tiqodi tomonidan ham osonlik bilan amalga oshirilishi mumkin edi. Biroq uning «Muhammad Uning payg'ambaridir», degan ikkinchi qismida Muhammad (a.s.)ga qilingan vahiyning afzalligiga urg'u berilgan. Jihod atamasining ma'nosi huquqiy va ilohiy mazmunda ushbu keng tajribaga asoslangan afzallik kontekstida ko'rsatib o'tilgan bo'lib, u islom dini o'zidan oldingi ikkita «Ibrohimiy» vahiyalarini o'rnini egallashi haqidagi aqidani ilgari suradi.

Jihadga aqida sifatida qaraydigan bo'lsak: Xadduriyga ko'ra, jihadning umumiy ma'nosi «inson o'z kuch-quvvatini Allohning yo'lida sarflashi, ya'ni Allohga bo'lgan imonni tarqatish va Uning Kalomini ushbu dunyoda eng oliy qilish», deganidir. Aslida jihat atamasi ijtihod etimologiyasidan olingan bo'lib, Allohning vahiy-si va Qonunini tushunish uchun lozim bo'lgan sharhlarni amalga oshirishda «jahd qilish» yoki «mashaqqat chekish» ma'nolarini anglatadi. Jihad atamasining umumiy ma'nosi muvaffaqiyatga erishish yo'lidagi burch ma'nosi bilan amalda sinonim hisoblana-di, biroq nazariy jihatdan u urush ma'nosini anglatmaydi. keng qamrovda aytiladigan bo'lsa, ushbu atama salafiylar uchun urush, toza va oddiy degan ma'nolarni bildiradi, ezoteriklar uchun esa ma'naviy va aqliy kurash ma'nosini anglatadi.

*Qur'onda bir nechta ochiq-oydin oyatlar mavjud (6:108 yoki 22:77), ushbu o'rinlarda masalan jihat atamasi «jahd qilish» yoki «kuchini sarflash» ma'nolarida ishlatilgan. Eng ko'p keltiriladigan oyatlarda (4:95 yoki 61:10–13) jihat atamasi yaqqol «Alloh yo'lidagi kurash» ma'nosini anglatadi. Boshqa oyatlarda esa himoyaviy urush (22:39–40) yoki imonni himoya qilish (6:125) ma'nolarini anglatib keladi. Shuningdek, juda ko'plab qiziqarli filologik muammolar ham mavjud bo'lib, ular Qur'ondan foydalanish haqidagi har qanday umumiy lashtirishni to'g'ri-lashi mumkin. Biz ularni nafaqat filologik noqobillikning yuqorida zikr qilib o'tilgan asoslarida e'tiborga arzigulik emas deb bilamiz, balki O'rta Sharqdagi salafiylar va islomning an'anaviy olimlari o'rtasida keng tarqalgan kelishuv mavjud bo'lganki, unga ko'ra Makkadagi ilk vahiy-larda asosiy urg'u imon masala-lariga qaratilgan, keyinchalik bu narsa til jihodi deb nomlangan (qarang: 39:5). Madinadagi so'nggi vahiy-larda esa jihat asosan kurash va urush ma'nolariga ega bo'lgan, keyinchalik bu nar-sa qilich jihodi deb atalgan (qarang: 2:215, 9:41, 49:15). Keyin-chalik qo'shimcha farqlar ham aytib o'tilgan: «Qalb jihodi» shaytonning vasvasalariga qarshilikni anglatgan; xuddi shun-day tarzda «Qo'llarning jihodi» asosan to'g'ri narsani qo'llash*

*va noto'g'ri narsani o'zgartirish ma'nosi bilan keltirilgan. Ayni vaqtda zamonaviy olimlar uchinchi bobda qayd qilib o'tilgan ke-  
lib chiqish manbalari, Qur'onning yakuniy tahriri sanasini bel-  
gilash, xristian manbalarining ta'siri va hokazo masalalar tufay-  
li Qur'onning ilk va so'nggi suralari o'rtasidagi farqni o'rganib  
chiqishgan.*

Rasululloh (a.s.) Makkadan Madinaga hijrat qilganlaridan so'ng, Madinada musulmonlar uchun oldin bo'lmagan nar-  
sa, ya'ni davlat yuzaga keldi. Payg'ambar Muhammad (a.s.) islomning ilk – Makka davrida yuqorida keltirilgan, jang ma'no-  
si bo'lmagan jihodni olib bordilar. Chunki, u kishi mushriklar yetkazgan azob va uqubatlarga sabr qilish hamda ular bilan faqat Qur'on asosida mujodala – bahs yuritish, to'g'ri yo'lga da'vat qi-  
lishga buyurilgan edilar.

Musulmonlar Madinaga ko'chib o'tganlaridan so'ng, Alloh taolo musulmonlarga mushriklardan o'zlarini mudofaa qilishga ruxsat berdi. Bu borada Qur'oni Karimda: **«(Mushriklar tomo-  
nidan) hujumga uchrayotgan (musulmon)larga, mazlum bo'lgan-  
lari sababli (jang qilishga) izn berildi. Albatta, Alloh ularga yor-  
dam berishga qodirdir»** (*Haj, 39*), deb ta'kidlanadi. Shu asnodan, hijratning ikkinchi yilida Vatan mudofaasi mazmunidagi jihod-  
ga izn berildi.

Ushbu oyat tafsirida aytilishicha, «Payg'ambarimiz Muham-  
mad (a.s.) Makkada turgan yillari musulmonlar mushrik va ko-  
firlardan har qancha aziyat chekkan, turli tazyiq va zulmu istib-  
dodlarga duchor bo'lsalar ham, Alloh kufr va shirk ahliga qarshi  
jang qilishga ruxsat bermagan, balki ular bilan murosa qilishga,  
sabr-qanoatli bo'lishga buyurilganlar».

Islom tarixini chuqur o'rgangan mutaxassis olimlar, tarix-  
da yuz bergan har qanday jihod, faqatgina, mudofaa maqsadida  
olib borilganini ta'kidlaydilar. Xususan, suriyalik mashhur ulamo  
Ramazon Butiy: «Musulmonlar tomonidan olib borilgan jihod  
yov bostirib kelganda himoya maqsadida yoki dushman taraf-  
dan hujum xavfi paydo bo'lganda unga qarshi borish uchungina

yuz berganini ko‘rish mumkin», deb ta’kidlagan. Lekin, bugungi kunda g‘arazli maqsadlarni ko‘zlab, olib borilayotgan urushlarni «jihod» deb atalayotgani mutlaqo asossizdir.

Islom ta’limotiga ko‘ra, musulmon bo‘lmaganlar bilan o‘zaro muloqot o‘rnatishning asli tinchlik orqalidir. Mudofaa mazmunini anglatuvchi jihod joriy qilinishining asl sababi ham «doimiy tinchlik»ni saqlab turish bo‘lgan. Shunday ekan, tinchlikning bir uchquni sezilgan zahotiyuq uni qabul qilish har bir musulmondan talab qilinadi. **«Agar ular sulhga moyil bo‘lsalar, Siz ham unga moyil bo‘ling va Allohga tavakkul qiling!»** (*Anfol, 61*).

Bu borada islom tarixida yuz bergan Hudaybiya sulhida Payg‘ambarimiz (a.s.)ning tinchlik uchun ko‘rsatgan marhamatlari ma’lum va mashhurdir. Unda Rasuli Akram raqib tomonining juda noo‘rin talablariga ham ko‘nib, sulh, tinchlik o‘rnatishga qanchalik intilish kerakligini musulmonlarga ta’lim berib ketdilar. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, mudofaa ma’nosidagi jihod xalqaro shartnomalar va davlatlar o‘rtasida o‘zaro kelishuvlar bo‘lmagan bir holatda yuz bergan. Bugun esa bularning barchasi o‘zgardi. Deyarli barcha davlatlar xalqaro tashkilotlar a‘zolari bo‘lib, turli hamkorlik shartnomalari, bitim va protokollarga imzo qo‘yganlar. Shunday ekan, butun dunyo davlatlari islom ta’limotlariga ko‘ra «muohad» ya’ni «ahd qilingan» toifasiga kiradi. Rasululloh (a.s.) bir hadislarida shunday dedilar: **«Kim muohadni o‘ldirsa, jannatning hidini hidlamaydi. Jannatning hidi qirq yillik masofadan taralib turadi»** (*Imom Buxoriy rivoyati*).

Shariatga oid matnlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, Alloh taologa yaqinlashtiruvchi har qanday ezgu ish jihod hisoblanadi. Masalan, ota-onaga yaxshilik qilish, nafsiga qarshi kurashish va boshqa. Hadislarda **«U ikkisi (ya’ni ota-ona) borasida (xizmatlarini qilib) jihod qilgin»** (*Imom Buxoriy rivoyati*), **«Mujohid – Alloh taolo itoatida o‘z nafsiga qarshi kurashgan kishidir»** (Imom Ahmad rivoyati) deyiladi. Shunday ekan, islom jannatga kirishga hamda do‘zaxdan uzoqlashishga sabab bo‘luvchi Alloh taoloning zikri, insonlarga yaxshilik qilish, yer yuzida osuda hayot

kechirish kabi jihodga, ya'ni sa'y-harakat qilishga chaqiradi. Zero, asl jihod — islom ta'limotiga ko'ra — Alloh taologa yaqinlashtiruvchi solih amallarni o'z ichiga oladi. Binobarin halol tijorat, ishlab chiqarish yoki quduq qazib suv chiqarish kabi ishlar ham shular jumlasidandir. Demak, tinchlikka raxna solish, jamiyat ravnaqi va xalq farovonligiga ziyon yetkazish, fitna qo'zg'atish, toifalarga bo'linib o'zaro nizolashish umuman islom diniga yot holat hisoblanadi. Buni quyida keltirilayotgan Qur'on oyatlarida ham ko'rish mumkin. **«Alloh fasod (buzg'unchilik)ni yoqtirmaydi»** (*Baqara, 205*). **«Ularga: «Yer yuzida fasod (buzg'unchilik) qilmangiz!» — deyilsa, ular: «Albatta, biz chin islohchilarmiz», — deydilar. Ogoh bo'lingki, aynan ularning o'zlari buzg'unchilardir, lekin (buni o'zlari) sezmaydilar»** (*Baqara, 11–12*). **«Fitna qotillikdan ham ashaddiyoqdir»** (*Baqara, 191*).

«*Shahid*» (arab. «guvohlik», «hozir bo'lmoq») — ushbu darajaga erishgan insonlarga jannat yoki ko'plab yaxshiliklar bashorat qilinganiga farishtalar guvoh, ya'ni shohid bo'lgani sababli, aynan ushbu so'z ishlatilgan.

Ulamolar nazdida, shahid deyilganda Alloh taolo yo'lida dushman bilan bo'lgan jangda Vatani, dini, oilasi, millati sha'nini himoya qila turib vafot etgan inson nazarda tutiladi. Ammo inson Vatan sarhadlari, millat sha'nini himoya qilish uchun emas, balki mol-davlat to'plash, o'zidan nom qoldirish kabi dunyoviy narsalarni qasd qilgan bo'lsa, bu toifa kishilar shahid hisoblanmaydi.

Shuningdek, ba'zi insonlar borki, bu dunyoda ko'pchilikka nafi tegadigan xayrli ishlar qiladi va qorin (ichki) kasalligi, cho'kish, kuyish kabi sabablar bilan vafot etadilar. Ular kishilar nazdida oddiy insondek tuyulsa-da, Rasullulloh (a.s.) o'z hadislarida zikr qilganlaridek, Alloh nazdida shahidlar maqomida bo'ladi. Demak, shundan kelib chiqib aytish joizki, islom dini nuqtayi nazarda shahidlik ham musulmon kishining ixlos-u e'tiqodi, xayrli amali hamda musibatlarga sabr-toqati evaziga Alloh tomonidan beriladigan mukofotdir.

Afsuski, bugungi kunda ba'zi kimsalar o'zini portlatish bilan go'yo «shahidlik» maqomiga sazovor bo'lishga intilmoqda. Aslida musulmon odamning o'zini-o'zi o'ldirishi, ayniqsa, o'zini portlatib yuborishi go'yoki «din yo'lida» deb e'lon qilinsa-da, shahid deb hisoblanmay, balki «o'z joniga suiqasd» deb baholanadi. Shuningdek, ularning bu g'ayriinsoniy harakatlari tufayli qanchadan-qancha begunoh insonlarning qoni to'kilmogda.

Qur'oni Karimda esa bu borada **«O'zlaringizni o'ldirmangiz! Albatta, Alloh sizlarga rahm-shafqatlidir»** (*Niso, 29*) deyilgan bo'lsa, yana bir oyatda **«Biror jonni o'ldirmagan yoki Yerda (buzg'unchilik va qaroqchilik kabi) fasod ishlarni qilmagan insonni o'ldirgan odam xuddi hamma odamlarni o'ldirgan kabidir»** deb, begunoh insonlarning qonini to'kishlik ham qattiq qoralangan. Hadisi qudsiyda *«Bandam o'zini o'zi o'ldirib, unga bergan umrimga shukur qilmay, shoshildi. Shuning uchun unga jannatni abadiy harom qildim»* deyilgan. Demak, islom ta'limoti bunday holatlarni keskin qoralaydi.

**Mazhabsizlik.** Bugungi kunda mutaassib oqimlar tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalardan yana biri bu — mazhabsizlik g'oyasi bo'lib, u islom dini mohiyatini to'g'ri tushunishga xavf solayotgan xatarli omillardan biridir. Mutaassib guruhlarning mafkurasi-ga ko'ra, fiqhiy mazhablar ishlab chiqqan kategoriyalar shariatni to'g'ri tushunish metodologiyasi sifatida tan olinmay, to'g'ridan to'g'ri shariat ahkomlarini amalga tatbiq etish eng to'g'ri yo'l deb hisoblanadi.

Mantiqan mushohada qilib ko'rilsa, mazhabsizlik g'oyasi o'tgan minglab olimlarning qilgan mehnatlarini, qancha mashaqqat bilan umr sarflab yaratilgan noyob manbalarni bekorga chiqaradi. Asrlar davomida barcha musulmonlar amal qilib kelgan an'analar noto'g'ri, shuncha musulmon adashgan ekan, degan xulosaga olib keladi. Eng ayanchlisi, musulmonlarni birlashtirib, jamlab turgan to'g'ri yo'lga putur yetkazadi. Buning natijasida esa, musulmonlar orasida o'zaro parokandalik, beqarorlik va taraqqiyotda to'xtash yuzaga keladi. Bunday da'vat mazhablar mohiyati va qiymatini

umuman bilmaslikdan kelib chiqadi. Garchi ahli sunna va-l-jamoa mazhablar to'rtta bo'lsa ham, ular yagona ahli sunna va-l-jamoa bo'lgan yo'nalishlari sifatida e'tibor qilinadi va musulmon ummatini jamlaydi, birlashtiradi. Zero, Payg'ambar (a.s.) shunday marhamat qiladilar: «*Alloh ummatimni biror zalolatga jamlamas*». *Yana bir hadisda «Musulmonlar yaxshi deb bilgan narsa Allohning huzurida ham yaxshidir» – deyilgan.*

Ma'lumki, Payg'ambar (a.s.) hayotlarining oxiriga kelib, turli qabila va yurt odamlari islomni qabul qila boshladilar. Yangi musulmonlar oldida yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida nozil bo'lgan oyatlarni o'rganish, shariat ahkomlarini o'z hayotlariga tatbiq qilish vazifasi turar edi. Tabiiyki, yosh sahobiyalar o'zlaridan kattalardan, yangi musulmonlar esa, avvalgi musulmonlardan shar'iy masalalarni o'rgana boshladilar.

Islom dini dunyo bo'ylab, turli mintaqalarda tarqalgach, turli arab bo'lmagan xalqlar ham musulmon bo'ldilar. Tabiiyki, ular o'zlariga Qur'oni Karim va Payg'ambar (a.s.) sunnatlaridan shariat ahkomlarini chiqarib, tartibga solish imkoniga ega emas edilar.

Shunday qilib, jamiyatda asta-sekin kishilarga diniy hukmlarni o'rgatadigan, ularning savollariga javob bera oladigan, muayyan ilmlarga ega insonlarga ehtiyoj tobora ortib bordi.

Shu tariqa turli diyoralarda olimlar yetishib chiqa boshladilar. Imom Abu Hanifa, Imom Molik, Imom Shofey va Imom Ahmadlar bugungi kunda ham mavjud bo'lgan to'rt fiqhiy mazhabga asos soldilar. Ular ibodatlar va boshqa barcha masalalarni Qur'oni Karim va hadisi sharifga ko'ra ma'lum qoidalarga solib chiqdilar. Manbaning boyligi va Rasululloh (a.s.)ning ayrim vaqtlarda bir amalni turlicha bajarganlari, bir masala bo'yicha turlicha tasarruflari haqidagi hadis va xabarlar, rivoyatlar bu olimlarning ishlarida ham ma'lum juz'iy farqlarni paydo bo'lishiga olib keldi. Shuningdek, turli mintaqalardagi sharoitlarning turlichaligi, shariat masalalarida tabiiy tafovutlarning yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Masalan, shofey mazhabida tahoratdan so'ng yuz-qo'lni artmaslik afzal bo'lsa, hanafiy mazhabida artish afzaldir.



Demak, mazhablar tarqalgan hududlardagi iqlim sharoiti ham e'tiborga olingan. Binobarin, Rasululloh (a.s.)dan ikki holatni ham tasdiqlovchi rivoyatlar yetib kelgan.

Yuqorida zikr etilganidek, juz'iy masalalarda ixtilof qilingani bilan, to'rt sunniy mazhabda islomning asosiy masalalari bo'yi-cha ixtiloflar yo'q. Chunki har bir mazhab asoschisi o'z so'zlarini ishonchli dalillar bilan isbotlagan.

Asrlar davomida musulmonlar to'rt mazhab – hanafiy, moli-kiy, shofeiy va hanbaliy mazhablaridan biriga amal qilib kelganlar. Hech kim buni inkor qilmagan. Qancha-qancha faqih, muhaddis, mutakallim va mutasavvif olimlar ham shu mazhablarga asosan o'z faoliyatlarini olib bordilar.

Mazhabsizlik g'oyasi o'zida millatni ortga tortish, qoloqlikka mahkum qilish xavfini mujassamlaydi, taraqqiyotdan chetga chiqib qolishga olib keladi. Chunki turli soha mutaxassislari mazhabsizlik g'oyasiga ergashsa, unda umrlarini o'z kasbiy mahoratlari- ni yuksaltirish, izlanishlar olib borishga emas, balki tubsiz diniy masalalarga o'ralashib qolib, hayotlarini faqat o'zlari uchun diniy hukmlar chiqarishga sarflaydilar. Oqibatda turli sohalardagi mutaxassislar ham tez o'zgaruvchan globallashuv sharoitida o'zlarini yo'qotib qo'yadilar: yaxshi mutaxassis ham, yetuk ulamo ham bo'la olmaydilar. Natijada mutaxassislardan mosuvo bo'lib borishi barobarida, millat avvalida turg'unlik, keyinchalik esa tanazzulga yuz tutadi. Aslida esa har bir mutaxassisning o'z sohasini puxta egallashi, jamiyat rivoji uchun xizmat qilishi, odamlar og'irini yengil qilishi, yurt ravnaqiga hissa qo'shishi ham ulug' ibodatdir.

### **Nazorat savollari:**

1. «Kufr», «takfir» so'zlarining lug'aviy va istilohiy ma'nolari haqida so'zlab bering.

2. «Jihad» deganda nimani tushunasiz va uning qanday turlari mavjud?

3. Islom dini tarixida sodir bo'lgan hijrat va uning ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?

4. «Mazhabsizlik» g‘oyasining salbiy oqibatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Hidoyat ortiga yashiringan zalolat. / Mualliflar jamoasi. — Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. — 136 b.

2. Islom ma‘rifati: asliyat va talqin. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. — Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. — 160 b.

3. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo‘llari. A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuxamedov, U.G‘afurov, J.Karimov. — Toshkent: Movarounnahr, 2013. — 160 b.

4. Islom ma‘rifati va hozirgi zamon. / Mas‘ul muharrir A.Abdullayev. — Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016. — 160 b.

## 8-mavzu. XALQARO ISLOMIY TASHKILOTLAR, DINIY ULAMOLAR TOMONIDAN EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI CHIQRILGAN FATVOLAR TAHLILI

1. Fatvo va unga doir masalalar.
2. Fatvoning musulmonlar hayotidagi ahamiyati.
3. Xalqaro islomiy tashkilotlar, diniy ulamolar tomonidan ekstremizm va terrorizmga qarshi chiqarilgan fatvolar.

*Tayanch soʻz va iboralar:* *mujtahid, mutlaq mujtahid, muxarrij, murajjih, mandub, nass, fatvo, muftiy, xalqaro islom tashkilotlari, diniy ulamolar.*

**Fatvo va unga doir masalalar.** Islom ilm, maʼrifat va inson manfaatlarini himoya qiluvchi dindir. Qurʼon va hadislar islomning asosiy manbalari boʻlish bilan birga musulmonlar hayotini tashkil etish uchun muhim qoʻllanma ham hisoblanadi. Shunday ekan, Qurʼon va sunnatga asoslangan holda musulmonlarning manfaatlaridan kelib chiqib, inson kamoloti va jamiyat farovonligi, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotni koʻzlab fatvo chiqarish alohida bilim va malakani talab etadi. Moʻtabar manbalarga koʻra, arab tili, Qurʼon va hadis ilmlari, fiqh va islom tarixini juda chuqur va mukammal biladigan mujtahidlargina shunday hukm chiqarish huquqiga egadir. Biroq tarix va zamonaviy voqelik dindand yovuz maqsadda ham foydalanish mumkinligini koʻrsatmoqda. Bunday harakatlar muqaddas islom dinidan foydalangan holda amalga oshirilgani va oshirilayotganini ham afsus bilan qayd etish lozim.

Soʻnggi yillarda ekstremistik va terrorchi guruhlar din niqobi ostida oʻz harakatlarini «sharʼiy» deb hisoblash orqali jamiyatda turli xil qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirishga intilmoqda. Ular oʻzlarini «mujtahid» deb eʼlon qilgan holda necha asrlardan buyon musulmonlar jamoasi ergashib kelayotgan mazhab taʼlimotlariga zid boʻlgan turli «fatvolar»ni chiqarmoqda. Bu esa, bir tomondan insonlarni adashib, notoʻgʻri yoʻllarga kirib ketishlari-

ga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan jamiyatda o'zaro tushunmovchilik, adovat kayfiyatining paydo bo'lishiga zamin yaratmoqda.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Xo'sh, mujtahid kim? Fatvo o'zi nima? Uni kimlar berishga haqli?

«Mujtahid» so'zi lug'atda – «tirishqoq» degan ma'noni bildiradi. Shar'iy istilohda esa, mujtahid deb Qur'on, sunnat va boshqa shariat manbalari asosida hukm chiqara oladigan kishiga aytiladi.

Bugungi kunda mujtahid darajalari xususida bir qancha fikrlar mavjud bo'lib, ular bir-biridan juz'iy holatdagina farq qiladi. Hanafiy mazhabi manbalariga ko'ra mujtahidlik darajalari quyidagi qismlarga bo'linadi:

1. «Mujtahid fi-sh-shariha» yoki «Mutlaq mujtahid» – Qur'on va sunna asosida usul al-fiqhni ishlab chiqadi hamda shariat savollariga javob beradi. Bu toifa ulamolarga to'rt mazhab asoschilari kiradi;

2. «Mujtahid fi-l-mazhab» («Mazhab ichidagi mujtahid») – ijtihod darajasiga erishgan, biroq u o'zi tomonidan usul va qoidalarni ishlab chiqmaydi, balki, biror mazhab asoschisining yo'lidan boradi. Bunga Imomi A'zamning shogirdlari Imom Abu Yusuf va imom Muhammad Shayboniylarni keltirish mumkin;

3. «Mujtahid fi-l-masail» («Masalalar mujtahidi») – mazhab-boshi tomonidan javob berilmagan yangi masalalar yuzasidan mujtahid mutlaq ishlab chiqqan usullar asosida ijtihod qiladi. Bu toifaga Imom Tahoviy, Imom Saraxsiy va Imom Karxiy kabi ulamolar kiradi;

4. «Muxarrij» – o'zlari mustaqil ravishda ijtihod qila olmaydi, lekin mujtahidlar tomonidan bildirilgan, ko'rinishidan ikki xil tushunish mumkin bo'lgan ijtihodga aniqlik kiritadi. Bunga misol tariqasida Imom Roziy va Imom Jurjoniylarni keltirish mumkin;

5. «Murajjih» – bu toifa ulamolar ham ijtihod qilishga qodir bo'lmasa-da, bir masalada mujtahidning ikki xil fikri bo'lsa, dalillarga tayangan holda ulardan birini tanlaydi. Bunga Imom Quduriy va Imom Marg'inoniylarni kiritish mumkin;

6. «Muqallid» – bu yuqoridagi darajalarga kirmaydigan faqihlardir. Ular o‘z mazhablari ichidagi masalalarni yaxshi o‘zlashtirgan hamda o‘z faoliyati davomida ulardan keng foydalanadigan ulamolardir. Bunga Imom Xaskafiy va Ibn Obidin kabi faqihlar mansubdirlar.

Mujtahid tomonidan biror masala yuzasidan chiqarilgan hukm «fatvo» deb ataladi. «Fatvo» arabcha so‘z bo‘lib, «savolga javob berish», «shariat masalalari yuzasidan fatvo chiqarmoq», «maslahat bermoq», «muftiying xulosasi» ma’nosini anglatadi. Istilohda esa, so‘ragan kishiga shar’iy dalil asosida hukm chiqarishga nisbatan qo‘llaniladi.

Lug‘aviy jihatdan fatvo beruvchi inson «muftiy» deb ataladi. Bu borada olimlar bir qancha fikrlarni bildirganlar. Jumladan, mashhur faqihlardan Imom Qarofiy shunday degan: «Muftiylar Alloh taoloning tarjimonlaridir. Chunki ular nassga tayangan holda hukm chiqaradilar». Imom Shotibiy esa: «Muftiylar ummat uchun Rasululloh (a.s.) maqomlarida bo‘ladilar. Bunga dalil qilib: «Olimlar payg‘ambarlarning merosxo‘rlaridir. Payg‘ambarlar dinor yoki dirham emas, balki ilmni meros qilib qoldirganlar», hadisini keltiradi». Demak, fatvo berish o‘ta sharaflili va mas’uliyatli vazifalardan hisoblangan.

Dastlab fatvo berish maqomida Rasululloh (a.s.) turganlar. U kishining fatvolari Alloh taolo tomonidan vahiy qilingan Rasululloh (a.s.) bilan sahobiylar o‘rtasidagi suhbatlar odatda savol-javob tarzida bo‘lar edi. Rasululloh bilganlariga javob berar, bilmaganlariga Alloh taolodan shu savolga javobni bildirishni so‘rar edilar.

Rasululloh (a.s.)dan so‘ng sahobiylar, ulardan keyin tobe‘iyalar fatvo berganlar. Shunday bo‘lsa-da, fatvo berishning mas’uliyati og‘ir ekanini his qilib, sahobiylardan Umar ibn Xattob, Ali ibn Abu Tolib, Abdulloh ibn Mas‘ud, Oisha onamiz, Zayd ibn Sobit, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Umar (r.a.) kabi sanoqli kishilargina fatvo chiqarganlar. Ibn Abu Laylo aytadilar: «Rasululloh (a.s.)ning 120 ta ansorlarini uchratdim. Ularning birlari-

dan savol soʻraganimda keyingisiga oʻtkazar, undan soʻrasam u boshqasini koʻrsatar edi. Oxiri aylanib yana birinchi savol bergan kishiga keldim». Ushbu holatda ham koʻrishimiz mumkinki, sahobiylar fatvo berishda nihoyatda ehtiyotkor boʻlganlar.

Sahobiylardan soʻng, tobeʼiylar yoki ulardan keyingi davrda yashagan ulamolar ham fatvo berishdan oʻzlarini saqlardilar. Jumladan, tobeʼiylardan boʻlgan Shaʼbiydan bir savol soʻralganda u kishi: «Bilmayman», deb javob qiladi. Shunda, odamlar: «Sen Iroq faqih boʻlsang, «bilmayman» deyishga uyalmaysanmi?!» deganda Shaʼbiy: «Farishtalar: **«Zoti poking haqqi, bizda Oʻzing bildirganingdan oʻzga ilm yoʻqdir»** (*Baqara, 32*), deyishga uyalmagan, men nega uyalay», deb javob bergan.

Fatvo berish masalasida mazhabboshilaridan biri boʻlmish Imom Molik: «Inson biror savolga javob berishdan oldin oʻzini doʻzax yoki jannatda tasavvur qilsin-da, keyin javob bersin», degan ekan. Bir kuni u kishidan savol soʻralganda: «Bilmayman», deb javob beradi. Savol bergan kishi: «Bu oson savol boʻlsa, shuni ham bilmayman, deyishga uyalmaysanmi?!» deganda Imom Molik gʻazablanib: «Oson masala?! Bilib qoʻy, dinda oson masalaning oʻzi yoʻq! Alloh taoloning: **«Zero, Biz Sizga ogʻir Soʻzni (Qurʻonni) tushirajakmiz»** (*Muzzammil, 5*), oyatini eshitmaganmisan?! Ilmning barchasi qiyin, jumladan, sen soʻragan narsa ham», deb javob bergan.

Fatvo musulmonlar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda fatvo berishga hamma ham haqli emas. Aks holda, bu kabi holatlar qanchadan qancha begunoh insonlarning qoni toʻkilishiga hamda asl taʼlimoti tinchlik boʻlgan islom johillik, yovuzlik, bosqinchilik va qotillik dini sifatida namoyon boʻlishiga sabab boʻladi. Aslida, islom qoidalariga binoan fatvo berish huquqi yuqorida qayd etilganidek, faqatgina aqida, fiqh ilmi-da mukammal darajaga yetgan, Qurʻonni tafsirlari va turli ilmlari bilan toʻliq yod biluvchi, qolaversa, «muftiy» (fatvo beruvchi) martabasiga ega boʻlgan muayyan shaxslarigagina berilishi maʼlum. Imom Ahmad ibn Hanbal (r.a.)dan qancha hadisi yod-

lagan odam fatvo berishi mumkinligi haqida soʻralganda, ular muftiy kamida 400 ming hadisni bilishi kerakligini aytgan. Ibn Asokir keltirgan Rasululloh (a.s.)ning «*Kimda-kim ilmsiz fatvo bersa, unga Alloh taolo, farishtalar, osmonu yerdagi barcha mavjudotlarning lahnati boʻlsin*», degan hadislar ham ekstremistlarga xizmat qiluvchi «fatvochi ulamolar»ning faoliyatiga munosib bahodir.

Shu oʻrinda, bugungi kunda baʼzi eʼtirof etilmagan oqimlar hamda shaxslar oʻz gʻarazli maqsadlari, amaliyotlarini oqlash yoʻlida muqaddas islom nomi bilan turli «fatvolar» berib kelayotganini afsus bilan qayd etish lozim. Jumladan, «jihod», «takfir» (kofirga chiqarish), «hijrat», «oʻz-oʻzini oʻldirish» kabi masalalarda chiqarilayotgan fatvolar shular jumlasidandir. Masalan, «Hizbut-tahrir» tashkilotining 2001-yilda chiqqan «Al-Vahy» (Ong) jurnalida «oʻzini oʻldirish» borasida quyidagi fatvo berilgan: «...kofirlarning harbiy lagerlarida ularga shikast yetkazish uchun oʻzini portlatib yuboradimi yoki portlovchi modda solingan belbogʻni bogʻlab oʻzini ham, kofirlarni ham portlatib yuboradimi — buning farqi yoʻq. Modomiki bular kofirga qarshi jang qilish vositalari ekan, barchasi joiz». Vaholanki, dinimiz taʼlimotlarida hayot Alloh taolo tomonidan insonga berilgan imkoniyat va ayni damda omonatligi, bu neʼmatni asrab-avaylash, unga xiyonat qilmaslik lozimligi taʼkidlanib, oʻz joniga qasd qilish katta gunoh sifatida qoralangan. Qolaversa, mazkur fatvoni asoslash uchun keltirilgan Qurʼoni Karim oyatlarini oʻzlarining «foydasi»ga moslab sharhlaganlarini koʻrish mumkin. Jumladan, unda «Tavba» surasi 36-oyatining bir qismigina, yaʼni «... **barcha mushriklarga qarshi jang qilingiz**» tarzida tarjima qilinib, dalil sifatida keltirilgan. Vaholanki, ushbu oyat toʻliq holda tarjima qilinsa, umuman boshqa maʼno chiqishini koʻrish mumkin. **«Albatta, Allohning nazdida oylarning adadi — Allohning osmonlar va Yerni yaratgan kunidagi bitigiga muvofiq — oʻn ikki oydir. Ulardan toʻrttasi (urush) taqiqlangan oylardir. Ana shu toʻgʻri dindir. Bas, oʻsha (oy)larda (jang qilib) oʻzingizga zulm qilmangiz!**

**Mushriklar (mazkur to‘rt oy asnosida) sizlarga yoppasiga urush ochsalar, (sizlar ham) ularga yoppasiga urush ochingiz! Yana, bilib qo‘yingizki, Alloh taqvolilar bilan birgadir!»** Mazkur oyatning sharhida bunday deyiladi: «Ushbu oyat dalolat qiladiki, islomda mushriklar bilan jang qilish, balki umuman urushishga faqat zarurat taqozosi bilan ruxsat etiladi va shunda ham musulmonlarni taqvonni qo‘ldan bermaslik va tajovuzkorlikka o‘tmaslikka buyuriladi». Bunda birinchidan, ushbu oyatning oxirida keltirilgan ma‘no mushrikarga qarshi qaratilgan. Lekin terrorchi guruhlar buni musulmonlarni kofirlikda ayblab ularga qarshi dalil sifatida keltirmoqda; ikkinchidan, oyatda **«Mushriklar (mazkur to‘rt oy asnosida) sizlarga yoppasiga urush ochsalar...»** ma‘nosida shart qo‘yilmoqda. Agar ular urush ochmasalar, urushishga hojat yo‘q!

Shuningdek, ba‘zi toifalar mansux bo‘lgan hadislardan ham keng foydalanishga urinayotganini ta‘kidlash lozim. Jumladan, ayrim ashaddiy «salafiylik»ka mansub guruhlar qabrlarni ziyorat qilishni mutlaq shirkka chiqarmoqda. Ularning da‘volariga ko‘ra, qabrlarni ziyorat qilgan odam musulmonchilikdan chiqar ekan. Shu bilan bir qatorda, ba‘zi «fatvochilar» tomonidan Rasululloh (a.s.)ning qabrlari ustiga qurilgan gumbazni buzib tashlash kerakligi haqida ham fatvolar chiqarilgan. Buning natijasida ba‘zi toifalar o‘z davrida Madinai munavvaradagi sahobiylarning qabrlarini buzish bilan kifoyalaniq qolmay, hatto Payg‘ambar (a.s.)ning qabrlarini vayron qilishga ham yaqin kelgan edilar. Vaholanki, qabrlarni ziyorat qilish islom dinida mandub (mustahab) amal hisoblanib, uning o‘ziga xos odobi mavjud. O‘tganlar xotirasini yodga olish dunyoning o‘tkinchi ekanini his etish, shu orqali kishini boshqalarga zarar yetkazadigan, gunoh ishlarni qilishdan saqlanish va ezgu amallarni ko‘proq qilishga undaydi. Demak, qabr ziyorati insonlar o‘rtasidagi o‘zaro mehr-muruvvat fazilatlarini kuchaytiruvchi vositadir. Ziyoratchining duo-fotihasidan esa, qabrda yotganlar bahramand bo‘ladi.



Ma'lumki, islomdan avvalgi johiliyat davrida qabrlarni ulug'lash, ularga sig'inish avj olgan edi. Shuning uchun ham, Muhammad (a.s.) dastlab — musulmonlar butparastlik va shirk asoratlaridan batamom poklanib ulgurmagan, tavhid to'liq qaror topmagan bir paytda kishilarni mazkur amaldan qaytargan edilar. Islom butunlay qaror topgandan so'ng, Payg'ambarimiz (a.s.) oxiratni eslatishini inobatga olib, qabrlarni ziyorat qilishga izn berdilar. Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda: «*Men sizlarni qabrlarni ziyorat qilishdan qaytargan edim. Endi qabrlarni ziyorat qilaveringlar. Chunki u qalbni yumshatadi, ko'zni yoshlatadi va oxiratni eslatadi*», deb marhamat qilingan.

Yana shunga o'xshash holatlardan biri sifatida misrlik soxta salafiy oqimining namoyandalaridan biri, taksi xodimlari xristian ruhoniylarini taksida olib yurish og'ir gunoh ekani hamda bu ishni qilish spirtli ichimliklarni ichish bilan barobarligi to'g'risida fatvo berganini keltirib o'tish mumkin. Shuningdek, qizlarning ta'lim dargohlarida tahsil olishini ham qoralab, ularning matematika, geografiya kabi zamonaviy fanlarni o'qishlaridan hech bir foyda yo'qligi, bu narsa og'ir musibat ekani to'g'risida va qizlarni maktablarga borishlarini taqiqlovchi fatvolar ham chiqarilgan. Bu esa, o'z navbatida, bir qator davlatlarda qizlarning maktablariga hujumlar uyushtirilishiga va ko'plab talafotlar yetkazilishiga sabab bo'lgan.

Soxta salafiyalar tomonidan chiqarilayotgan bu kabi fatvolar jamiyatni parokanda bo'lishiga, insonlarning qoni to'kilishiga, fitnalarning ko'payishiga olib kelayotgani, uning islom ta'limotlariga zid ekanini namoyon etadi. Zero Rasululloh (a.s.): «Fitna uyqudadir. Uni uyg'otganni Alloh la'natlasin», deb marhamat qilganlar (*Rofe'iy rivoyati*).

Fatvo masalasidagi yana muhim jihatlardan biri bu — bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, sputnik kanallar orqali to'g'ridan to'g'ri berib borilayotgan fatvolardir. Bu holatda fatvo beruvchi shaxs fatvo so'rovchining na xoli va na vaziyati to'g'risida bilimga ega bo'lmaydi. Bularning barchasidan

bexabar fatvolarni berib yuboraveradi. Buning salbiy oqibatlaridan yana biri, bu berilayotgan fatvolarni bir yoki o'n kishi emas, balki butun dunyo bo'ylab, millionlab turli mazhabda bo'lgan musulmonlar eshitadi. Vaholanki, fiqhiy kitoblarda qayd etilishicha, muftiy yuksak ilm sohibi bo'lish bilan bir qatorda, o'zi yashab turgan vaqtning voqeligini, insonlarning holatini yaxshi bilishi kerak. Bu borada Xatib Bog'dodiy o'zlarining «Al-faqih va-l-mutaffaqih» asarida: «Faqih kishi dunyoviy va diniy masalalarga taalluqli bo'lgan barcha narsalarni bilishi shartdir», deb ta'kidlaydi.

Shu o'rinda, so'nggi yillarda Internet tizimi orqali ham ko'plab buzg'unchi fatvolar berib borilayotganini ta'kidlash lozim. Xatarli tarafi shundaki, bu kabi fatvolar islom olamida ko'zga ko'ringan ulamolarga nisbat berilmoqda. Shunday fatvolaridan biri, «Nikoh jihodi» deb atalib, unga ko'ra, hozirgi kunda Suriya yoki Iroqda o'zlaricha «jihod qilyapmiz» deb iddao qilayotgan «jihodchilar»ga nikohlanish, ularning jinsiy ehtiyojini qondirishlari uchun boshqa davlatlardan ayollar va qizlarning u yerlarga hijrat qilishlari lozimligini ta'kidlaydi. Odatda bunday soxta fatvoga uchgan qizlarga jihodchilarning lagerlarida joriyalarga qilinadigan munosabat ko'rsatiladi. Hatto bir yoki undan ortiq «mujohid»ga nikohlanib chiqishiga ham izn berilgan.

Bundan tashqari, hozirgi kunda jahonda ba'zi harakatlar tomonidan buzg'unchilik amaliyotlarini islom diniga bog'lab amalga oshirishda «buyurtma fatvolar»dan samarali foydalanayotgani hech kimga sir emas. Aslida islomda ilm-ma'rifatli bo'lishga, Yaratgan tomonidan insonlarga berilgan ne'matlar haqida bilim orqali tadabbur qilishga targ'ib qilingan. Hasan Basriy (r.a.) rivoyat qilgan hadisda shunday deyiladi: «*Insonlar ilm o'rganib amalni tark qilganlarida, tillari ila sevishib, qalblari ila adovatda bo'lsalar va silai rahmni uzsalor, Alloh ularni la'natlab, quloqlarini kar va ko'zlarini ko'r qilib qo'yadi*». Darhaqiqat, islom olamining e'tiborli ulamolari tomonidan mo'tabar manbalar asosida beri-

layotgan fatvolar yoki raddiyalarni tan olmayotgan turli firqa va oqim tarafdorlarini ham yuqoridagi oyat va hadislarda keltirilgan kimsalarga qiyoslash mumkin.

Shunday ekan, fatvo musulmonlar hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Fatvo berishga, faqatgina, ilmda muayyan darajaga yetishgan hamda ulamolar tomonidan e'tirof etilgan kishigina haqlidir. Aks holda, bu kabi holatlar qanchadan qancha begunoh insonlarning qoni to'kilishiga hamda asl ta'limoti tinchlik bo'lgan islom dinini «urush» dini sifatida ko'rsatishga, o'zaro adovat va nafrat urug'ini sochishga, musulmonlar o'rtasida turli xil fitnalarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Fatvo oladigan odam ham, albatta, o'z navbatida ishonchli, hamma e'tirof etgan ulamoga murojaat qilishi bilan o'zini ham, atrofdagilarni ham turli musibatlardan asragan bo'ladi.

### **Musulmonlari o'zini portlatishga da'vat etuvchilar do'zax olovidadir**

*Qur'oni Karimga ko'ra, terroristlarning omma xalqni portlatishi, insonlarni o'zini-o'zi portlatishga da'vat etishi va boshqa har qanday tinch aholi hayotiga qaratilgan tajovuzlarni amalga oshirishi ulkan jinoyat hisoblanadi. Albatta, bu ishlarni amalga oshiruvchilarga jahannamda og'ir azob-uqubatlar borligiga hech qanday shak-shubha yo'q. Qur'oni Karimning «Buruj» surasida odamlarni yondirish taqiqlangani keltirib o'tiladi:*

**«Albatta, mo'min va mo'minalarni fitnaga solib, so'ngra tavba qilmagan kimsalarga jahannam azobi va ular uchun o't azobi bor-dir» (Buruj, 10).**

*Oyatdagi «fatanu» so'zi «yondirish» ma'nosida ham tafsir qilindi. Bu oyat odamlarni portlatuvchilar do'zax egalari ekaniga ishora qiladi. Ibn Abbos va Muqotil aytdilar: «fatanu al-muminina» so'zlari quyidagi ma'noni anglatadi: «Ular mo'minlarni olov bilan yondiradilar». Ibn Humayd va Ibn Munzirdan rivoyat qilinishicha, Qatoda «Albatta, mo'min va mo'minalarni fitnaga solib», oyatini «olov bilan yondirib o'ldirish» degan ma'noni anglatadi, deya taf-*

*sir qilgan. Imom Qurtubiy va Abu Hafs Hanbaliy ham shunday taf-sir qilganlar.*

**Tohir Qodiriy**

*Pokistonlik hanafiy ulamo,*

*«Xalqaro Qur'on yo'li» tashkilotining asoschisi<sup>1</sup>.*

### **Musulmon va musulmon bo'lmagan aholini o'ldirishlik orasida hech qanday farq yo'q.**

Payg'ambarimiz (s.a.v.) o'zlarining oxirgi xutbalarida insonlar hayoti, mol-mulkini va obro'-e'tiborini saqlash haqida shunday dedilar: «Albatta, Alloh taolo qoningiz, molingiz va nomusingizni bir-biringiz uchun mana shu muqaddas shahringiz, tabarruk oyin-giz va ulug' ayyomingiz kabi muqaddas ayladi».

Ushbu hadisga ko'ra, bir odamni nohaq o'ldirish, uning moli-ga tajovuz qilish, obro'siga putur yetkazish mutlaqo taqiqlanadi.

Darhaqiqat, musulmon yoki boshqa din vakilini ular qayer-da yashashlaridan qat'i nazar ularning hayotiga tajovuz qilishlik mumkin emas. Bu haqda Qur'oni Karimda quyidagicha bayon etiladi: ya'ni «... biron jonni o'ldirmagan va Yerda (buzg'un-chilik va qaroqchilik kabi) fasod ishlarni qilmagan insonni o'ldirgan odam xuddi hamma odamlarni o'ldirgan kabidir» (Moida, 32).

Ushbu oyatda «nafs» so'zining ishlatilishi barcha bashariyat uchun dalolat qilishni anglatadi. Islomda har bir jon juda qadrlanadi. Shu bois, bir beayb insonni o'ldirgan odam butun boshli insoniyatni o'ldirgandek jinoyat qilgan hisoblanadi. Chunki jonlar ko'p bo'lgani bilan hayot kechirish haqqi bit-ta. Har bir jon hayot kechirish haqqiga ega. Ana o'sha jon-lardan bittasini o'ldirgan odam hamma jonlarning hayot ke-chirish haqqiga tajovuz etgan bo'ladi. Shuning uchun bir jonni nohaq uni qaysi dinga mansubligidan, tilidan yoki qaysi mam-lakat fuqarosi ekanligidan qat'i nazar qatl etish islom dinida

---

<sup>1</sup> *Tohir ul-Qadri. Fatwa on terrorism and suicide bombings. Printed by Biddles Book Printers, Norfolk UK, 2010. – P. 62–65.*

qat'iyani man etiladi. Aksincha, bitta jonning hayotini saqlab qolish esa, hamma jonlarning hayot kechirish haqqini saqlab qolgan bilan teng bo'ladi<sup>1</sup>.

**Tohir Qodiriy**

*Pokistonlik hanafiy ulamo,*

*«Xalqaro Qur'on yo'li» tashkilotining asoschisi.*

\* \* \*

2014-yil 22-aprelda qabul qilingan «O'zini-o'zi turli yo'llar bilan qasddan o'ldirishning og'ir gunohligi haqida»gi O'zbekiston musulmonlari idorasi fatvosida shunday deyiladi:

Keyingi vaqtda jamiyatimizda ayrim kishilar bilib-bilmay, ayniqsa xotin-qizlar o'zlarining jonlariga qasd qilib, Alloh taolo ato qilgan hayot nurini bevaqt o'chirishga, ikki dunyoda abadiy la'natga va do'zax azobiga duchor bo'lishdek og'ir gunoh qilishga o'tmoqdalar. Islom ta'limotida inson o'z joniga qasd qilishi qattiq qoralanadi, ushbu ishni qilgan osiy banda jahannam o'ti bilan azoblanishi ta'kidlanadi. Alloh taolo aytadi: «...o'z qo'llaringiz bilan o'zlaringizni halokatga tashlamangiz! (Barcha ishlarni) chiroyli qilingiz. Albatta, Alloh chiroyli (ish) qiluvchilarni yaxshi ko'radi» (*Baqara, 195*).

Rasululloh (s.a.v.) o'z hadisi shariflarida bunday deydilar: «Kim tog' tepasidan tashlab, o'zini-o'zi o'ldirsa, o'lgandan so'ng jahannamda ham shu xil azobga giriftor bo'ladi. Agar zahar ichib o'zini-o'zi o'ldirsa, jahannamda ham abadiy shu azobga muhtalo bo'ladi. Kim o'zini temir parchasi bilan o'ldirsa, o'sha kimsa temir parchasini qorniga suqqan holda jahannam o'tida abadiy qoladi».

Yana Imom Buxoriy rivoyat qilishlaricha, Hazrati Rasuli akram (s.a.v.) aytadilar: Alloh taolo hadisi qudsiyda marhamat qiladi: «Bandam o'zini-o'zi o'ldirib, mening unga bergan umrimga shukur qilmay, shoshildi. Shuning uchun unga jannatni abadiy harom qildim».

---

<sup>1</sup> *Tohir ul-Qadri. Fatwa on terrorism and suicide bombings. Printed by Biddles Book Printers, Norfolk UK, 2010. – P. 93–94.*

Jahondagi nufuzli islom muassasalari va ulamolari o'zini turli portlovchi vosita bilan portlatish orqali begunoh odamlarning o'limiga sabab bo'lish shar'an harom amal ekanligini ta'kidlaganlar. Bu ishni Islomga hech bir aloqasi yo'q. Bu gunoh ishni amalga oshirganlar kim bo'lishidan qat'i nazar Alloh taoloning azobiga uchraydi, deb alohida uqtirishgan.

\* \* \*

2002-yilda bo'lib o'tgan «Islom Olami Robitasi qoshidagi Islom Fiqhi Akademiyasining terrorizmga munosabati» haqidagi Makkai mukarrama bayonotida shunday deyiladi:

Ekstremizm, kuch ishlatish va terrorizmning islomga hech qanday aloqasi yo'q. Bu ishlar xatarli ishlar bo'lib, ular o'ta salbiy oqibatlariga olib keladi. Ularda insonga tajovuz qilish, zulm qilish bor. Shariatning ikki manbayi Allohning Kitobi va Nabiy (a.s.) sunnatini o'qigan kishi ularda o'zgalarga nohaq tajovuz qilish kabi ekstremizm, kuch ishlatish va terrorizmning hech qanday ma'nosini topmaydi.

Islom dinida shaxslar va guruhlariga mo'tadil bo'lish, ekstremizmni tag-tomiri bilan yo'qotish, ularga olib boruvchi dinda chuqur ketishga yo'l qo'ymaslikka ko'rsatmalar bor. Chunki bularda aniq halokat bordir. Rasululloh (a.s.) aytganlar: «Dinda chuqur ketmanglar. Sizlardan oldingilarni dinda chuqur ketish halok qilgan» (*Imom Ahmad va Nasoiy rivoyati*).

Islom qo'rqitish, vahimaga, sarosimaga solish, nohaq o'ldirishga olib boruvchi yomon illatlarni davolagan. Rasululloh (a.s.): «Musulmonga boshqa musulmonni qo'rquvga solish halol emas», deganlar (*Abu Dovud rivoyati*). Yana Nabiy (s.a.v.): «Kim birodariga bir temirni o'qtalsa, o'sha ishini to'xtatmaguncha farishtalar uni la'natlab turadi. Agar u ota yoki ona bir aka yoki ukasi bo'lsa ham», deganlar (*Imom Muslim rivoyati*).

Islomda jihod haqqa yordam, zulmni qaytarish, adolat, tinchlik va omonlikni qaror toptirish, Rasululloh (a.s.) olib kelgan rahmatga yo'l ochish uchun joriy qilingan. Bu rahmat odamlarni zulmatlardan nurga chiqarish uchundir. Bu esa terrorizmning

barcha ko‘rinishlariga barham beradi. Zero, urush ma’nosidagi jihod Vatan himoyasi uchun bosqinchilikka, boylklarning o‘g‘irlanishiga, odamlarni o‘z yurtlaridan chiqarishga yordam beradiganlarga, ahdlarini buzadiganlarga, musulmonlarning dinlarida fitnalanishiga qarshi joriy qilingan.

Islomda jihodning o‘z odob va hukmlari bor. Ularga ko‘ra, urushmagan kishilar, keksalar, ayollar va bolalardan iborat begunoh insonlarni o‘ldirish taqiqlanadi. Qochganlarni quvlash, taslim bo‘lganlarni o‘ldirish, asirlarga ozor berish, o‘lganlarning jasadidan a‘zolarini kesish, urushga aloqasi yo‘q bino va inshootlarni vayron qilish man qilinadi. Yurtlarni talayotgan, muqaddas narsalarni toptayotgan, boylklarni o‘g‘irlyotgan zolimlarning zo‘ravonligi bilan zulm ko‘rganlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash yo‘lida qonuniy himoya huquqini amalga oshirishini tenglashtirmaslik kerak.

\* \* \*

2002-yil 3-aprelda qabul qilingan «Xalqaro terrorizm haqida»-gi Kuala Lumpur Deklaratsiyasida shunday deyiladi:

«Biz, o‘zimizning asosiy qonunlarimizga sodiq ekanimizni, islom ta‘limoti odamlarni qirg‘in qilishdan nafratlanishini, tinchlikni, matonatni va o‘zaro hurmatni qadrlashini, shu bilan birga, begunoh insonlarni o‘ldirishni taqiqlashini yana bir bor ta‘kidlaymiz. Biz, terrorizmga aloqador har bir holatni islom va musulmonlarga bog‘lashni rad etamiz. Chunki terrorizm hech qaysi bir dinga, madaniyatga yoki millatga daxldor emasdir.»

\* \* \*

2005-yil 6-iyulda qabul qilingan «Islom haqiqati va uning zamonaviy jamiyatda tutgan o‘rni» haqidagi Amman (Iordaniya) Deklaratsiyasida shunday deyiladi:

«Ahli sunna val-jamoaning to‘rt mazhabi: hanafiy, molikiy, shofe‘iy, hanbaliy, shuningdek ja‘fariy, zaydiy, ibodiy va zohiriy mazhablariga ergashuvchi har bir shaxs musulmondur. Uni kofir deyish, joniga qasd qilish, sha‘ni va mol-mulkiga tajovuz qilish mumkin emas. Umuman olganda, Allohga, Uning Rasuli-

ga imon keltirgan, din arkonlarini hurmat qiladigan va ularning birortasini inkor etmaydigan musulmonlarning har qanday toifasini kofirga chiqarish joiz emas. Islomdagi mazhablar o'rtasida umumiy jihatlari juda ham ko'p. Sakkiz mazhab vakillari yagona Alloh taolaga, muqaddas Qur'oni Karim (Alloh nozil qilgan Kalam)ga va Payg'ambar Muhammad (a.s.)ga imon keltirgan holda islom ta'limotiga rioya qiladilar. Ayni paytda, ular imon, namoz, zakot, ramazon ro'zasi va haj qilish kabi islomning besh arkoni-ga hamda imon arkonlari: Allohga, Uning farishtalariga, muqaddas kitoblariga, payg'ambarlariga, qiyomat kuniga va qazoyi qadarga ishonadilar».

#### **Nazorat savollari:**

1. «Mujtahid»likning qanday darajalari mavjud?
2. «Fatvo», «muftiy» so'zlari qanday ma'nolarni anglatadi?
3. Fatvo berishning mas'uliyati borasida manbalarda nima deyilgan?
4. Yirik islomiy tashkilotlar hamda ulamolar tomonidan ekstremistik va terrorchi uyushmalar faoliyatining islom ta'limotiga zid ekani borasida chiqarilgan fatvolardan keltiring.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Hidoyat ortiga yashiringan zalolat. / Mualliflar jamoasi. — Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. — 136 b.
2. Islom ma'rifati: asliyat va talqin. O'quv-uslubiy qo'llanma. — Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. — 160 b.
3. Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyushmalar (Ma'lumotlar to'plami). / K.Shermuxeimedov, J.Karimov. — Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2014. — 160 b.
4. «Dunyo ulamolari murojaati». / Mualliflar jamoasi. — Toshkent: Movarounnahr, 2016. — 168 b.



## 9-mavzu. O‘ZBEKISTONNING TINCHLIK VA XALQARO XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDAGI O‘RNI

1. Ekstremizmning oldini olishda mintaqadagi hamkorlik shakllari.

2. O‘zbekistonning terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro tuzilma va tashkilotlardagi ishtiroki.

3. O‘zbekiston Respublikasida terrorizm xavfining oldini olish masalalari.

*Tayanch so‘z va iboralar:* xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik shakllari, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi tashabbuslari, xalqaro tuzilma va tashkilotlar, xalqaro hamkorlik.

**Ekstremizmning oldini olishda mintaqadagi hamkorlik shakllari.** Mustaqillikka erishgan O‘zbekiston Respublikasi diniy muhtaassiblik, ekstremizm va terrorchilikning mintaqaviy va umum-bashariy miqyosdagi xavf ekanini ta’kidlab, jahon hamjamiyati unga qarshi birgalikda kurashishi lozimligini jahonning nufuzli tashkilotlari minbarlaridan e’lon qildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1993-yil 28-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida qilgan ma’ruzasida jahon hamjamiyatini Afg‘oniston muammosini izchil o‘rganish va yechishga chaqirdi.

2001-yilning 28-sentyabrida BMTning Xavfsizlik Kengashi 1373 (2001)-sonli rezolyutsiyani qabul qilib, tashkilot qoshida terrorizmga qarshi kurash qo‘mitasini tuzdi. Ushbu qo‘mitaning tuzilishi va faoliyati O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov taklif qilgan terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazining konsepsiyasiga hamohangdir. Zero, Yurtboshimiz 1999-yilning noyabrida Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (YeXHT) Stambulda bo‘lib o‘tgan Sammitida va 2000-yilning 7–8-sentyabrida Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasining «Mingyillik sammiti»da BMT tuzilmalarida terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazini tuzish takli-

fini bayon qilgan edi. Ushbu tashabbus amalga oshganidan soʻng, Oʻzbekiston 2001-yil dekabr oyida va 2002-yilning avgust oyida BMT Xavfsizlik Kengashining yuqorida zikr etilgan rezolyutsiyasining bajarilishi xususida BMTning terrorizmga qarshi kurash qoʻmitasiga maʼruzalar taqdim etdi.

Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1998-yilda tashkil topgan «6+2» guruhi-ning BMT rahbarligida 1998–1999-yillarda olib borgan faoliyati Afgʻonistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega boʻlganini taʼkidlash zarur. Bu guruh Afgʻoniston bilan chegaradosh olti davlat (Xitoy, Oʻzbekiston, Pokiston, Eron, Tojikiston, Turkmaniston) va mintaqa tashqarisidan Afgʻonistondagi vaziyatga jiddiy taʼsir koʻrsatib turgan ikki davlat – AQSH va Rossiya Federatsiyasining yuqori darajadagi vakillaridan tashkil topgan edi. Bu guruh bir qator majlislar, muhokamalar va muzokaralar oʻtkazib, ularga Afgʻonistonda bir-biri bilan kurashayotgan kuchlar vakillarini jalb qilib, «Afgʻonistondagi mojaroni tinch yoʻl bilan bartaraf etishning asosiy tamoyillari toʻgʻrisida»-gi Toshkent Deklaratsiyasini va mintaqaviy xavfsizlik masalalari boʻyicha bir qator boshqa hujjatlarni ishlab chiqdi. 1999-yilning 28-iyulida BMT Xavfsizlik Kengashi majlisida «6+2» guruhining Toshkent uchrashuvi yakunlari yuksak baholandi.

Xalqaro tashkilotlar va ayrim mamlakatlar ushbu yoʻnalishda muayyan ishlarni amalga oshirayotgan boʻlsa-da, Afgʻoniston jahon hamjamiyati uchun hali-hanuz tahdidlar oʻchogʻi boʻlib qolayotganini, ushbu mamlakatda ziddiyatlarning kuchayib borishi, keskinlik va terrorizm koʻlamining kengayishi global xavfsizlik va barqarorlik uchun hamon jiddiy tahdid solayotganini ham taʼkidlash zarur. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yil aprelda Buxarest shahrida boʻlib oʻtgan, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni taʼminlash yoʻlida koʻp tomonlama hamkorlik, shuningdek, Afgʻonistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga doir masalalar muhokama qilingan NATO Yevroatlantika ham-

korlik kengashi sammitida qilgan ma'ruzasida bayon etilgan g'oyalarni diqqatga sazovordir.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan Afg'onistonda vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha yagona xalqaro amaliy mexanizm bo'lib kelgan, 1997–2001-yillarda BMT rahnamoligida samarali faoliyat ko'rsatgan, Afg'oniston bilan qo'shni davlatlar, AQSH va Rossiyaning vakolatli vakillaridan tashkil topgan «6+2» muloqot guruhini hozirgi voqelikni inobatga olgan holda va muzokaralar jarayonida NATO vakolatxonasi ham albatta ishtirok etishini nazarda tutib, «6+Z» guruhiga aylantirish zarurligi haqidagi g'oyat qimmatli amaliy taklif ilgari surilganini ham alohida qayd etish lozim. Bunday mexanizmning qayta tiklanishi barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

O'zbekiston Respublikasi ekstremizm va terrorizm bilan birga uni moliyalashtirish bilan uzviy bog'liq bo'lgan narkobiznes va narkotrafikka qarshi kurashda ham qat'iy siyosat olib bormoqda. 1999-yilda «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida»gi, 2000-yilda «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi va 2006-yilning 1-yanvaridan amalga kiritilgan «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonunlarning qabul qilingani ham fikrimizni tasdiqlaydi. Shuningdek, terrorizmga qarshi qaratilgan ko'plab xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, ulardagi majburiyatlarini izchil bajarib kelmoqda. Shu bilan birga, bu masalalarda o'zining tashabbuslarini ilgari surayotganini ham alohida ta'kidlash zarur.

Ma'lumki, BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan 13 ta hujjati (11 ta konvensiya va 2 ta protokol) mavjud. Hozirda O'zbekiston 12 ta ana shunday xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgan.

O'zbekiston Yevropa Kengashi doirasida ham terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan 7 xalqaro shartnomani imzolagan.

Markaziy Osiyo respublikalari hamkorligi doirasida ham O'zbekiston ekstremizm, xalqaro terrorizm va narkobiznes xavfini o'zaro birgalikda bartaraf etish bo'yicha qator tashabbuslar bilan chiqib, uni ro'yobga chiqarib kelmoqda. 2000-yil 21-aprelda Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston respublikalari terrorizm, siyosiy va ekstremizm, xalqaro uyushgan jinoyatchilik hamda tomonlarning barqarorligiga xavf tug'diradigan boshqa tahdidlarga qarshi kurashda hamkorlikda harakat qilish haqida shartnoma imzolagani ham buning isboti bo'la oladi.

Jamiyat taraqqiyotiga muqobil ravishda ekstremizm va terrorchilik bilan bog'liq jinoyatlar sifat va miqdor jihatidan o'zgarib, uning masshtab doirasi tobora kengayib bormoqda. Shuningdek, terrorchilar sodir etayotgan jinoyatlarning intensivligi va og'irlik darajasi ham kun sayin dahshatli tus olayotgani juda achinarli holdir. Bu esa insoniyat xavfsizligi va dunyo mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga tahdid hamon saqlanib qolayotganidan dalolat beradi.

XX asrning so'nggi choragiga kelib, diniy ekstremistik va terrorchi kuchlarga qarshi kurash xalqaro muammo darajasiga ko'tarildi. Bu esa ekstremizm va terrorizm tinchlik va barqarorlik uchun asosiy tahdid ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, ko'plab ekstremistik va terrorchi guruhlar faoliyat olib borishga intilayotgan Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'min etishda mintaqadagi davlatlar o'rtasida terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalari muhim ahamiyat kasb etadi.

**O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro tuzilma va tashkilotlardagi ishtiroki.** O'zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi ishtiroki mintaqaviy tashkilotlardagi faoliyatida ham yorqin namoyon bo'lmoqda. Xalqaro siyosatning asosiy subyektlariga davlatlar tomonidan tuzilgan xalqaro-siyosiy yoki harbiy-siyosiy tashkilotlar ham kiradi. Ular qatoriga Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN), Yevropa Ittifoqi, Arab mamlakatlari ligasi (AML), Amerika davlatlari tashkiloti (ADT),

Afrika birligi tashkiloti (ABT), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXHT), Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT), Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) kabi bir qator mintaqaviy tashkilotlar doirasida qabul qilingan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan shartnomalarni bajarishda faol qatnashib kelmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasining ushbu shartnomalarda qatnashishi uning ichki va tashqi siyosatining mantiqiy davomidir.

Terrorizmga qarshi kurash, uni bartaraf etish masalalariga oid siyosiy-huquqiy hujjatlar nafaqat BMT doirasida, balki Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, YeXHT, Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi tuzilmalar a'zolari bo'lgan davlatlar o'rtasida ham imzolangan. MDH a'zolari tomonidan 1999-yilning 4-iyunida imzolangan «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi shartnoma» O'zbekiston MDHdagi aksilterror markazi ishida ham faol qatnashayotganidan dalolat beradi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti tomonidan 2001-yil 15-iyunda «Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash» Konvensiyasi qabul qilindi. Mazkur konvensiya nisbatan qisqa muddatda tashkilotga a'zo barcha mamlakatlar, jumladan O'zbekiston parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilindi. O'zbekiston ekstremistik guruhlariga qarshi kurashda mazkur konvensiyaning 1-moddasida «ekstremizm» tushunchasiga berilgan ta'rif va undan kelib chiqadigan me'yorlarni asos qilib olganini alohida ta'kidlash o'rinli.

2002-yil 7-iyunda Shanxay hamkorlik tashkiloti a'zolari o'rtasida imzolangan kelishuv va boshqa hujjatlarda terrorizm, separatizm va ekstremizmning xalqaro tinchlik va xavfsizlikka, davlatlararo do'stona munosabatlarga hamda insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlashga xavf solayotganligi, shuning uchun barcha tinchliksevar kuchlarning unga qarshi kurashda hamkorlik qilishi zarur ekanligi qayd etilgan.

2004-yil iyunida Shanxay hamkorlik tashkilotining Toshkentda bo'lib o'tgan Sammitida xavfsizlikka tahdidlar masalasida yagona yondashuv va qarash, yuqori malakali mutaxassislar tayyor-

lash, maxsus xizmatlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, xalqaro miqyosdagi yetakchi aksilterror markazlari (BMT, Interpol, ASEAN) bilan konstruktiv hamkorlik qilish Mintaqaviy aksilterror tuzilmasining faoliyatidagi o'ziga xos prinsipial jihatlar ekanligi yana bir bor qayd etildi. Shuningdek, Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmning barcha ko'rinishlari hamda xalqaro jinoyatni moliyaviy ta'minlab turgan narkotrafikka qarshi izchil kurashish borasida mintaqa mamlakatlariga ko'maklashishi zarur.

Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatida «uch yovuz kuch», ya'ni «terrorchilik», «ayirmachilik» (separatizm) va «ekstremizm»ga qarshi kurashda hamkorlikni rivojlantirish alohida o'rin tutadi. 2004-yil 1-yanvaridan boshlab, Toshkentda ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi faoliyat yuritmoqda. Bu tuzilma faoliyati tufayli 2005-yilning o'zida ko'plab sodir etilishi mumkin bo'lgan terrorchilik harakatlarining oldi olinganligi ma'lum.

Xususan, 2005-yilning iyul oyida tashkilotning Shanxay shahrida bo'lib o'tgan sammitida unga a'zo davlatlar rahbarlari tomonidan bir qator hujjatlar imzolandi. Xalqaro axborot xavfsizligi to'g'risidagi bayonot; terrorchilik, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha 2007–2009-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturiga doir qaror; ShHT mamlakatlari hududida qo'shma aksilterror mashqlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi bitim; a'zo davlatlar hududiga terrorchilik, ayirmachilik va ekstremistik faoliyatga aloqador kishilar kirib kelishini aniqlash va bunday yo'llarni to'sib qo'yish borasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim shular jumlasidandir. Bundan tashqari ShHT doirasida 2020-yilgacha bo'lgan davrda savdo-iqtisodiy hamkorlikni ko'zda tutuvchi dastur qabul qilingan. Shuningdek, ShHTga a'zo mamlakatlarning huquqni muhofaza qiluvchi idoralari, jumladan ichki ishlar organlarining terrorchilik, separatizm, ekstremizmga va

giyohvandlikka qarshi birgalikda harakat qilishi, bu borada o‘zaro axborot almashishi yaxshi samara bermoqda.

Shuning bilan birga, O‘zbekiston Islom hamkorlik tashkilotiga 1994-yildan a‘zo bo‘lgan. Mazkur tashkilotning maqsadi musulmonlar birdamligini mustahkamlashga ko‘maklashish, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy sohalarida hamkorlik qilishdan iborat. Shuningdek, irqiy kamsitishlarga, kolonializmning barcha shakllariga chek qo‘yish, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlashga oqilona yondashish, tashkilotga a‘zo mamlakatlar orasida va boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro kelishuv, hamkorlikni rag‘batlantirish IHT faoliyatida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonning yuqorida qayd etib o‘tilgan mintaqaviy tashkilotlar ishidagi faol ishtiroki, tashabbuslari va takliflari global xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashda O‘zbekistonning tutgan o‘rni muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Jumladan, 2010-yil sentyabr oyida BMT Bosh Assambleyasining «Mingyillik rivojlanish maqsadlari» bo‘yicha oliy darajadagi yalpi majlisida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov nutq so‘zladi. Unda terrorizm, ekstremizm, ayirmachilik va narkotrafikka qarshi birgalikda kurashish hamda Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish mavzusiga ham alohida to‘xtalib o‘tdi. Bu xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorlik kelgusida ham O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lib qolaveradi.

*«Biz xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlangan o‘z yo‘limizda qat’iymiz: ya’ni O‘zbekiston aqidaparastlikning — u xoh diniy, xoh kommunistik shaklda bo‘lsin — har qanday ko‘rinishlariga qarshimiz».*

*Islom Karimov*

**O‘zbekiston Respublikasida terrorizm xavfining oldini olish masalalari.** O‘zbekistonda shakllanayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati o‘ta murakkab va mashaqqatli siyosiy jarayonga asoslangan. Bir tomondan, eski sovet tuzumidan

qolgan salbiy meros demokratik o'zgarishlarga qarshilik ko'rsat-sa, ikkinchi tomondan, ayrim siyosiy kuchlar xalqimiz tanlagan dunyoviy taraqqiyot yo'liga rahna solib, uni izdan chiqarish va diniy maqomga burib yuborishga harakat qilmoqda. Bu «ayrim siyosiy kuchlar» ekstremizm va terrorizmning bevosita ilhomchilari va bajaruvchilari bo'lib, ular nopok siyosiy maqsadlari yo'lda inson va jamiyatning eng nozik va qaltis tarixiy qadriyati – dindan foydalanishga urinmoqda.

Ayniqsa, 1999-yilning 16-fevralida Toshkent shahrida terroristlar tomonidan uyushtirilgan portlashlardan keyin terrorizm muammosi O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy hayotga tahdid soluvchi asosiy xavf-xatarlardan biriga aylandi.

Mustaqil davlatimiz qonunchiligida terrorizmga qarshi kurashning asosiy tamoyillari (qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, jazoning muqarrarligi) bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardir:

1. O'zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonuni (2000-yil 15-dekabr).

2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi (2001-yil 18-oktyabrdagi o'zgartish va qo'shimchalar bilan).

3. O'zbekiston Respublikasining «Jinoyat, jinoyat-protsessual kodeksi va ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni (2001-yil 29-avgust).

4. O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonuni (2004-yil 26-avgust).

Ushbu huquqiy-me'yoriy hujjatlar orasida O'zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi va «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonunlar alohida e'tiborga molik. Chunki bu qonunlar tufayli O'zbekistonda terrorizmga qarshi kurashning normativ, tashkiliy va moddiy-texnik



asoslari yaratildi. Unga ko'ra, terrorizmni targ'ibot qilish, terroristik guruh va tashkilotlarni tuzish hamda ularning faoliyati, tayyorlanayotgan yoki amalga oshirilgan terroristik jinoyatlarga oid ma'lumot va dalillarni yashirish taqiqlanadi.

Terrorizmga qarshi kurash dastavval uni oziqlantiruvchi g'oyaviy-ma'naviy va moliyaviy-iqtisodiy manbalarni zararsizlantirishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan 2006-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonun jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu qonunga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkka oid operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshirish vakolati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ga yuklatilgan. Respublika Bosh prokuraturasi huzurida faoliyat ko'rsatayotgan Soliq, valyutaga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti zimmasiga moliyaviy razvedkaning zamonaviy tizimini yaratish, jinoiy daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishning kanal va mexanizmlarini aniqlashga yo'naltirilgan moliyaviy, mulkiy operatsiyalarning monitoringini amalga oshirish, xorijiy davlatlarning vakolatli organlari hamda xalqaro ixtisoslashgan va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish va axborotlar ayirboshlash kabi yangi vazifalar yuklatildi. Chunki bugun diniy shiorlar bilan niqoblangan, giyohvand moddalarning noqonuniy savdosidan ke- layotgan katta-katta mablag'lar evaziga yashayotgan xalqaro ter- rorchilik mintaqa xavfsizligiga jiddiy tahdid tug'dirmoqda.

Xalqaro valyuta fondining 2006-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning turli mintaqalaridagi narkokartellar uyushgan jinoyatchilik va xalqaro terrorizmni moliyalashtirishga har yili 500 milliondan to 1,5 milliard dollargacha mablag' sarflamoq- da. Jumladan, so'nggi 6–8 yilda ro'y bergan 111 ta mojarolarda ishtirok etgan terrorchi guruhlarning narkokartellar bilan moli- yaviy aloqadorligi Xalqaro valyuta fondi ekspertlari tomonidan

aniqlandi. Mintaqadagi barqarorlikka xavf tug'dirishda hamon asosiy omil bo'lib qolayotgan Afg'onistonda YaIM (yalpi ichki mahsulot)ning 50 foizini giyohvand moddalardan olinayotgan daromad tashkil etmoqda.

Respublikamizning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi «Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir» nomli ma'ruzasida bugungi globallashuv sharoitida AYSEF deb atalmish koalitsion qo'shinlarning 2014-yilgacha va undan keyin qo'shni Afg'oniston hududidan olib chiqib ketilishi bilan bog'liq ravishda ushbu mamlakat va uning atrofidagi vaziyatning yanada keskinlashib, terrorizm, ekstremizm va narkotrafikning kuchayishi xavfi borligini, Afg'onistonda yuz berishi mumkin bo'lgan keskin holat qo'shni davlatlarda jiddiy xavotir uyg'otishi muqarrarligini ta'kidlab o'tdilar. Shuningdek, ma'ruzada Yurtboshimiz tomonidan vujudga kelayotgan murakkab vaziyatda voqealarning bunday salbiy ravishda rivojlanishining oldini olish uchun BMT rahnamoligida Afg'onistonga qo'shni mamlakatlar hamda AQSH, NATO, Rossiya ishtirokida muloqot guruhini tashkil etish va o'zaro kurash olib borayotgan kuchlar o'rtasida murosaga erishish hamda koalitsion afg'on hukumatini shakllantirish Afg'onistonda tinchlikni qaror toptirish uchun eng munosib yo'l ekani qayd etildi. 2012-yilning sentyabr oyida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qonun O'zbekiston tashqi siyosatida o'zining uzoq muddatli milliy manfaatlarini ko'zlagan asosiy tamoyillarni namoyon qiladi. Ushbu konsepsiya davlatimizning xalqaro maydondagi asosiy tamoyillari, strategik ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi va O'zbekiston tomonidan mamlakatimiz mustaqilligining birinchi yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan strategiyaning mantiqiy davomidir. Bu O'zbekistonning qo'shni Afg'oniston bilan munosabatlarida ham o'z aksini topgan.

*«Bugungi kunda, insoniyat qoʻlida mavjud boʻlgan qurol-yarogʻlar Yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf – insonlarning ongi va qalbini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida boʻlayotgan kurashlar koʻp narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmaslik lozim».*

*Islom Karimov*

Demak, mafkuraviy kurashlardan qatʼi nazar, tashqi siyosatda ochiq-oydinlik tamoyili Oʻzbekistonga qisqa muddat ichida ikki taraflama keng tashqi aloqalar oʻrnatish imkonini berdi. Yevroosiyo iqtisodiy va madaniy koʻprigining barpo etilganligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi hamkorlikning kengayib borayotganligi mamlakat tashqi siyosatining strategik istiqbolidir. Oʻzbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, nizolarni tinch yoʻl bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umumeʼtirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Oʻzbekistonning xalqaro maydonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash borasida olib borayotgan qatʼiy siyosatining mazmun-mohiyati nimada?
2. Oʻzbekiston ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan qanday xalqaro shartnomalarda ishtirok etmoqda?
3. Oʻzbekiston terrorizmga qarshi kurash boʻyicha qanday mintaqaviy tashkilotlarning aʼzosi hisoblanadi?
4. Oʻzbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni taʼminlashdagi oʻrni nimalarda koʻrinadi?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo'llari. A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuxamedov, U.G'afurov, J.Karimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.

2. Jo'rayev Sh. «Vijdon erkinligining huquqiy kafolatlari» // O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 80 b.

3. G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. – Toshkent: «O'zbekiston», 2013. – 312 b.

4. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552 b.

## 10-mavzu. YOSHLARDA EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH: MAQSAD VA VAZIFALAR

1. Din niqobidagi mafkuraviy tahdidlardan asrashning ma'naviy-ma'rifiy yo'llari va vositalari.

2. Yoshlarda internetdagi din niqobi ostidagi axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishning dolzarb masalalari.

3. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish.

*Tayanch so'z va iboralar: mafkuraviy xavfsizlik, mafkuraviy tahdid, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy bo'shliq, Internet, axborot xurujlari, g'oyaviy tarbiya, jaholatga qarshi ma'rifat.*

**Din niqobidagi mafkuraviy tahdidlardan asrashning ma'naviy-ma'rifiy yo'llari va vositalari.** Yoshlarning faol ijtimoiy kuchga aylanib borayotgani bugungi kunda ularning turli mafkuraviy ta'sir va tazyiqlarning bosh obyektiga aylanishiga olib keldi. Bunda ularning jamiyatning hali yetarli tajribaga ega bo'lmagan, tashqi ta'sirlarga tez beriluvchan va, ayni paytda, eng harakatchan qatlami ekani inobatga olinmoqda.

Yoshlarning turli oqimlarga kirib qolishlari sabablari qatorida ularning bilimlari, shu jumladan, diniy ilmlarni egallashga bo'lgan qiziqish va intilishi hamda ishonuvchanligi, birdaniga va hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo'lishga harakat qilishi, ilmiy tilda aytganda maksimalizm kabi ma'naviy-ruhiy omillarni alohida ajratib ko'rsatish lozim. «Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan alohida, har kimga ham nasib qilavermaydigan sharafli ishga qo'l urgan bo'lasan, kerak bo'lsa, sen millat, din, insoniyatning xaloskoriga aylanasan!», — degan qarashlarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga alohida e'tibor berilayotganini ko'rsatadi.

«Yoshlarning ongida qanday kayfiyat ustunligini aytsang, men senga keyingi avlodning tabiati qanday bo'lishini aytib beraman», – deb yozgan edi siyosiy arboblardan biri. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, diniy ekstremistik oqimlar jamiyatning ertangi kunini belgilab beradigan avlod ongini egallash, nazorat qilishni ko'zlab ish yuritmoqda deyish mumkin.

*«Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, haqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi».*

*Islom Karimov*

Hozirgi kunda farzandlarimiz dunyoning eng o'tkir, faol, uddaburon, vatanparvar yoshlariga aylanishi, ularni fidoiylik, vatanparvarlik, tadbirkorlik, millatparvarlik, sadoqatga o'rgatish ko'p jihatdan ota-onalarga bog'liq. Bu borada, albatta, ota-onaga yordam berishda butun jamoatchilik – mahalla oqsoqoli, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi, imom, profilaktika noziri, Xotin-qizlar qo'mitasi va «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati kabi tashkilotlarning joylardagi mas'ullari birgalikda faol ishlashlari kerak.

Mamlakatimizda yoshlarni ilm-ma'rifatli, turli sohalarda yetuk mutaxassis, jismonan barkamol inson bo'lib yetishishga keng sharoitlar yaratib berilgan. Mazkur imkoniyatlardan to'lato'kis foydalanish, jamiyat va davlat uchun fidokor shaxs bo'lish har bir yoshning burchidir. Buning uchun esa, ular avvalo, dunyoviy va kasb fanlarini chuqur o'zlashtirish, shuningdek, o'zbek xalqining mehnatsevarlik, oilani muqaddas bilish, insonlarga mehribonlik, do'stlarga sadoqat, vatanparvarlik kabi tarixan e'zozlab kelinayotgan qadriyatlarini o'zida shakllantirishi talab etiladi.

Zero, ajdodlarimizning azaliy qadriyati hisoblangan islom dinida ham yoshlarga, ularning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, Qur'oni Karimda 1300 dan ortiq oyat-

lar odob axloqqa va ilmga aloqadorligi insonni barkamollikka yetaklaydigan mezon sifatida ko'rish mumkin. Xalqimiz qoniga singib ketgan diniy qadriyatlarda farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilishi xususida payg'ambarimiz Muhammad (a.s.) «Kishi farzandining tarbiyasi bilan har kuni yarim soat shug'ullanishi sadaqa berishdan yaxshiroqdir» deb ta'kidlaydilar. Bundan ko'rinib turibdiki, islom dini farzand tarbiyasiga yoshligidan to'lg'ayguncha alohida e'tibor qaratadi. Ularning nafaqat ilm olishlarini, balki yuksak odob-axloq sohibi etib tarbiyalashni asosiy mezon sifatida qo'yadi.

Davlatimiz kelajagi hisoblangan yosh avlod tarbiyasiga yurtimizda ham doimo alohida e'tibor bilan qaralgan. Hukumat tomonidan sog'lom va ma'naviy boy, intellektual rivojlangan, axloqan yetuk, jismonan baquvvat avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazish maqsadida 2000-yilni «Sog'lom avlod yili», 2001-yilni «Onalar va bolalar yili», 2008-yilni «Yoshlar yili», 2010-yilni «Barkamol avlod yili», 2014-yilni «Sog'lom bola yili», 2016-yilni «Sog'lom ona va bola yili», 2017-yilni «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» va 2018-yilni «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qollab-quvvatish yili» deb e'lon qilinganligi ham buning yana bir yorqin hayotiy-amaliy ifodasi bo'lgan edi.

Demak, yoshlarimiz uchun mamlakat suvereniteti, territorial birligi hamda mustaqil siyosat yuritish huquqini mustahkam himoya qiluvchi fuqaro bo'lish, o'zlarida milliy an'ana va xalqimiz mentalitetiga yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy qobiq shakllantirish sharafligi va ma'suliyatli burch hisoblanadi.

Urushning eng qadimgi prinsiplaridan biri, bu dushmani yaxshi bilish zaruratidir. Zamonaviy terrorizmning biz ko'rib chiqqan tahlili asosi shuni ko'rsatadi-ki, terroristik amaliyotlarning ichki, tashqi va ruhiy miqyoslarini inobatga olmasdan bizning bilimlarimiz to'liq bo'lmaydi. Oldingi mavzularda, biz Usoma bin Laden va al-Qoida zamonaviy terrorizmdagi qator omillarni sintezlashtirganini ko'rishimiz mumkin. Bu, diniy apokaliptik tilning transformatsiyalashishidan tortib, «istishhod» amaliyotlarini

kundalik ishga aylantirilishida o'z aksini topadi. Ularning yo'llarida sintezlashtirish bu innovatsiya deganidir. Bir jihatda, al-Qoida shubhasiz o'ziga xos innovatsiya yaratgan – u tarmoq sifatida shakllangan.

Mazkur bahsimizda biz Rand Korporatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan tahlilchilarning ma'lumotlari va kitoblaridan foydalanamiz. Rand Korporatsiyasi g'oyaviy markaz deb nomlangan birinchi tashkilot edi. Uning birinchi asosiy mijosi 1946-yildan AQSH Harbiy havo kuchlari edi. Rand tomonidan ayni kunlarda amalga oshirilayotgan ishlarning asosiy qismi nizolarning yangi ko'rinishlari, shu jumladan terrorism va hozirda harbiy munosabatlardagi revolyutsiya (HMR) deb ataladigan fenomenlar bilan bog'liqdir. Biz shug'ullanadigan eng asosiy argument Randning «informatsion revolyutsiyaning» urushga ta'siriga oid tadqiqotidir.

Muallifning fikrlari o'sha paytda endi nihoyasiga yetgan Fors ko'rfazi janglari hamda AQSH va u razvedka ma'lumotlarini almashadigan ittifoqchilari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslanganini ko'rish mumkin. Mazkur urush hamda kelajakdagi barcha urushlarning natijasi, ularning fikriga ko'ra, kapital, ishchi kuchi yoki texnologiyaga emas, balki, ayni damda «kim jang maydoni haqida eng yaxshi ma'lumotga ega ekani»ga bog'liqdir. Qiyoslash uchun, AQSH jang maydonining barcha taraflarini ko'rsa bo'ladigan shaxmat o'yinini, iroq kuchlari esa faqat o'z tarafini ko'rish imkonini beradigan krigshpil o'yinini o'ynayotganini ko'z oldimizga keltirish mumkin. Agarchi krigshpil o'ynayotgan odamda ikki nafar farzin bo'lsa ham baribir shaxmatchi g'alaba qozonaveradi.

Tarixan, qurol-aslaha, kommunikatsiya va transport quvvatidagi texnologik o'zgarishlar harbiy tashkilotlar tuzilmasi, doktrinasi va strategiyasida yangi ustunlik taqdim etgan. Shubhasizki, harbiy tashkilotlarning qo'lidagi stels texnologiyasiga ega og'ir bombardimonchi samolyotlar, tanklar, kemalarning qurilishi, elektron razvedka ma'lumotlar to'planishi, raqamli boshqaruv va nazorat imkoniyatlari va boshqa diqqatga sazovor yuqori texnologiya-



li uskunalar kishini hayratga soladi. Biroq, Van Kreveld kuzatgani kabi, «harbiy uskunalar ortida umumiy bir uskuna bor, uning ortida esa nou-xau toifasiga kiradigan texnologiya bor. Ularga dunyoni anglash va uning muammolarini hal qilish vositasi sifatida qaraladi». Boshqa iboralar bilan aytganda, texnologiya bu o'ta rivojlanib ketgan uskuna va quoldir. Yana ham aniqroq aytganda, agar texnologiya nou-xau va «hayotga boqishning muayyan yo'li»ni o'z ichiga qamrab olsa, bu holatda uning eng muhim xususiyati uskunaning o'zida emas, balki uning qanday tuzilganidadir. Jak Ellulning tadqiqotlaridan olingan texnologiyaning mazkur ta'rifi to'g'ridan to'g'ri «axborot inqilobi» bilan bog'liqdir.

*Axborot inqilobi atamasi kompyuterlashtirilgan axborot va aloqa vositalaridagi rivojlanishlarga nisbatan qo'llaniladi. Buni stels samolyotlari va tanklarga qiyoslash mumkin. Biroq, ikkinchi holatdagi rivojlanish tashkiliy va boshqaruv nazariyasidagi o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi. Mazkur oxirgi jihat, ya'ni «dunyoga yangicha qarash», bizning axborot haqidagi tasavvurimizni o'zgartirdi. Shu bilan birga, quyida batafsilroq so'z yuritganimiz kabi, axborot inqilobi, tarmoqni boshqa tashkilotlar ustidagi tashkilot sifatida kuchaytirib, imtiyozlar taqdim etdi. Ayniqsa, bunda axborot tepadan pastga qarab oqadigan iyerarxik tashkilotga ta'siri kuchli bo'ldi. Ikkinchi tomondan, «tarmoq texnologiyalaridagi rivojlanish bugun insonlarga ma'lumot bazasi va protsessor hamda tarmoq manbayi sifatida qarash imkonini bermoqda». Mazkur nuqtayi nazardan, insonlar resurslarni mobilizatsiya qilish uchun buyruq bermaydilar. Bu xuddi general o'z otliqlarini jangga tashlaganga o'xshaydi. Generallar, barcha insonlar kabi, o'zlari ham tarmoqlashgan resursdirlar.*

*Axborot inqilobidan ta'sirlangan yangi perspektiva yangicha tushunishni keltirib chiqaradi. Masalan, elektron pochta bu faqatgina pochta xizmatlarining tezkor shakli emas. U, shu bilan birga, insonlarni virtual jamoalar yaratish, bloklardan foydalanish imkoniyatini ham ochib berdi. Bloklar haqiqiy jamoalarning ba'zi atributlarini ifoda etsada, aslida ular jamoa emas. Shunday qilib, ular jamoa tushunchasining mohiyatini yangicha tushunishga harakat*

qiladilar. Umuman olganda, axborot inqilobi va uni tarmoqlar orqali tashkil etish boshqa turdagi tashkilotlar uchun yangi chaqiriq bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tarmoqlar bir tomondan klanlar va qabilalardan, ikkinchi tomondan esa iyerarxiya va bozorlardan farqlanadi. Bugungi kundagi maqsadlar uchun uning oxirgi farqlari muhimroqdir. Iyerarxiya odatda kuch, boshqaruv, rahbarlik va nazoratni markazlashgan qaror qabul qiluvchi organ tashkil qilish orqali amalga oshiradi. Odatda, iyerarxiyalar buyruqlar zanjiri atrofida quriladi va ritual, burch, imtiyoz va hurmat bilan bezaladi. Maks Veberning klassik formulasiga binoan, guruh rahbarining «xarizmasi» uning buyruqlari so'zsiz bajarilavergani va uning o'zi ham yuqorida o'tirib «Men buni xohlayman», deb qaytaravergani sari oddiy holga aylanib qoladi. G'arbdagi iyerarxiyaning ilk va katta misoli bu cherkov va armiyadir. Vestfaliya Shartnomasiga (1648) kelib ular, qo'pol qilib aytganda davlat tomonidan siqib chiqarilgan edi.

Iyerarxiyalarning asosiy kamchiligi ularning katta hajmdagi murakkab va ko'p ma'noli ma'lumotlar bilan ishlay olmasligidir. Tarixda, mazkur zaiflik iqtisodiy bitimlarni amalga oshirish, xossatan uzoq mamlakatlar bilan savdodagi muvaffaqiyatsizliklarda namoyon bo'lgan. Natijada davlat iyerarxiyalari katta muammoga duch kelishdi — ular na yangi tashkilot shakli bo'lgan bozorni nazorat qila olishdi va na o'zlarining ta'sirini chegaralashdi. Tashkiliy nazariya nuqtayi nazaridan, merkantilizmdan kapitalizmga o'tish davlat iyerarxiyasi tomonidan o'z avtoritetini chegaralanishiga olib keldi. Kapitalizmga muvaffaqiyatli o'tgan davlatlar rivojlandi, o'ta olmagani esa zaiflashdi. O'tish davrining nihoyasi esa jamoat mulkini xususiyga, davlat mulkini esa bozorga o'tishi bo'ldi.

Har qanday tashkiliy tuzilmaning kuchli va zaif tomonlari bo'ladilar. Bozorlarning zaif tomoni uning g'olib yoki mag'lublarni yaratishida emas, balki uning ularning o'rtasidagi farqni tezlik bilan kamaytira olmasligidadir. Umuman olganda bozorlar tarmoqlarga tahdid sifatida qaraydi, chunki ular savdodagi spontanlikni buzadilar. Iyerarxiyalar ham tarmoqlarni tahdid sifatida ko'radi, chun-

*ki ularni buyruqlar chiqarish orqali boshqarib bo'lmaydi. Masalan, bozor va tarmoqlar o'rtasidagi muammo va hamkorlik iqtisodchi va boshqaruv nazariyotchilari tomonidan ishlab chiqilgan. Bunda, korporatsiyalar tizimida tarmoqlarning muhimligi e'tiborga olingan. Axborot inqilobining oqibat va mohiyati aniq ravshan bo'lgani kabi (ayniqsa yangi avlod uchun), huddi shunday «fuqarolik jamiyatlari» hamda «yangi ijtimoiy harakatlar» orasida no-iyerarxik muvofiqlashtirish va hamkorlik ishlarini tashkil qilish mumkinligi ham oydinlashib bormoqda. Axborot asri faolligi, atrof-muhit, inson huquqlari, aboregenlarning og'ir ahvoli kabi postmodern va postmaterialist masalalarga e'tibor qaratadigan NNTning birlashuvi Rand tahlilchilari tomonidan «ijtimoiy tarmoq urushi» deb atadi. Bunday «ijtimoiy tarmoq urush»larida ishtirok etishga qodir tashkilotlar orasida nafaqat NNTlar, balki narkotik kontrabandachilar va terrorchilar kabi «jamiyat dushmani» bo'lgan NNTlar ham bor. Fuqaro yoki fuqarolarga qaratilmagan tarmoqlar nafaqat texnologiya, tashkiliy tuzilishi va doktrina kabi umumiy attributlariga ko'ra, balki ijtimoiy kapital jihatidan ham tahlil qilinishi mumkin. Biz avvalgi uch atribut haqida umumiy ma'noda hamda oxirgi ikkitasini al-Qoida tashkiloti bilan bog'lab o'rganishga harakat qilamiz.*

*Mavzuga kirishishdan oldin «tarmoq urushi» va «axborot urushi» yoki zamonaviyroq qilib aytganda «kiber urush» o'rtasidagi farqlarni aniqlab olish foydadan xoli bo'lmaydi. «Tarmoq urushining» ham «kiber urushning» ham markazida axborot, bilim va kommunikatsiya turadi. Kiber urush ko'pincha boshqaruv, nazorat, kommunikatsiya va razvedka hamda dushman tomonning kommunikatsiya tizimini ishdan chiqarish maqsadida harbiy harakatlarga nisbatan qo'llaniladi. S3 dan stels texnologiyalariga va aqlli bombalarga qadar AQSHning kiber urushda shubhasiz ustunligini ko'rish mumkin.*

*«Tarmoq urushi» masalasiga kelganda mutlaqo boshqacha manzara kuzatiladi. Uning ichiga partizanlik urushlari, terrorizm va qurolli mojarolarning boshqa turdagi asimmetrik, noodatiy turlari kiradi. Arkvilla va Ronfildlar aytganidek:*

*...tarmoq urushlari mojarolarning an'anaviy turlari va jinoyatdan farq qiladi. Tarmoq urushlarida, bosh qahramonlar yirik harakatlar tashkil etish maqsadida iyerarxik tashkilotlar, doktrinalar va strategiyalardan foydalanadilar. Qisqa qilib aytganda, tarmoq urushi FOTga qaraganda ko'proq Xamas, Kuba fidelchilaridan ko'ra ko'proq Meksika Zapatistalari, Ku Kluks Klanga qaraganda ko'proq Xristian birligi harakati, Sitsiliya mafiyasiga qaraganda Osiyo Triadalari, al-Kapone to'dasidan ko'ra ko'proq Chikago gangsterlari guruhiga taalluqlidir.*

*Urushning mazkur ikki turi suv o'tmas idishlarga yashirilib, muhrlab tashlanmagan. Yuqorida ham ta'kidlaganimiz kabi, axborot inqilobi tarmoqlar ahamiyatini oshirgan edi. Kiber urushining markazida axborot turgani sababli, hattoki harbiy iyerarxiya tomonidan o'tkazilganida ham, shu aniqki axborot inqilobidan so'ng harbiy amaliyotlarni tashkil qilishda axborot urushining ahamiyati juda katta bo'ladi. Darhaqiqat, tarmoq tizimlarining qisman yoki to'liq holda harbiy iyerarxiyaga integratsiyalashishi harbiy munosabatlardagi revolyutsiyaning bir ko'rinishi bo'lib, u chuqur tadqiq qilinib harbiy akademiyalarda tahlil qilingan.*

*Barcha fikrlarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkin-ki: «axborot inqilobi, boshqacharoq aytganda material va uskunalardan tashkil topgan ikki xil texnologiya, bu serjant admiralni boshqarishi imkonini beradigan yo'lni izlashdir». Tarixan, tarmoqlar bilan ishlash iyerarxialardan ko'ra qiyinroq kechadi. Chunki, bir tomondan ular mavjud bo'lishi uchun doimiy barqaror va tinimsiz aloqani talab etadi. Ikkinchi tomondan esa, u qaror qabul qilishni qiyinlashtiradi. Axborot inqilobi natijasida kerakli aloqa va kommunikatsiya muammosini hal qilish mumkin bo'ldi, chunki endi har bir bo'g'inni boshqasi bilan bog'lanish imkoni bor. Manuel Kastellsning iborasi bilan aytganda: «axborot inqilobi natijasida yuzaga kelgan aloqa qilish imkoniyati tarmoqli fuqarolik jamiyati uchun «material baza» bo'lish bilan birga, terrorchilarga ham tarmoq yaratish imkonini berdi».*

*Ular alohida shaxslar, guruhlar yoki jamiyatlar bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, Internet aloqa tizimi markaziy aloqa vazifasini bajaruvchi kartelda mavjud bo'lgan vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin, ya'ni aloqa markazlari bilan o'zaro ma'lumot almashishi kerak. Markaziy aloqa sistemasi tayanch vazifasini bajarishi aloqa punktlaridan ko'ra ko'proq ma'lumotga ega bo'lish yo'llariga ega bo'lishi mumkin, lekin aloqa punktlari o'z harakatlarini boshqara olmaydi.*

*Uchinchidan, barcha aloqa punktlarini bir-biri bilan bog'lab turuvchi katta bir aloqa kanali mavjud. Uchinchi keltirilgan fakt Internet ishlaydigan prinsiplariga juda ham yaqin.*

*Aloqa zanjiri va markazi yoki yana boshqa nom bilan aytganda «o'rgimchak to'ri» boshqa barcha tarmoqlardan ko'ra ko'proq ehtiyotkorlikka e'tibor berishadi. Boshqa barcha jamiyatlar yaratgan tarmoqlar va gibrid formalar aloqa vositalarida afzalliklar yaratish ustida tajribalar amalga oshirishadi, bu tajribalarga xavfsizlik ustida amalga oshiriladigan tajribalar ham kiradi. Barchaga ma'lumki, qo'riqlash tizimi hushyorlik va ehtiyotkorlik muhim bo'lgan Internet tarmog'ida boshqaruvchi rolni amalga oshiradi. Bir narsa ham ma'lumki, Internet tarmoqlarida funksional gibridlar va alohida taktik operatsiyalarni amalga oshirish uchun Internet ham bo'ladi. Nima bo'lganda ham detallarning turli xilligiga qaramasdan, barcha telealoqa tarmoqlari tezkor hamkorlik va markazlashgan boshqaruv tizimida katta manfaatlariga ega va ular ekstensiv aloqada o'ta muhim hisoblangan harakatlar ustidan nazorat vazifasini ham amalga oshirishadi.*

*Internet tarmoq a'zolariga doimo aloqada bo'lish zaruriyat tug'dirmaydi, ular xohlagan paytlarida kerakli ma'lumotlarni qabul qilishlari mumkin.*

*Texnologiya va Internet tarmoq Internet revolyutsiyasi bilan birgalikda rivojlandi, e-mail, telefon qo'ng'iroqlari, faks, veb tarmoqlarning barcha ko'rinishi geografik jihatdan uzoq masofalarda joylashgan punktlar uchun yengilliklar yaratdi. Shu vaqtning o'zida kuryerlar yoki Mangoliyaning «Arrow Riders» ekspress kur-*

yerlari o'z ishlarini qo'ldan kelganicha amalga oshirmoqda. Zamonaviy texnika, zamonaviy tarmoq imkoniyatlarini bizga taqdim etadi. Lekin an'anaviy texnika — bu qulaylikdir. Internet tarmoqlarining afzalliklarini sanab o'tganimizda qoidalar asosida tuzilgan doktrina haqida so'z yuritishimiz biroz qiyin. Bu mavzuda bahs olib borish bilan shuni aytish mumkinki, doktrina — bu barcha sharoitlarni hisobga olgan holda boshqa tarmoqlar bo'ysunishi zarur bo'lgan alohida bir qonuniyat emas, balki Internet tarmog'i a'zolariga hech qanday boshqaruvchi va buyruq beruvchisiz strategik operatsiyalarni amalga oshirishda yo'l ko'rsatuvchi bir qoidalardir. Qisqacha qilib aytganda, doktrinaning asosiy vazifasi — bu o'zini boshqaruvchi deb atagan inson uchun yaxshi ustoz vazifasini bajaradi.

Doktrinaning ikkinchi elementi to'plash bo'lib, u bir necha avtonomlar yoki yarim avtonom birliklarni bir nuqtaga yig'ib o'z ichiga olgan manyovrlardir. «To'plash»ga yorqin misol bo'la oladigan vaziyatlar tarixiy voqealarda o'z aksini topgan va alohida ta'kidlab o'tiladi. Skatianliklar, mongoliyaliklar, zuluslar, metislar va Janubiy Amerika tutqunligida bo'lgan hindlar turli xil yo'nalishlardan turib birlashgan holda hujum qilish taktikasini ishlab chiqarishlari mumkin edi. Bundan tashqari, II Jahon urushida aloqa vositasi sabab vujudga kelgan ko'pgina hujumlar haqida ma'lumot olishimiz mumkin.

«To'plash» elementlarini bir nechta hujumlarda ham ko'ramiz. Misol uchun Salamis havzalari oldida Fors flotiga hujum qilgan afinaliklar; 1558-yilda Ispan Armadasi; 1968-yil V'etnamdagi Tet Ofensiv voqeasi, 1994–1996-yillar Rossiya hukumatiga qarshi qo'zg'olon ko'targan chechenlar; Kursk urushida ruslarning Nazi Blitriskka qarshi hujumida yoki somaliliklarning Qora daryo sohil-laridagi tezkor renjerlarga qarshi urushida ham «to'plash»ning yorqin misollarini ko'rishimiz mumkin.

Kimdir Internet tarmog'ining afzalliklarini sinab ko'rmoqchi bo'lsa, u bir necha qo'shimcha, bundan oldin tug'ilmagan savollarga ham javob topishi mumkin. To'plash va to'planish tartibni qo'lda

*ushlash uchun muhim omillardan biri emas. Misol uchun, Al-Qoida terroristlari tartibli va soʻzsiz itoatkor edi. Chunki tartib va itoatkorlik bir toʻda manqurtlar va nima qilishni oʻzlari anglay olmaydiganlar uchun qoʻl keluvchi usullardan biri. Shu vaqtning oʻzida, Ben Laden va uning maslakdoshlari yashirin tarzda mana shunday manqurt, oʻz fikriga ega boʻlmagan shaxslarga Internet tarmogʻi orqali davomiy hujumlar amalga oshirdi. Oʻzining «gangster, bezori va anarxistlarga» bagʻishlab yozilgan maqolasida Sullivan shunday deydi: «Hozirgi zamonaviy kurash olamida Internet tarmogʻi har qanday iyerarxiyadan ham ustunroq boʻlishi va gʻolib kelishi mumkin».*

*Hech kim eʼtiroz bildirmaydiki, hozirgi terroristlar va boshqa tarmoq hujumchilari mavjud hukumat, tizim yoki umuman dunyoni oʻzgartirish fikridan uzoqdaligini taʼkidlashadi va yana shuni taʼkidlash joizki, boshqa jinoiy guruhlardan koʻra aynan terroristlarga hukumatni qoʻlga olish uchun vijdonga va muhim qoidalarga murojaat qilishadi. Shu bilan birga, suiqasd va ommaviy oʻldirishlarni qoʻllashmaydi<sup>1</sup>.*

**Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish.** Tarix oʻzga hududlarni zabt etish maqsadida ishlatiladigan urush qurollari uzluksiz takomillashib borganini koʻrsatadi. U nayzalardan tortib avtomatik qurollargacha, zambaraklardan tortib Yer yuzining har qanday nuqtasiga bexato yetib boradigan qitʼalararo ballistik raketalarigacha boʻlgan uzoq takomil yoʻlini bosib oʻtdi. Bu qurollar bosib olinishi kerak boʻlgan hududlar aholisini jismonan yoʻq qilishga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa, oʻzga hududlarni zabt etish uchun ularning aholisini mahv etish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabt etilgan, qarash va kayfiyatlari «maʼqul» yoʻnalishga oʻzgartirilgan yerlik aholi koʻmagida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin boʻlib qolmoqda.

---

<sup>1</sup> Cooper B. *New Political Religions, or An Analysis of Modern Terrorism*. University of Missouri Press. Columbia and London. 2004. — P. 158–172.

Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning shiddat bilan rivojlanishi, kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining tez sur'atlardagi taraqqiyoti g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi, uslub va vositalarning takomillashuviga turtki bo'lib, mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etishiga olib keldi.

Mafkuraviy xavfsizlik – shaxs, millat, jamiyat, davlatning xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladigan mafkuraviy tajovuzlar, turli mafkuraviy markazlarning buzg'unchilik ta'siridan kafolatli himoyalanganligidir. Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash deganda, jamiyat ma'naviy hayotida bo'shliq paydo bo'lishining oldini olish, o'zining pirovard maqsadlariga mos va unga xizmat qiladigan g'oyalar tizimini shakllantirish, uni muttasil mustahkamlab borish, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishdek jarayonlar nazarda tutiladi.

Ma'lumki, odamzodni hamisha tashvishga soluvchi mazkur salbiy illatlarning ildizlari, uzoq o'tmishga borib taqaladi. Buyuk ajdodlarimiz ularga qarshi kurashda sermazmun va purhikmat so'z qudratidan unumli foydalanganlar. Ma'naviyatni yuksaltirish, xususan, kelajagimiz bo'lgan yoshlar axloqini yuksak insoniy fazilatlar bilan boyitish davrimizning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Shu sababli tariximizda bitilgan bebaho merosimizni chuqurroq o'rganish va ularni xalqimiz e'tiboriga havola qilish olimlarimiz oldida turgan mas'uliyatli vazifalardandir. Chunki «g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin».

Qayd etilgan fikrlar hozirgi davrda inson hayotida axborot va bilimlar xilma-xilligining o'rni va ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bilimlar mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri hisoblanishini ham qayd etish lozim. Ammo bilimlar ko'p. Ekstremizm va terrorizm tarafdorlari ham muayyan «bilim»larga tayanadi va uni omma ongiga singdirishga harakat qiladi. Demak, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar obyektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va



to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Bu, bir tomondan. Ikkinchi tomondan, bu bilimlar o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan, millat, insoniyat manfaatlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak. Fuqarolarimizning asl islom haqida xolis va yetarli bilimga ega bo'lishlari diniy mutaassiblikka qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda yot g'oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyini o'z ichiga oladigan mafkuraviy profilaktikaning o'рни katta. U ijtimoiy institutlar tomonidan xilma-xil shakllarda amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy ishlar majmuyini to'g'ri tashkil etilgan butun tarbiya tizimini qamrab oladi.

*«Dars ila tarbiya orasida biroz farq bo'lsa ham ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur».*

*Abdulla Avloniy*

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish bilan birga ilm olish ham dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ilm olishning fazilati haqida islom dini mo'tabar manbalarida alohida zikr etilgan. Bilim olishda har bir inson avvalo o'zligini anglab yetadi. Bu esa to'g'ri yo'lni tanlashga sabab bo'ladi. Ilm deganda faqat diniy emas, balki dunyoviy, aniqrog'i insonlarga foydasi tegadigan ilm tushunilgan. «Xitoyda bo'lsa ham ilm o'rganinglar», «Beshikdan qabrgacha ilm izla», degan hadislarini eslab o'tish o'rinli. Yoshlarning dunyoviy va diniy bilimlarning uyg'unlikda xolis o'rganishi ularning kelajakda barkamol inson bo'lishiga tayanch bo'ladi. Shu bois, yoshlarni avvalo milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hayotimizning asosiy mezoniga aylanishi zarur. Chunki oqilona ta'lim-tarbiya yoshlar on-

gini ham, axloqiy madaniyatini ham o'zgartirishiga sabab bo'ladi. Tarbiyasiz berilgan ta'lim hech bir yerda rivojlanishga olib kelmaydi.

Zero, jismoniy tarbiya bolani jismonan baquvvat, kuchli, sog'lom etib tarbiyalasa, ma'naviy tarbiya orqali unda yuksak axloq, ezgulik, insonparvarlik, shijoat, rahmdillik va mehnatsevarlik sifatlari shakllanadi. Ma'naviy tarbiya farzandning o'zligini saqlashga, uning botiniy olamini ma'rifiy boyitishga xizmat qiladi. Buyuk alloma, vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy aytganidek, «Inson tabiatning eng oliy zoti, kamolotidir, inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi. Insonga katta sharaf ko'rsatilgan – unga aql-zakovat berilgan. Shu sababdan, insonning ma'naviy olami uning oldiga qo'yilgan vazifalarga mos bo'lishi uchun u yuksak axloqli, bilimli, ma'rifatli bo'lmog'i darkor». Demak, farzand tarbiyasi avvalo, uning ma'naviy poydevori qanchalik mustahkamligi bilan belgilanadi.

Shunday ekan, yoshlardagi milliy o'zlikni anglash, diniy bilim va dunyoqarashni shakllantirishda har bir urf-odat, marosim, an'ana va qadriyatlarimizning kelib chiqishi, asl mohiyatini ochib bera oladigan ham ilmiy, ham diniy asoslangan ma'lumotlardan iborat zamonaviy adabiyotlar bilan ta'minlash, ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlar namoyish qilish kabi tadbirlar orqali ijobiy natijaga erishish muhim omillardan sanaladi. Chunki bunday chora-tadbirlar ma'lum ma'noda yoshlar ongini boyitish, haqiqiy milliy va diniy qadriyatlar bilan har xil bid'at-xurofot amallarni farqlash, turli diniy oqim va yo'nalishlar ta'siriga, ekstremistik va terroristik guruhlarning aqidasiqa qarshi immunitet hosil qilish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yoshlarni milliy urf-odat, an'ana va marosimlarimizga hurmat bilan qarash, ularning tarbiyaviy ahamiyatini doimiy tarzda tushuntirib borish, ma'naviy tahdidlardan himoya qilish hamda o'zligini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

*«Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'si-*

*riga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaatini yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar».*

*Islom Karimov*

Darhaqiqat, O'zbekistonning mustaqillikka erishishi mamlakatimiz ma'naviy taraqqiyotida yangi davr va rivojlanish bosqichini boshlab berdi. Ayniqsa, milliy va diniy qadriyatlar, urf-odat va an'analar tiklanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Mustaqillik yillarida yosh avlodni dunyoviy hamda diniy bilimlar uyg'unligida, ajdodlar ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari asosida tarbiyalash masalasiga katta e'tibor qaratildi. Binobarin, ertangi kun egalari bo'lgan yoshlar bugungi kunning eng ilg'or dunyoviy bilimlarini diniy qadriyatlar bilan hamohang tarzda puxta o'zlashtirgan bo'lishi hamda ulardan amaliyotda erkin foydalana olishi masalasi bugungi kunimizning muhim talablaridan biriga aylandi.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy g'oya ruhi bilan yo'g'rilgan ana shunday tarbiya tizimi yaratildi. Uni doimiy takomillashtirib borish va davr da'vatlariga hozirjavobligini ta'minlash esa, har birimiz va barchamizning asosiy vazifamiz hisoblanadi. Shunday ekan, voyaga yetayotgan har bir farzandimizni kuchli mafkuraviy immunitet va yuksak ma'naviyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta'minlashimizning asosiy shartlaridan biri bo'lib qolaveradi.

Demak, har bir insonning o'z ishini sidqidildan amalga oshirishi, loqaydlik, beparvolikning oldini olishi, yon-atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga hushyorlik bilan qarab, Vatan tinchligi yo'lida sergak va ogoh bo'lib yashashi, yoshlarimizning ongu qalbini jaholatdan, yot va zararli g'oyalarga ta'siridan himoya qilish, ajdodlarimizga armon bo'lib qolgan, biz erishgan mustaqillik va tinchlik-osoyishtalikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashning muhim omili hisoblanadi. Buni hech qachon unutmasligimiz, tinchlik uchun doimo o'zimizning bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etib yashashimiz lozim.

*Bugungi kunda dunyo hamjamiyatida mafkuraviy poligonlarning yoshlar tarbiyasiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri har bir mamlakat, davlat, xalq oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi. Bunday sharoitda o'sib kelayotgan barkamol avlodni ona Vatanga muhabbat, milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular ongini turli xil yot g'oya va axborot xurujlardan saqlash muhim vazifalardan hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «Bu borada ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul va uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushunib olishimiz zarur».*

*Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, globallashuv jarayonida kishilarni, ayniqsa yoshlarni turli xil ko'rinishdagi mafkuraviy xurujlar ta'siridan asrashda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarur:*

- *mustaqil fikrga ega, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega shaxslarni tarbiyalash, yoshlar qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirish orqali har xil bid'at-xurofot amallarni farqlash, turli diniy oqim va yo'nalishlar ta'siri hamda aqidasisga qarshi immunitet hosil qilish;*

- *mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashash; go'yoki islom dinini o'rgatishni va'da qilayotgan shubhali shaxslar bilan muloqot qilmaslik, noqonuniy tarzda chop etilgan yoki tayyorlangan diniy mazmundagi adabiyot, disk, mobil telefonlardagi materiallardan foydalanmaslik va olib yurmaslik, Internet tizimida ekstremizm, terrorizm va missionerlikni targ'ib qiladigan saytlardan yoshlarni muhofaza qilish;*

- *yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish, yoshlar ongida vatan-*

*parvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, el-yurt sha'nini ardoqlash kabi ulug'vor fazilatlarini kamol toptirishda oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi asosida ish tashkil etish;*

- *bugungi axborotlar almashinuvi jadal kechayotgan vaqtda diniy masalalarga oid ma'lumotlarni to'g'ridan to'g'ri qabul qilish va unga e'tiqod qilishga shoshilmaslikni tavsiya va targ'ib qilish hamda axborot xurujlari asiriga aylanmaslik lozim;*

- *fuqarolarda diniy bag'rikenglik, boshqa din vakillariga hurmat, o'zaro birodarlik, millatlararo totuvlik, do'stlik tuyg'ularini shakllantirish, mahalla aholisi o'rtasida dinlararo turli ziddiyatlar yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha tushuntirish, targ'ibot ishlarini olib borish;*

- *mahallalardagi notinch, noqobil oilalar yoki diniy mutaassiblikka moyil shaxslar bilan tushuntirish ishlarini olib borishda hayotiy tajribaga ega bo'lgan mahalla faollari, mahallada obro'-e'tibor qozongan kishilar, mahalliy masjidlarda faoliyat yurituvchi imom-xatiblar, shuningdek diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar, tumanlardagi bosh imom-xatiblarning xotin-qizlar masalalari bo'yicha yordamchilarini jalb etish;*

- *aholi o'rtasida din haqida noto'g'ri salbiy tushuncha va tasavvurlar uyg'onishining oldini olish maqsadida aqida, ibodat va boshqa diniy masalalarga oid savollar bilan O'zbekiston musulmonlari idorasi ulamolari, ularning viloyatlardagi vakillari, mahalliy imom-xatiblar va diniy soha mutaxassislariga murojaat qilish;*

- *ekstremizm va terrorizm bilan kurashda, asosan huquq-tartibot organlariga suyanish, faqat jazo choralari qo'llash orqali unga barham berishga intilish mazkur salbiy hodisaning oqibati bilangina kurashish deganidir. Boshqacha aytganda, bunday yo'ldan borilsa, ekstremizm va terrorizmni oziqlantirib turgan «ildiz»lar zararlanmay qolaveradi, ma'lum bir davr o'tishi bilan ular yangi «kurtak»lar berishda davom etishini hisobga olib, bunday manfur kuchlarning kirdikorlarini fosh etish va ularga qarshi kurashishda har bir soha vakili o'zining munosib hissasini qo'shish.*

Demak, axborot kurashi avj olgan XXI asrda din niqobi ostidagi turli xil ko‘rinishdagi mafkuraviy xurujlardan himoya etishda ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining ta’sirchanligini oshirish, hayotimizda sodir bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlar haqidagi chuqur tahliliy ma’lumotlarni yosh avlodga yetkazish, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, bunda «fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish» har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Din niqobi ostidagi mafkuraviy tahdidlar deganda nimani tushunasiz?
2. Ekstremizm va terrorizmning oldini olishda mafkuraviy immunitetning o‘rni va ahamiyatini qanday baholash mumkin?
3. Internet orqali tarqatilayotgan yot g‘oyalarga qarshi kurashda qanday uslub va vositalardan foydalanish mumkin?
4. Yoshlarning ma’naviy olamini yuksaltirish uchun nimalarga e’tibor qaratish kerak?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo‘llari. A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuxeimedov, U.G‘afurov, J.Karimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.
2. Jo‘rayev Sh. «Vijdon erkinligining huquqiy kafolatlari». // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 80 b.
3. G‘oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2013. – 312 b.
4. Hasanboyev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552 b.

## GLOSSARIY

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Ansorlar	Ansars	Ансары	(arab. yordam beruvchilar) ilk islom tarixida Makkadan hijrat qilgan Payg'ambar (a.s.) va muhojirlarga yordam bergan madinalik musulmonlar.
Barqarorlik	Stability	Стабильность	tinchlik, osoyishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat'iy, uzil-kesil hamda mustahkam o'rnatilgan muqim sharoit. Barqarorlik har qanday bunyodkorlik faoliyatining zamini va zaruriy sharti hisoblanadi.
Vijdon erkinligi	Freedom of conscience	Свобода совести	diniy e'tiqod erkinligi.
Global	Global	Глобальный	dunyoviy, butunjahon, Yer sayyorasi bo'yicha keng qamrovli jarayon.
Diniy bag'rikenglik	Religious tolerance	Религиозная толерантность	turli din vakillari e'tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qat'i nazar, ularning yonma-yon va o'zaro tinchtotuv yashashi hamda har bir diniy ta'limotga hurmat bilan qarashni anglatadi.
Jihod	Jihad	Джихат	(arab. g'ayrat qilish, kuchni ishga solish) «juddu-jahd», ya'ni inson o'z maqsadiga erishish yo'lida bor imkoniyatlarini ishga solib, harakat qilishi. Diniy istilohga ko'ra uning nafs, shayton va yov bilan kurashishdek turlari mavjud.

Zimmiy	Dhimmi	Зимми	«zimma ahli» islom davlati hududida yashagani uchun davlat ularning jon va mol-mulkari himoyasiga olgan g'ayridinlar.
Ijtihod	Ijtihad	Иджитихат	islomda yangi paydo bo'lgan diniy muammolarni hal qilishning o'ziga xos usuli.
Konfessiya	Confession	Конфенция	(lotin. e'tirof, e'tiqod) diniy konfessiya deganda muayyan diniy ta'limot doirasida shakllangan va o'ziga xos xususiyatlarga ega e'tiqod va unga ergashuvchilar jamoasi tushuniladi. Bir din doirasida yuzaga kelgan bo'lsada, aqidalar borasida farqlanadigan jamoalar ham diniy konfessiyalar jumlasiga kiradi.
Mavlid	Mawlid	Мавлид	hijriy yil hisobi bo'yicha Rabiul avval oyining 12-kunida Muhammad (a.s.)ning tug'ilgan kunlari sharafiga o'tkaziladigan marosim.
Nosix	Naskh	Насх	(arab. bekor qiluvchi, o'zgartiruvchi) avvalgi hukmni keyingisi bilan bekor qilib kelgan oyat yoki hadis.
Panislomizm	Pan-islamism	Панисламизм	XIX asrning oxirlarida O'rta Sharqda vujudga kelgan islom mamlakatlarini yagona bayroq ostida birlashtirish g'oyasini ko'tarib chiqqan siyosiy oqim.
Radikalizm	Radicalism	Радикализм	(lotin. tomir, ildiz, o'zak) maqsad-muddaoni keskin, murosasiz amalga oshirish, u yoki bu ishdagi mavjud ahvolni tubdan o'zgartirishga intilish.
Sufiy	Sufi	Суфи	islomdagi mistik-zohidlik oqim vakili.



Takfir	Takfeer	Такфир	musulmonni imonsizlikda ayblash.
Fanatizm	Fanaticism	Фанатизм	mutaassiblik.
Xorijiyalar	Khawarij	Хариджиты	(arab. ajralib chiqqanlar, isyonchilar) islom dimidagi ilk paydo bo'lgan diniy-siyosiy oqimlardan biri.
Shahid	Shahid	Шахид	(arab. guvoh) islom diniga ko'ra, imon-e'tiqodi, Vatan ozodligini himoya qilish yo'lida halok bo'lgan va jan-natga kirishi shahodat (va'da) qilingan kishi.
E'tiqod	Faith	Вера	ishonch, tayanch, qarash, muayyan hodisa, voqelik yoki narsaga qat'iy munosabat.
E'tiqod erkinligi	Freedom of faith	Свобода вероисповедания	kishi ongida chuqur o'rnashib qolgan va amalga oshirilishi shaxsning kundalik ehtiyojiga aylangan in-tilish, xatti-harakat va dunyoqarashlar tizimi.
Qur'oni karim	Quran	Коран	Islom dinining muqaddas manbasi, 23 yil mobaynida Payg'ambar Muhammad (a.s.)ga Jabroil farishta orqali ba'zan oyat-oyat, ba'zan esa to'liq sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitob.
Hadis	Hadith	Хадис	(arab. yangi, so'z) Payg'ambar Muhammad (a.s.)ning aytgan so'zlari, qilgan ishlari haqidagi rivoyatlar.
Haram	Haram	Харам	islom ta'limotiga ko'ra qat'iy dalillar bilan bajarilishi taqiqlangan amal.
Hijrat	Hijrat	Хиджрат	(arab. biror narsadan ajrash) shariatda Payg'ambar Muhammad (a.s.)ning Makkadan Madinaga ko'chib o'tishlari tushuniladi.

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### *Asosiy adabiyotlar:*

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 40 b.
2. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida (yangi tahri-ri). O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – Toshkent: Adolat, 1998.
3. Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. //YUNESKO Xalqaro me‘yoriy hujjatlari. – Toshkent: Adolat, 2004.
4. Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respub-likasining qonuni. – Toshkent: Adolat, 2000.
5. «Din sohasidagi ma‘naviy-ma‘rifiy, ta‘lim ishlarini va faoliyatni takomillashtirishda ijtimoiy ko‘mak va imtiyozlar berish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori // «O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami», 2003 y., 15–16-son, 135-modda.
6. Milliy g‘oya targ‘iboti va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samara-dorligini oshirish to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi Preziden-tining Qarori, PQ-451 son. 2006-yil 25-avgust.
7. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlik-ka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Tosh-kent: O‘zbekiston, 1997. – 328 b.
8. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – 176 b.
9. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasi-da. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 440 b.
10. Karimov I.A. O‘zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – 36 b.
11. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. – T.: «O‘zbekiston», 2015.
12. Ilmdan boshqa najot yo‘q. A.Abdullayev, N.Hakimova, Sh. Jo‘rayev, J.Karimov. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. – 156 b.

13. Islom niqobi ostidagi ekstremistik va terrorchi uyushmalar (Ma'lumotlar to'plami) / K.Shermuxamedov, J.Karimov. – Toshkent: «Movarounnahr» nashriyoti, 2014. – 160 b.

14. Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga-yuz javob). Mas'ul muharrir O.Yusupov. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 156 b.

15. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maqsadlar va oldini olish yo'llari. A.Hasanov, O.Yusupov, K.Shermuhamedov, U.G'afurov, J.Karimov. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 160 b.

16. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 246 b.

17. Ochildiyev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari (yuz savolga yuz javob). – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.

18. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. To'ldirilgan nashr. Mas'ul muharrir Shayx Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sharq, 2014. – 536 b.

19. Tulepov A. Internetdagi tahdidlardan himoya: yordamchi o'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir A.Hasanov. – Toshkent: Movarounnahr, 2015. – 408 b.

20. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552 b.

21. Hidoyat ortiga yashiringan zalolat /Mualliflar jamoasi. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 136 b.

### *Qo'shimcha adabiyotlar:*

1. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. / Tarjima va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2012. – 624 b.

2. Sahihi Buxoriy: Al-Jome' as-sahih (Ishonarli to'plam): 1–2-kitoblar // Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil / Abdulaziz Mansur tahriri ostida. – Toshkent: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.

3. Aliyev J. Zulmat girdobi. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – 32 b.

4. Bag'rikenglik – barqarorlik va taraqqiyot omili. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007. – 122 b.

5. Jo'rayev Sh. Buzg'unchi da'vatchilar. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 40 b.

6. Jo'rayev Sh. «Vijdon erkinligining huquqiy kafolatlari». // O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 80 b.

7. Zakurlayev A.K. O'zbekiston rivojiga tahdid solayotgan g'ayriqonuniy diniy oqim va terrorchilik tashkilotlari. Tariqatchilik, asliyat va mohiyat. – Toshkent, 2010. – 134 b.

8. Zakurlayev A. G'oyalar kurashi. – Toshkent: Movaroun-nahr, 2000.

9. Imom A'zam. Al-Fiqh al-akbar. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006.

10. Islom. Ensiklopediya. – Toshkent: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 313 b.

11. Islom ziyosi o'zbekim siyomosida (Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri). – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2005. – 360 b.

12. Islom ma'rifati: asliyat va talqin. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 160 b.

13. Komilov K., Hasanboyev O., Hoshimov N. Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm – jamiyat taraqqiyotiga tahdid. (Ma'rifiy-uslubiy qo'llanma). – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – 32 b.

14. Komilov K., Hasanboyev O'., Hoshimov N. O'zbekiston barqaror taraqqiyot yo'lida (Ma'rifiy-uslubiy qo'llanma). – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – 24 b.
15. Meliqo'ziyev J. Halokat tuzog'i. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013. – 32 b.
16. Ochildiyev A. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. – 24 b.
17. Ochildiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – Toshkent: Muharrir, 2009. – 96 b.
18. Rajabova M. Diniy ekstremizm va terrorchilikka qarshi kurash muammolari. – Toshkent: O'zbekiston, 2003. – 397 b.
19. Rahimjonov D. Ma'rifat – tinchlik asosi. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007. – 196 b.
20. Safarova N.O. Terrorizm (tarixiy-falsafiy tahlil). – Toshkent: NOSHIR, 2009. – 214 b.
21. Tinchlikni asrash – muqaddas burch / Mas'ul muharrir A. Ochildiyev. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – 32 b.
22. Tinchlik va osoyishtalik – oliy ne'mat. – Toshkent: Movarounnahr, 2013. – 144 b.
23. Tulepov A. Internetga in qurgan «o'rgimchaklar». – Toshkent: Movarounnahr, 2014. – 80 b.
24. Shermuxamedov K. Jaholat to'ri. – Toshkent: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 48 b.
25. G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbayi. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 296 b.
26. Hasanov A.A. Islom tarixi darsligi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa-birlashmasi, 2008.

*Xorijiy adabiyotlar:*

1. Al-Mulla Ali al-Qori. Sharh al-fiqh al-akbar li Abi Hanifa an-No'man. Dar an-Nafois: Bayrut, 1997.

2. Butiy, Muhammad Said Ramazon. Al-Jihod fi-l-islam: kayfa nafhamuhu va kayfa numorisuhu. — Damashq: Dor al-fikr, 1993.

3. Butiy, Muhammad Said Ramazon. As-Salafiyya: marhala zamaniyya muboraka laa-mazhab islamiy. — Damashq: Dor al-fikr, 2005. 270-b.

4. Butiy, Muhammad Said Ramazon. Al-lamazhabiyya: axtaru bidha tuhaddid ash-sharia al-islamiyya. — Damashq: Dar al-Forobiy, 2005.

5. Vahba Zuhayliy. Al-fiqhu-l-islomiy va adillatuhu. — Damashq: Dor al-fikr, 1985.

6. Moni‘ ibn Hammod al-Juhaniy. Al-Mavsuat al-muyassara fiy al-adyan val mazohib val a‘zob al-muosira. 5-nashr. 1-2-jild. — Ar-Riyod: Dar an-nadva al-olamiya, 2003.

7. Muhammad Tahir-ul-Qadri. Fatwa on suicide bombings and terrorism. — London: Minhaj-ul-Quran International, 2010.

8. Saloh Abu Sahud. Al-Marjah al-komil fi-l-firaq va-l-jamaat va-l-mazahib al-islamiya. Misr, «Maktabat an-nafiza», 2005.

9. Shayx Abdulloh ibn Bayya. Al-irhob at-tashxis va-l-hulul // Mavqif al-islam min al-g‘ulu va-t-tatarruf. — Ar-Riyod, 2012.

*Internet orqali foydalanishga tavsiya etiladigan veb-sahifalar:*

1. <http://www.iiaw.uz> — O‘zbekiston xalqaro islom akademiya-si veb-sayti;

2. <http://www.islamcenteruz> — O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalar markazi veb-sayti;

3. <http://www.religions.uz> — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita veb-sayti;

4. <http://www.muslim.uz> — O‘zbekiston musulmonlari idorasi veb-sayti;

5. <http://www.buxoriy.uz> — Toshkent islom instituti veb-sayti;

6. <http://www.hidoyat.uz> — «Movarounnahr» nashriyoti veb-sayti;

8. <http://www.ziyonet.uz> — Axborot ta‘lim tarmog‘i;

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
<b>1-mavzu. EKSTREMIZM, MUTAASSIBLIK VA TERRORIZMNING MAZMUN-MOHİYATI.....</b>	<b>7</b>
<b>2-mavzu. DAVLAT VA DIN. O‘ZBEKISTONDA DAVLATNING DIN VA DINIY TASHKILOTLAR BILAN MUNOSABATI.....</b>	<b>28</b>
<b>3-mavzu. ISLOM – TINCHLIK, BAG‘RIKENGLIK VA MA‘RIFAT DINI .....</b>	<b>50</b>
<b>4-mavzu. EKSTREMIZM VA TERRORIZM – JAMIYAT BARQARORLIGIGA TAHDID.....</b>	<b>61</b>
<b>5-mavzu. GLOBAL XAVFSIZLIKKA TAHDID SOLAYOTGAN ENG YIRIK EKSTREMISTIK GURUHLAR VA ULARNING STRATEGIYASI .....</b>	<b>77</b>
<b>6-mavzu. EKSTREMIZM VA TERRORIZMNING MINTAQADA NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....</b>	<b>96</b>
<b>7-mavzu. ISLOM ASOSLARINI G‘ARAZLI MAQSADLARDA BUZIB TALQIN QILISH: MOHIYAT VA MAQSADLAR .....</b>	<b>111</b>
<b>8-mavzu. XALQARO ISLOMIY TASHKILOTLAR, DINIY ULAMOLAR TOMONIDAN EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI CHIQARILGAN FATVOLAR TAHLILI.....</b>	<b>123</b>
<b>9-mavzu. O‘ZBEKISTONNING TINCHLIK VA XALQARO XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHDAGI O‘RNI.....</b>	<b>137</b>
<b>10-mavzu. YOSHLARDA EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH: MAQSAD VA VAZIFALAR.....</b>	<b>149</b>
GLOSSARIY.....	167
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....	170

Shermuxeimedov Komiljon Abduvaliyevich  
Karimov Jamolitdin Abdulxamidovich

# **EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHNING MA'NAViy-MA'RIFIY ASOSLARI**

*o'quv qo'llanma*

Muharrir *M. Tursunova*  
Musahhih *M. Turdiyeva*  
Dizayner *A. Aubakirov*

«O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti,  
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Tel./faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №216, 03.08.2012.

Bosishga ruxsat etildi 06.11.2018. «Uz-Times» garniturasida. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . Shartli bosma tabog'i 11,5. Nashriyot bosma tabog'i 11,0. Adadi 300 nusxa. Buyurtma №20

«FAYLASUFLAR» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.